

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVIKA INSTITUTI
IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI**



TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
fanidan

O‘QUV – USLUBIY MAJMUUA

Bilim sohasi:	500000-SOG`LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIIY TA`MINOT	
	100000 - GUMANITAR SOHA	
Ta’lim sohasi:	510000 – SOG`LIQNI SAQLASH	
	110000 - PEDAGOGIKA	
Ta’lim yo`nalishi:	5111000 –Kasb ta’limi (5510500-Farmatsiya (farmasevtika ishi))	

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI**

***TA'LIM TEXNOLOGIYALARI* FANIDAN**

O'QUV – USLUBIY MAJMU'A

Ta'lim sohasi: 510000 – Sog'liqni saqlash
110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi: 5111000 – Kasb ta'limi (5510500 – farmatsiya
(farmatsevtika ishi))

Umumiy o'quv soati - 96 soat

shu jumladan:

Ma'ruza – 32 soat (10 semestr-32 soat)

Amaliy (seminar) mashg'ulot – 32soat (10 semestr-32 soat)

Mustaqil ish – 32 soat (10 semestr-32soat)

Toshkent - 2020

O'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash vazirligi 2019 yil "12.09" dagi 231-sonli buyrugi bilan (buyruqning 1-sonli ilovasi) tasdiqlangan "Ta'lim texnologiyalari" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchilar:

A.S.Kaldibekova Pedagogika fanlari nomzodi, Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti
D.O.Kamalova Ijtimoiy fanlar kafedrası assistenti

Taqrizchilar:

B.X.Xadjayev - Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti "Umumiy pedagogika" kafedrası Pedagogika fanlari doktori., professor
G.M.Qurbonova - Nizomiy nomidagi TDPU "Umumiy pedagogika" kafedrası Pedagogika fanlari nomzodi., dotsenti

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi Ijtimoiy fanlar soha uslubiy Kengashining 2020 yil 30.06 dagi 20-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Soha uslubiy kengash raisi:


K.K. Ismailov

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi institut Markaziy uslubiy kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi


2020 yil 07.07 dagi 12-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Markaziy uslubiy kengash raisi:


Z.A. Yuldashev

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi institut Kengashida 2020 yil 09. 07dagi 12-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Kengash kotibi :


V.R. Xaydarov



Mundarija:

KIRISH	4
I.NAZARIY MA'LUMOTLAR	
1. “Ta’lim texnologiyalari” fanning predmeti, maqsadi va vazifalari.....	5
2. Ta’lim texnologiyasi fanning ilmiy-nazariy asoslari.....	8
3. Muammoli ta’lim texnologiyasi	13
4. O‘quvchilar faoliyati faolligini jadalashtirish asosidagi ta’lim texnologiyala.....	16
5. Ta’limning fanga yo‘naltirilgan texnologiyasi.....	20
6. Ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasi.....	23
7. O‘quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosidagi texnologiyalar.....	29
8. Ta’limning interfaol strategiyalari.....	33
9. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari	36
10. Tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi texnologiyalar.....	40
11. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish.....	46
12. Pedagogik texnologiyalar-ta’lim texnologiyalari sifatida.....	49
13. Kasb ta’limi o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar.....	54
14. O‘qituvchining faoliyati va peldagogik mahorati.....	56
15. Kasb-xunar kolleji o‘qituvchisining innovatsion nazariyasi va xususiyatlari.....	60
16. Pedagogik mehnatining tashkil etishning ilmiy asoslari.....	64
II.AMALIY MASHG‘ULOTLAR	
1. “Ta’lim texnologiyalari” fanning predmeti, maqsadi va vazifalari.	68
2. Ta’lim texnologiyasi fanning ilmiy-nazariy asoslari.....	73
3. Muammoli ta’lim texnologiyasi	75
4. O‘quvchilar faoliyati faolligini jadalashtirish asosidagi ta’lim texnologiyalari.....	79
5. Ta’limning fanga yo‘naltirilgan texnologiyasi	81
6. Ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasi.....	87
7. O‘quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosidagi texnologiyalar.....	90
8. Ta’limning interfaol strategiyalari	94
9. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari.....	97
10. Tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi texnologiyalar	99
11. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish	101
12. Pedagogik texnologiyalar – ta’lim texnologiyalari sifatida	108
13. Kasb ta’limi o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar.....	111
14. O‘qituvchining faoliyati va peldagogik mahorati.....	116
15. Kasb-xunar kolleji o‘qituvchisining innovatsion nazariyasi va xususiyatlari.....	116
16. Pedagogik mehnatining tashkil etishning ilmiy asoslari.....	118
III GLOSSARIY	122
IV.LOVALAR	
Fan dasturi.....	129
Ishchi dastur.....	139
Tarqatma materiallar	140
V.TESTLAR	144
VI.ADABIYOTLAR RO‘YXATI	149

KIRISH

“Ta’lim texnologiyasi” fani bo’yicha tuzilgan mazkur o’quv uslubiy majmua 5111000-Kasb ta’limi (5510500-Farmatsiya (farmatsevtika ishi)) ta’lim yo’nalishlari o’quv rejasidagi “Umummetodologik fanlar bloki”ning muhim kursi bo’lib, kasb ta’limi ixtisosligi bo’yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo’ljallangan.

Mazkur majmuaning nazariy qismi ta’lim texnologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari; ta’lim texnologiyasining ilmiy-nazariy asoslari; zamonaviy ta’lim texnologiyalari va ularning turlari; interfaol ta’lim strategiyalari; tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish; kasb ta’limi o’qituvchisiga qo’yiladigan talablar va uning pedagogik mahorati6 kasb ta’limi o’qituvchisining innovatsion faoliyati va pedagogik mehnatni tashkil etishning ilmiy asoslari kabi masalalarni o’zida aks ettiradi.

SHuningdek, majmuada amaliy mashg’ulotlar mavzulari va topshiriqlari, keyslar banki va talabalarning mustaqil ish topshiriqlari aks etgan.

“Ta’lim texnologiyasi” fani bo’yicha testlar va glossariylar ham berilgan.

Talabalarni baholash mezonlari, foydalanilgan adabiyotlar ruyxati ko’rsatilgan.

“Ta’lim texnologiyasi” fani bo’yicha ishchi dastur ilova qilingan.

Mazkur O’UMdan farmatsevtika ta’limida ta’lim texnologiyalarni qo’llash hamda pedagogik mahoratni rivojlantirishda nazariy va amaliy material sifatida foydalanish mumkin.

I.NAZARIY MA'LUMOTLAR

1-mavzu: "Ta'lim texnologiyalari" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Reja

1. Ta'lim texnologiyasi xaqida tushuncha
2. Ta'lim texnologiyalarining maqsad va vazifasi.

Tayanch so'z va iboralar:

Texnologiya, ta'lim texnologiyasi, pedagogik texnologiya, pedagogik texnologiyaga yunesko bergan taa'rif, jahon va o'zbekiston olimlarining bergan taa'riflari, bixeviorizm, pedagogik texnologiya xususiyatlari, reproduktiv ta'lim, xotira maktabi .

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni// "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" kitobida. – T.: Sharq, 1997. – B. 20-29.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"// "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" kitobida. – T.: Sharq, 1997. – b.31-61.
4. "O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil, 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda.
5. "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20-avgustdagi 242-son qarori// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 33-son, 442-modda, 52-son, 646-modda; 2017 y., 9-son, 129-modda, 19-son, 345-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.02.2018 y., 09/18/107/0697-son, 01.06.2018 y., 09/18/400/1289-son)
6. "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil, 20 apreldagi PQ-2909-son qarori// Xalq so'zi» gazetasining 2017 yil 21-apreldagi 79 (6773)-soni.
7. "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22-maydagi 304-sonli qarori //Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 21-son, 396-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017 y., 09/17/898/0234-son, 15.02.2018 y., 09/18/109/0699-son
8. "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomil-lashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25-yanvardagi PF-5313 Farmoni//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018 y., 06/18/5313/0618-son.
9. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
10. Azizzo'jaeva N.N. Yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T., 2000 y.
11. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – Namangan: NamMPI,2004.
12. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisod-moliya, 2006.
13. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 102 b.
14. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.
15. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. /Учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров. - М.: Издателский центр "Академия", 2000 y.

16. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.
17. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.
18. Faberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO‘MMMI, 1999 y.
19. Faberman B.L., Musina R.G., Jumabaeva F.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning zamonaviy usullari. – T.: OO‘MMMI, 2002 y.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

20. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse.- M.: "Znanie" 1989.
21. Guzeev V.V. Leksii po pedagogicheskoy texnologii. - M.: Znanie, 1992. Zyazyun YU.V. Osnovy pedagogicheskogo masterstva. – M., 1988.
22. Podlasyy I.P. Pedagogika. Novyy kurs v 2-x kn. – M.: Vldos, 1999.
23. Bepalko V.P. Slagaemye pedagogicheskoy texnologii. – M.: “Pedagogika”, 1989.

1.

«**Texnologiya**» fani ham qadimgi YUnonistonda paydo bo‘ldi va u ikkita so‘z – «**texne**» - san‘at va «**logos**» - o‘rganish – degan ma‘noni anglatadi. Ushbu davrda, bu hu-narmandning predmetni tayyorlash san‘atiga, ustoz rahbarligi ostida (mashqlar tufay-li) o‘zining tirishqoqligi va tabiiy iqtidori orqali erishishini anglatar edi.

«Texnologiya»ning fan sifatida vujudga kelishiga – XVII asrda, sanoat ishlab chiqarishini paydo bo‘lishi, metallurgiya, mashinasozlik, jumladan sanoat jihozlari, paroxod, parovoz, o‘q otuvchi qurollarni ishlab chiqarish jadal rivojlana boshlanishi sabab bo‘ldi.

Bunday murakkab va mehnattalab mashina va jihozlarni ishlab chiqarishni, faqat texnologik jarayoni aniq ishlab chiqilgan texnologik hujjatlar asosida tashkil etish mumkin edi. Ushbu hujjatlarda – xom ashyo, materiallar, yarim fabrikat va mahsulot-larni olish, ishlov berish, qayta ishlash yo‘llari va usullarining murakkab jarayonlarini o‘zaro bog‘liq, ketma-ket va aniq bajariladigan harakat, operatsiyalarga bo‘lib, rejalashtirilgan natijaga erishish tasvir etiladi. Bu kengaytirilgan va ommaviy ishlab chiqarishga asos bo‘ladi. Bizning davrda, texnologiya deb, ma‘lum ishni bajarish san‘ati tushuniladi. Uni egallash uchun u aks ettirilgan texnologik hujjatlarni chuqur o‘rganish taqozo etiladi.

«Texnologiya»ning fan sifatida shakllanishi, texnologiyani ko‘paytirish va shu asosda mutaxassislarni ommaviy tayyorlash, hamda ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatini keltirib chiqardi.

«Texnologiya» va «Pedagogika»ning fan sifatida bir tarixiy davrda shakllan-ganligi, bu qonuniy hodisadir. CHunki kengaytirilgan va ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish, ommaviy o‘qitishni taqozo etdi.

Pedagogik texnologiyalar yoki ta‘limni texnologiyalashtirish yangilik emas, balki 300 yillar oldin **ta‘limni texnologiyalashtirishning asosiy yondoshuvlari** shakllangan edi: (1) ta‘lim maqsadini aniqlashtirish; (2) bu maqsadlarga erishishning optimal (oson) yo‘l va vositalarini tanlash; (3) quyilgan maksadga erishishni kafolatlaydigan ta‘lim modelini loyihalashtirishdir.

YAn Amos Komenskiy fikricha ta‘limning shunday umumiy tartibini inson tabiatining umumiy qonuniyatlari buyicha amalga oshirilishi, «xamma narsa aniq va ravshan rivojlanib borishi» deb taxmin qiladi. Aniq qo‘yilgan maqsad, bu maqsadni amalga oshirish uchun kerak bo‘ladigan vositalar, maqsadga erishish uchun vositalardan foydalanishning aniq qonun-qoidalarini topish zarur deb yozgan edi Komenskiy.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasining kelib chiqishi ham ta‘limda texnik vosita-larni qo‘llash bilan bog‘liq.

Ta‘limni texnologiyalashtirish g‘oyasi XX – asrning 30-yillarida Evropa va AQSHda paydo bo‘ldi.

30-yillarda nashr etilgan maxsus adabiyotlarda «**pedagogik texnika**» atamasi o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkillashga imkon beruvchi usul, vositalar yig'indisi, deb ta'riflanar edi. Bu ta'lim jarayoniga ko'rgazmalar, laboratoriya mashg'ulotlari uchun yangi uskunalar olib kirishni anglatar edi.

● **50-yillarda** pedagogik texnologiyalarning asosiy ko'rsatkichi deb ta'lim jarayonida o'qitishning texnik vositalari tan olindi. Bu ko'proq insonlarga bilim berishga, axborot bankini kengaytirishga, axborot uzatishni osonlashtirishga, ta'limni individuallashtirishga, o'quvchilarning bilimi darajasini samarali tashkillashga sharoit yaratib berar edi.

● **60-yillar** boshida «pedagogik texnologiya» atamasining ta'rifi ta'lim jarayonini dasturlash asosida tashkillanishi degan g'oyaga asoslandi.

● **70-yillardan** boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati yangicha talqin etila boshlandi. Yapon olimi T. Sakamoto tomonidan "O'qitish texnologiyasi - bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi **yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi**" ekanligi e'tirof etiladi.

1979 yilda AQSHning Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif berilgan edi: „Pedagogik texnologiya bilimlarni o'zlashtirishning hamma jihatlarini qamrab oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalashtirish, muammoning echimini baholash va uni boshkaruvchilar, g'oyalar, vositalar va faoliyatni tashkil qilish usullarini o'z tarkibiga oladigan kompleks integrativ jarayondan iborat...“.

Pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqcadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqcadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

Pedagogik texnologiya o'z navbatida *o'qitish* va *tarbiya texnologiyalarini* o'z ichiga qamrab oladi.

O'qitish texnologiyasi – o'quv mashg'ulotining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtirish, har bosqichda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarini oqilona tanlab olish, professor-o'qituvchi va o'quvchining vazifalarini oydinlashtirish qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.

Tarbiya texnologiyasi – tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

2.

Ta'lim texnologiyasi deb, o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchi maqomini o'zgartirish, yangilash yo'li bilan ma'lumot mazmunini va modellashtirish darajalari – o'quv mate-riali, o'quv predmetiga pedagogik ishlov berish, o'rganiladigan mavzuni o'quvchi-talaba-larning real bilish imkoniyatlariga moslashtirish, ta'lim natijasini qabul qilingan etalon darajasiga ko'tarish va baholashga oid usullar, vositalar, ta'limning tashkiliy shakllarini tushunamiz. Ta'lim texnologiyasi o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishning hozirgi etakchi prinsipi (subordinatsiya) ni chegaralaydi, unda koordinatsiya o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirishning etakchi prinsipiga aylanadi. Koordinatsiya ta'limni tashkil qilish, boshqarish va nazorat qilishning bosh prinsipiga aylanganda o'quvchi-talaba ta'lim jarayonining o'qituvchi (pedagog) bilan teng huquqli sub'ektiga aylanadi, ta'lim jarayonini o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba birgalikda amalga oshiradi.

Ta'lim texnologiyasining asosiy maqsadi ham, o'quv predmetlarini to'liq o'zlashti-rishga mos keladigan ta'lim loyihasini yaratishdir. Bunday loyiha hozirgi zamon psi-xologiyasi, didaktikasi va pedagogik amaliyotining asosiy va ilg'or g'oyalariga tayangan holdagina yaratiladi.

Ta'lim – boshqariladigan jarayon bo'lib, uning natijasi, ko'p jihatdan, tayyorlan-gan didaktik loyihaga bog'liq. Didaktik loyiha esa ta'lim texnologiyasining mahsuli-dir. O'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini didaktik loyihaga ko'ra boshqarish ta'lim texnologiyasining pedagogik asosi sanaladi. Har qanday jarayonning boshlanishi va yakuni mavjud bo'lganidek,

didaktik loyihani amalga oshirishning ham kirish va chiqish nuqtalari bor. Ikki nuqta orasiga juda ko'p nuqtalarni joylashtirish mumkin bo'lganidek, didaktik loyihani amalga oshirish ibtidosi bilan intihosigacha bo'lgan masofada ta'limning samarali usullari, vositalari ko'p topiladi. Bu erda ta'lim texnologiyasi eng samarali usul bo'lib, ta'limning samarali shaklini tanlashda o'qituvchiga yordamga keladi.

Fan, texnika va texnologiyaning jadal rivojlanishi sharoitida o'qitish tizimiga quyidagi talablar qo'yiladi:

a) individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnik axborot bilan ishlash malakalarini rivojlantirish;

b) original va nostandart qarorlar, ishchanlik - qobiliyatlarini rivojlantirish;

v) o'qitishni individuallashtirish (o'qishga turli qobiliyatga ega bo'lgani uchun);

g) bilim harakatchanligi, tanqidiy fikrlashganda moslashuvanlik va ijod, ishlab chiqarishning zudlik bilan o'zgaruvchan sharoitiga mos ephillikni shakllantirish.

Ta'lim texnologiyasining maqsadi – ommaviy ta'lim sharoitida ta'lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta'minlash va talabalar tomonidan o'qishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir.

Ta'lim texnologiyasining vazifasi – ommaviy ta'lim sharoitida pedagoglarga o'qitishning etarli samarasiga erishishni ta'minlovchi, o'quv jarayonini yaratish hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning predmeti – o'quv jarayonining o'zi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning ob'ekti – o'quv jarayonining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

O'quv jarayonining texnologik tayyorgarligi o'qitish jarayonini (ishlab chiqarish - texnologik jarayonda, bu mahsulot tayyorlashning texnologik operatsiyalari, uni maqbullashtirish va samaradorligini o'z ichiga oladi. O'qitish jarayonini birxillashtirish (unifikatsiyalash), o'qitishda maksimal samaradorlikka etishish, pedagogik texnologiyani yaratish va qo'llash orqali erishiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. "Texnologiya" tushunchasini qanday izohlaysiz?
2. Ta'lim texnologiyasi deb nimaga aytiladi?
3. Ta'lim texnologiyasining maqsadi nima?
4. Ta'lim texnologiyasining vazifalari nimalardan iborat?

2-mavzu: Ta'lim texnologiyasi fanining ilmiy-nazariy asoslari

Reja:

1. Ta'lim berishni texnologiyalashtirish tushunchasi
2. Pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslangan ta'rifi.
3. Pedagogik texnologiya tamoyillari

Adabiyotlar:

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo'jaeva N.N. Yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T., 2000 y.
3. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – Namangan: NamMPI, 2004.
4. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisod-moliya, 2006.
5. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 102 b.
6. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.

7. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. /Учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров. - М.: Издатский центр "Академия", 2000 y.

8. Руководство по развитию критического мышления. Методическое пособие. – Т., 2002 г.

9. Толіпов О'Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тadbіqiy asoslari. – Т.: Fan, 2006 y.

10. Faberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO'MMMI, 1999 y.

1. Ta'lim berishni texnologiyalashtirish tushunchasi

Yaqin vaqtgacha pedagogik nazariya va amaliyotida «metodologiya» tushunchasi qo'llanilgan: 1. akademik fanni o'qitish metodikasi va metodikasi fanlari; 2. o'quv jarayonini tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar to'plami; 3. xususiy didaktikalar.

Bugungi kunda bu kontseptsiya bilan birga, «pedagogik texnologiyalar» tushunchasi va uning didaktik jihatlari juda keng tarqalgan. XX asrning 50-60-yillaridan boshlab pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish, birinchi navbatda, o'quv jarayoniga turli xil texnik vositalar va axborot texnologiyalarini joriy qilish bilan bog'liq. (*Ta'limdagi texnologiyalar – ta'limdagi texnologiya*). XX asrning 70-80 yillarida pedagogik jarayonning boshqaruvi va uning tizimli qurilishi uslubi sifatida unga yondashish bilan bog'liq pedagogik texnologiyalarning mohiyatini yangi tushunish paydo bo'ldi. (*ta'lim texnologiyasi - texnologiya ta'limi*).

Ta'lim texnologiyasining mohiyatini yakuniy tushuntirish 80-yillarning oxiriga qadar amalga oshirildi. XX asrning 90-yillaridan boshlab pedagogik texnologiyalar bilan bog'liq ilmiy muammolar jadal rivojlanmoqda. Hozirgi vaqtda *pedagogik nazariya texnologiyaning mohiyatini, uning xususiyatlarini yoki mezonlarini, uning tuzilishini, tasniflarini ishlab chiqishni, aniq pedagogik texnologiyalarni o'rganishni ko'rsatadi.*

Zamonaviy pedagogik amaliyotda texnologiya ta'limidan, ta'lim texnologiyalari, aloqa texnologiyalari, o'yin texnologiyalari, maqsadlarni aniqlash texnologiyasi, baholash texnologiyasi va boshqalar foydalaniladi.

Pedagogik texnologiya pedagogik jarayoni muayyan ketma-ketlikda, bosqichma-bosqich, amaliyotda qat'iy rioya qilish ta'lim jarayonida kutilgan natijaga olib keladigan jarayonni shakllantirish usulidir.

Pedagogik nazariyada «pedagogik texnologiya» kontseptsiyasining bir nechta ta'riflari uchraydi. Uning mufassal talqinlari ushbu hodisaning mohiyatini aniqlashning turli yondashuvlari bilan bog'liq. Ularning bir nechtasi bor **yondashuvlar:**

1) *protsessual* pedagogik texnologiya ta'lim jarayonining o'zgaruvchan sharoitida tashxislangan va bashorat qilinadigan natijalarga erishishni ta'minlaydigan muayyan harakatlar, operatsiyalar va protseduralar ketma-ketligida pedagogik jarayonni shakllantirish usulidir,

2) *instrumental* – metodlar, texnikalar, ta'lim va ta'lim vositalari,

3) *shaxsiy*- o'qituvchi pedagogik mahoratining tarkibiy qismi sifatida: pedagogik jarayoni muayyan ketma-ketlikda, tartibda,

4) *tizimli* – ta'lim muassasasida yaxlit o'quv jarayoni sifatida: ta'lim va tarbiya maqsadlari, mazmuni, vositalari va usullari («pedagogika tizimi» kontseptsiyasiga etarlicha).

2. Pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslangan ta'rifi.

Pedagogik texnologiya pedagogik faoliyatni aniq maqsadlar asosida tashkil qilish xamda uning texnologikligini nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Pedagogik texnologiya tizimi pedagogik maqsadlarning aniq amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiyaning mezonlari:

1. **Konseptuallik:** Ma'lum ilmiy asosga, konsepsiyaga tayanish.

2. **Tizimlilik:** Tizimlilik o'quv-tarbiya jarayoni va uning tarkibiy kismalari-ning uzaro mantiqiy bog'likligi.

3. **Boshqaruvchanlik:** oldindan ma'lum bir maqsaddan kelib chiqqan holda jarayonni belgilay olish, rejalashtirish, ta'lim jarayonini loyihalash, har bosqichni *diagnos-tika* qilib borish, turli vosita va usullar ishlatish yo'li bilan natijani *korreksiya* qila olish

4. **Samaradorligi:** ta'lim standartlariga erishishni kafolatlashi, talab qilinadigan vaqt, kuch va vositalarning me'yor darajasida ekanligi.

5. **Takrorlanuvchanlik:** Boshqalar tomonidan qayta amalga oshirish mumkinligi.

Texnologik tizimning asosiy **belgisi** kutilgan natijaga erishishni kafolatlashdir. Buning uchun asosiy maqsadga erishishning har bir bosqichida bajarilishi lozim vazifalar, buning uchun talab qilinadigan vositalar xamda metodlar-ning aniq modullari yoki algoritmlari hosil qilinadi.

Ko'pgina pedagogik texnologiyalar o'z mazmuni, maqsadi, metodlari va vositalariga ko'ra bir-biriga o'xshash. Pedagogik texnologiyalarni ana shu o'xshash xususiyatlariga qarab ularni **bir necha turga ajratish** mumkin.

• Qo'llanilishiga, qamrov hajmiga (masshtabiga) ko'ra ularni uch guruhga ajratiladi:

1. Umumiy pedagogik texnologiyalar.
2. Xususiy pedagogik texnologiyalar.
3. Modulli kichik universal texnologiyalar

Umumiy pedagogik texnologiyalar o'z ichiga yirik texnologiyalarni, ya'ni butun ta'lim tizimiga tegishli bo'lgan masalalarni qamrab oladi.

Masalan: reyting tizimiga o'tish, test texnologiyalariga o'tish shular jumlasiga kiradi.

Xususiy pedagogik texnologiyalar esa ma'lum fan doirasida qo'llanilishi mumkin va qulay bo'lgan texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Masalan: iqtisodiyot fani uchun qulay bo'lgan texnologiyalarni ishlab chiqish.

Modulli kichik universal texnologiyalar biror refleksni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, turli fanlarni o'rganishda ishlatilishi mumkin bo'lgan texnologiyalar-dir. Masalan: didaktik o'yinlar, fikrlashga o'rgatuvchi texnologiyalar. Ular universal xarakterda bo'lib, ko'p vaqt talab etmaydi. Masalan: didaktik o'yinli texnologiyalar.

• **Pedagogik texnologiyalar falsafiy jihatdan quyidagi guruhlarga ajratiladi:**

Materialistik, idealistik, ilmiy, diniy, gumanistik-erkin, majburiy

• **Ta'limni tashkil etilishdagi yondashuv bo'yicha:** Biogen, sotsiogen, psixogen.

• **O'zlashtirish jarayonini tashkil etishga kura:** Assotsiatsiya-refleks, Gestalt, Bixiveoristik, rivojlantiruvchi, suggestiv.

• **SHaxs xususiyatlarini rivojlantirish buyicha:** Axborot texnologiyalari, ope-ratsion texnologiyalar, estetik-axloqiy, evristik, boshqaruvchilik, amaliy.

• **Munosabat texnologiyalari bo'yicha:** Avtoritar, didaktik markazlashgan, shaxsga Pedagogik texnologiya negizida, pedagogik ilmiy usul va malakalari, ishlab chiqarishning usul va malakalaridek, o'quv jarayonini ro'yobga chiqaruvchi ob'ektiv mantiqiy imkoniyatlar sifatida mavjud bo'lishi mumkinligi haqidagi, tasavvur yotadi.

Ishlab chiqarish sohasida ushbu imkoniyatlar qanday ro'yobga chiqarilsa, pedagogik ishda ham shunga o'xshash jarayon sodir bo'ladi. YUqori malakali pedagog o'zning pedagogik qobiliyati tufayli bu imkoniyatlarni aniqlaydi va ularni ishlab chiqadi.

O'qitish jarayonining mavjud ob'ektiv qonuniyatlarni o'rganish va qo'llash, o'qitishda zaruriy natijaga erishish, ma'lum darajada hattoki pedagog va talabaning qobiliyatiga bog'liq emas degan xulosaga olib keladi.

Pedagogik jarayon qanchalik chuqur ishlangan va ob'ektlashgan bo'lsa, uni ro'yobga chiqarish uchun, shunchalik kam qobiliyat talab etiladi. Ushbu, om-maviy ta'limning butun amaliyotida o'z tasdig'ini topdi. Bundan tashqari kompyuterli o'qitishni joriy etish amaliyoti, odamning bevosita ishti-rokisiz ham, o'qitishning usul va yo'llari tizimi, amalga oshirilishi mum-kinligini ko'rsatmoqda.

Pedagogik texnologiyaning xususiyati shu bilan belgilanadiki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni yaratiladi va ro'yobga chiqariladi.

Ishlab chiqarish texnologik jarayon ma'lum mahsulot uchun ishlan-ganidek, xuddi shunday pedagogik texnologiya ham har qaysi fan uchun o'qi-tish texnologiyasining asosiy elementlarini o'z ichiga olgan umumiy uslu-biyot asosida ishlab chiqiladi.

Pedagogik texnologiyaning afzalligi ham, ahamiyati ham shu bilan belgilanadi. Bu ommaviy o'qitish sharoitida, talabalarni to'la o'zlashtirishini ta'minlovchi yagona to'g'ri yo'ldir.

3. Pedagogik texnologiya tamoyillari

Pedagogik texnologiya maqsadlari, vazifalari, tarkibi, mazmunining tahliliga ko'ra uning quyidagi asosli tamoyillari shakllantirilgan: *ilmiylik, loyihalanish, tizimlilik, yo'naltirilganlik, faoliyatli yondashuvlik, boshqariluvchanlik, tuzatuvchanlik, natijaviylik, qayta takrorlanuvchanlik, tejamlilik*. Ushbu barcha tamoyillar o'zaro bog'liq bo'lib, biri birini talab etadi va to'ldiradi. Bu tamoyillar asosida o'quv jarayoni tashkil etiladi, ya'ni uning tayyorgarligi va o'qitish jarayoni amalga oshiriladi.

1. *Ilmiylik tamoyili*. Bu tamoyil har qanday o'quv predmeti, o'quv materiali fanining zamonaviy yutuqlariga tayanishi lozimligini ko'rsatadi. Ushbu tamoyil, eng avvalo o'quv dasturlar, o'quv qo'llanmalar va dasturlarni yaratish jarayonida amalga oshiriladi.

2. *Loyihalanish tamoyili*. Bu tamoyil, pedagogik texnologiyaning eng muhim xususiyatlaridan birini belgilaydi. Loyihalanish tamoyili - bu o'quv jarayonini tashkil etish, hujjatlarini - o'quv jarayoni grafigi; ishchi o'quv reja; fanning ishchi o'quv dasturi; fanning, bo'limlarning, tayanch iboralarining o'quv maqsadlari toifalari; o'qitish jarayoni texnologiyasi, egallangan bilim va malakalarni baholash - oldindan yaratishni anglatadi.

3. *Tizimlilik tamoyili*. Pedagogik texnologiya, o'quv jarayonining barcha element-larini qamrab olishi bilan alohida ajralib turadi. Tizimlilik tamoyilining mohiyati shu bilan ifodalanadi.

4. *Maqsad yo'naltirilganlik tamoyili*. O'quv jarayoni maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Maqsad ham qonun kabi odamning xarakteri va harakat usulini aniqlashi zarur. Buning uchun o'rnatiladigan maqsad, aniq va o'lchaniladigan bo'lishi shart. *Bixeviorizm* g'oyalari tayangan, pedagogik texnologiya aynan shu bilan farq qiladi. Psixologiyada bu yo'nalishning xususiyati - organizmni qo'zg'atishga bevosita bog'liqligini shakl shubhasiz tan olish va uni bu qo'zg'alishga undashdan ibortdir.

Pedagogik texnologiyada, maqsadlarni shakllantirish umumiylikdan xususiylikka tizimli yondashish asosida amalga oshiriladi.

5. *Faoliyat yondashuvi tamoyili*. Ilmiy-texnik taraqqiyotning hozir-gi bosqichi murakkab yuqori texnologiyalarni qo'llash, ilmtalab mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan xarakterlanadi, bunda nafaqat fan ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Balki ishlab chiqarish fanning jadal rivojlaniga sharoit yaratadi. Bu sharoitlarda, faoliyat yondashuviga tayangan o'quv jarayonning samaradorligi oshadi. O'quv reja, fanlar dasturi, mashg'ulotlar turi bo'yicha o'quv soatlari, mutaxas-sis faoliyatining batafsil tahlili asosida o'rnatilishi maqsadga muvo-fiqdir.

6. *Boshqariluvchanlik tamoyili*. Pedagogik texnologiya o'qitishning rejalashti-rilgan natijalariga erishishni kafolatlaydi. Bunga, faqat o'quv jarayoni boshqari-ladigan taqdirdagina erishish mumkin. Boshqarish - jarayonni rejalashtirilgan maromda amalga oshirish, o'qitish maqsadlariga erishish dasturini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi.

7. *Qayta takrorlanish tamoyili*. Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida, zaruriy miqdordagi mahsulot tayyorlash, oldindan yaratilgan texnik xujjatlar asosida amalga oshiriladi. Qayta takrorlanish tamoyili, ma'lum fan bo'yicha ishlab chiqilgan pedagogik texnologik xaritani, turli guruhlarda turdosh ta'lim muassasalarida boshqa sub'ektlar bilan ko'p marotaba (takroriy) qo'llash imkoniyatini anglatadi.

8. *Samaradorlik tamoyili*. Ushbu tamoyil, pedagogik texnologiya o'qitishning ko'zlangan natijalariga maqbul xarajatlar bilan kafolatli erishish imkoniyatini yaratishini ko'rsatadi.

Pedagogik texnologiya, o'z tamoyillariga, binoan, tegishli tabiiy qobiliyatga va zaruriy o'qituvchilik ish tajribasiga ega bo'lgan etuk pedagoglar tomonidan loyiha-lanadi. Pedagogik

texnologiyaning tamoyillari, qayta takrorlanadigan o'rgatuvchi sikl sifatida ro'yobga chiqariladigan o'quv jarayonini yaratishga imkon beradilar.

Pedagogik texnologiya quyidagi asosiy **elementlardan** iborat:

- O'ta aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish. Ularni o'lchash va baholash mezonlarini o'rnatish.

- O'quv maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan, o'quv jarayonini ishlab chiqish va aniq tasvirlash.

- Butun o'quv jarayonini, o'qitish natijalariga kafolatli erishishga qaratish.

Pedagogik texnologiyalarni yaratish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, o'ta aniqlash-tirilgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish uchun, amerikalik pedagog-olim B.Blum taksonomiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'lchov mezonlarini o'rnatish va ularni baholash ishlab chiqilgan diagnostik testlar yordamida bajariladi.

Bunda, har bir o'quv materialining minimal o'zlashtirilish darajasini belgilash muhit ahamiyatga ega. Butun o'quv jarayoni, unga qaratilgan taqdirdagina, o'quv maqsad-lariga erishish mumkin bo'ladi.

O'quv jarayonini o'quv maqsadlariga erishishga yo'naltirish, o'quv rejasini ishlab chiqishdan boshlanadi. Birinchi navbatda o'quv rejadagi har bir fanning, mutaxassis tayyorlashdagi o'rni va ahamiyatini aniq o'rnatish zarur. Bu esa, Davlat ta'lim standartlari va mutaxassis faoliyatining chuqur tahlili asosida bajariladi. O'quv fanining mutaxassis tayyorlashdagi rolga ko'ra, mashg'ulotlar turlari – ma'ruzaviy, amaliy (seminar), laboratoriya, mustaqil ishlar orasidagi munosabatlar o'rnatiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ilmiy-texnik taraqqiyoti jadal rivojlanish davrida o'qitish tizimiga qo'yiladigan talablarni aytib bering.
2. Pedagogik texnologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi va uni o'qitishning zamonoviy konsepsiyasini aytib bering.
3. «Ta'lim texnologiyasi» iborasining ta'rifini tushuntirib bering.
4. Pedagogik texnologiyaning tamoyillarini aytib bering.

3-mavzu: Muammoli ta'lim texnologiyasi

Reja:

1. Muammoli o'qitishning rivojlanish va shakllanish tarixi.

2. Problemalı vaziyatlarning metodikasi va tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari.

3. Problemalı o'qitishning klassifikatsiyalik parametrlari.

Adabiyotlar:

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo'jaeva N.N. Yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T., 2000 y.
3. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – Namangan: NamMPI,2004.
4. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisod-moliya, 2006.
5. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 102 b.
6. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.
7. Новые педагогические i информационные технологии v sisteme obrazovaniya. /Uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix vuzov i sistemy povыsheniya kvalifikatsii pedagogicheskix kadrov. - M.: Izdatelskiy sentr "Akademiya", 2000 y.
8. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.

9. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.
10. Faberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO‘MMMI, 1999 y.

1. Muammoli o‘qitish bu takomillashgan o‘qitish texnologiyasidir.

Hozirgi oliy maktabdagi samarador o‘qitish texnologiyasi - bu muammoli o‘qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o‘qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Muammoli o‘qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o‘qitishniig reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o‘sib boradi.

Hozirgi psdagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o‘qitishning turli tarif va tavsiflar bor. Biznpngcha, nisbatan to‘liq va aniq ta‘rif M.I.Maxmudova tomonidan berilgan bo‘lib, unda muammoli o‘qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari (tahlil, umumlashtirsh) hisobga olingan o‘rgatish va dars berish usullarini qo‘llash qoidalari va talabalarning tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlarining (muammoli vaziyat, bilishga bo‘lgan qiziqish va talab...) tizimi sifatida izohlanadi.

Muammoli o‘qitishning mohiyatini o‘qituvchi tomonidan talabalarning o‘quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o‘quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil atadi. Bu esa bilimlarni o‘zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Ma‘lumki, o‘qitishning har qanday asosida inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qotidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayonni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishda ob‘ektiv konuniyatlari didaktik tamoyillarga tayanadi. O‘qitishshshg hozirgi jarayoni tahlili psixolog va pedagoglarning fikrlash muammoli vaziiit, kutilgan xayrat va mahliyo bo‘lishdan boshlanadi, degan xulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko‘rsatadi. O‘qitish sharoitida insonning o‘sha psixik, emotsional “hissiy holati unga fikrlash va aqliy ishlash uchun o‘ziga xos turtki vazifasini bajaradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik “vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o‘ziga xos o‘qitish sharoitida yuzaga keladi. SHuningdek, o‘rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. SHunday qilib, o‘qitishda muammoli vaziyat shunchaki “fikir yo‘lidagi kutilmagan to‘siq” bilan bog‘langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish maqsadlari maxsus takozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o‘zlashtirilgan bilim izliri aa yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog‘liq bo‘la bermasligini ta‘kidlash o‘rinli bo‘ladi. YAngi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog‘lanmasa, aqliy mashakqat muammoli bo‘lmaydi. Bunday mashaqqat aqliy izlanishni kafolatlamaydi. *Muammoli vaziyat* har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan ob‘ekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtda ma‘lum bo‘lgan vazifa, masala bo‘yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi.

SHuiday qilib, *muammoni xosiyatining* moxiyati shundaki, u talaba tanish bo‘lgan ma‘lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunishi va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o‘rtasidagi znddiyatdir. Ziddiyat bilimlarni ijodiy o‘zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- *talabaga notanish faktning mavjud bo‘lishi;*
- *vazifalarni bajarish uchun talabaga berilidigan ko‘rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashakkatini hal kilishda ularning shaxsiy manfaatdoli.*

Muammoli vaziyatdan chiqish olish hamma vaqt muammoni, ya'ni noma'lum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va echimini anglash bilan bog'langan.

Muammoli vaziyatning fikriy taxlil qiladigan bo'lsak, mustaqil aqliy faoliyatidir. U talabani intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarni tushunishga, unga kirish, muammoni so'z bilan ifodalash, ya'ni faol fikr yuritishni belgilashga olib ksladi. Bu urinda izchillik yorqin ko'rinadi avvalo muammoli vaziyat yuzaga keladi, so'ng o'quv muammosi shakllanadi.

O'qitish amaliyotida boshqa variant - o'sha muammo tashqi ko'riishda muammoli vaziyat yuzaga kelishsha munofiq kelganday bo'ladigan varnant ham uchraydi. Fikrlar, luqmalar nazaray qoidalar ziddiyatlar shaklidagi, savollar ko'rinishidagi muammoni ifodasi odatda "nimaga" savoliga javob bo'ladigan muammoli vaziyatning mavjudligini aks ettiradi.

Muammo uch tarkibiy qismdan iborat: ma'lum (berilgan vazifa asosida), nomalum (ularni topish yaigi bilimlarni shakllantirishga olib keladi) va avvalgi bilimlar (talabalar tajribasi). Ular noma'lumni topishga yo'nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo talabaga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, lekin talabalar o'zlaridagi avval egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib turib kutilgan natija yoki echilish yo'lini izlashga tushadi.

SHunday qilib, talabalar biladigan vazifa va uning mustakil hal qilinish usuli o'quv muammosi bo'la olmaydi, ikkinchidan, biror vazifaning echilish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa ham o'quv muammosi bo'la olmaydi.

O'quv muammosining muhim belgilari quyidagilar:

- *yangi bilimlarni shakllanpshirishga olib keladigan noma'lumning bo'lishi;*
- *talabalarda noma'lumni topish yo'lida talantni amalga oshirshi uchun zarur bo'lgan muayyan bilim zahirasining bo'lishi.*

O'quv muammosini echish jarayoinda talabalar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uning echilish usulini o'ylab topish yoki gipoteza qilish hamda uni asoslashdir.

O'quv muammosi muammoli savollar bilan izchil rivojlantirib boriladi va bunda har bir savol uni hal qilinishida bir bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Muammoning tarkibiy qismlari, malum va nomalumiing o'zaro munosabati xarakteri bilimga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi va faol bilishga bo'lgan izlanishga undaydi.

Ta'kidlash joizki, *muammoli o'qitishning zaruriy sharti talabalarda uning natijasini izlash jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabitni vujudga keltirish hisoblanadi.*

Talabalarining muammoli o'qitishdagi ijodiy va qidiruv bilish faoliyati muammoli vaziyat paydo qilinganda talabalar mashg'ulotda *muammoni ifodalab berishdan* iborat bo'ladi, yani bilishdagi qiyinchiliklarning paydo bo'lishi mohiyatini (ya'ni ushbu damda unga nima ma'lum bo'lsa) so'z bilan ifodalab beradi, so'ngra muammoning echilish usullarini qidiradi va bunda turli taxminlarni olg'a suradi, talabalar haqiqiy deb topgan taxminlardan birini faraz sifatida asos qilib oladi va uni isbotlaydi, izlanish muammo yoki vazifa bajarilgandan so'ng tugallanadi.

SHaxs bilish faoliyatining izlanish davrini maxsus sxemalarda ifodalash mumkin: *muammoli vaziyat - o'quv muammosi - o'quv muammosini echish uchun izlanish - muammoning echilshii.*

Muammoli o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda o'qituvchi uning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo'lishi talab qilinadi. O'qituvchi hech qachon talabalarga tayyor haqiqatni (echimini) berishi kerak emas, balki ularga bilimlarni olishga turtki berishi, mashg'ulotlarda va hayot faoliyatlarida zarur bo'lgan axborot, voqea, vaqt va hodisalarni ongida qayta ishlashlariga yordam berishi lozim bo'ladi.

Muammoli o'qitish bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtirish, atrof-muhitga o'zining faol munosabatini belgilab olishda talabalar bilish faoliyatini jonlantirishda katta imkoniyatlarga ega.

Muammoli o'qitishda o'qituvchi talabalarining bilish faoliyatini tashkil etadi, shundagina talabalar fanlarni tahlil qilish asosida mustaqil ravishda intellektual mashaqqatlarni hal qilish,

xulosa chiqarish va umumlashtirish, qonuniyatlarni shakllantirish, qoʻlga kiritilgan bilimlarni yangi vaziyatga tatbiq etishga intiladi.

SHunday qilib, muammoli oʻqitishning vazifasi talabalar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy hamda amaliy faoliyatlari usullarini samarali oʻzlashtirishga xamkorlik qilish, ularda yangi vaziyatda olingan bilimlarni ijodiy qoʻllash malakasini hosil qilish, bilish, mustahkamlashga oʻquv va tarbiya muammolarini hal qilishidir.

Oʻquv jarayonining amaliy tahliliy muammosi oʻqitishning oʻziga xosligini belgilash imkoniyatini ochadi. Muammoli oʻqitishning mohiyati taʼlim oluvchi tomonidan oʻzlashtirilishi lozim boʻlgai axborotlarni oʻqituvchining maxsus tashkil qilishidan iboratdir.

Mashgʻulotlarda ijodiy suhbatni qoʻllash maqsadga muvofiq topiladi. Talabalar bunday suhbat jarayonida oʻzlarida avvaldan mavjud boʻlgan bilimlari, ijodiy faoliyati tajribasiga asoslangan holda oʻqituvchi rahbarligida muammoni izlaydi va mustaqil ravishda uning echimini topadlar. Talabalar oʻz tashabbuslari bilan savollarga javob beradilar yoki oʻz chiqishlarida turli mulohazalarni bildiradilar, muammoning echilishidagi oʻz variantlarini ilgari suradilar, hodisalar oʻrtasidagi rang-barang, aloqalar borasida bahslashadilar, boshqalarning fikriga tanqidiy munosabat bildiradilar. Bu jarayonda oʻqituvchining talabalarga yordam berish darajasi ularning mashgʻulotlarga tayyorgarlik koʻrish darajasiga bogʻliq boʻladi.

Materialni muammoli bayon qilish. Bunda ijod oʻqituvchi tomonidan amalga oshiriladi va tobora faollashtirib boriladi. Oʻqituvchi yangi materialni bayon qilishda uning echilishini oʻzi taminlaydi. Bunda oʻqituvchi ziddiyatlarni taʼkidlaydi, uni barchaga eshittirib muhokama qiladi, oʻz mulohazalarini bildiradi, haqiqatni faktlar, mantiqiy isbotlar tizimi yordamida asoslaydi. Oʻqituvchi bu tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshira olsa, talabalar uning fikrlari borishiga diqqat bilan qoʻshilib boradi, muammolarning echilish oqimiga qoʻshilib ketadi, birga fikr yuritadi, birga hayajonlanadi, shu tariqa mashgʻulotning qatnashchisiga aylanadi. Bunda oʻqituvchi talabaning bilish jarayonini savollar berish, savolga savol berish yoʻli bilan boshqaradi va shu orqali auditoriyadagi oʻrganilayotgan materiallar boʻyicha ziddiyatlarga diqqatni jalb qiladi va talabalarni oʻylab fikr yuritishga majbur qiladi. Oʻqituvchi tushunilmagan savolni hal qilishidan oldinoq talabalar oʻzlaricha oʻz javoblarini tayyorlab qoʻyadilar va uni maʼlum muddat oʻtgach oʻqituvchining fikri va xulosasi bilan taqqoslaydilar.

Materialni muammoli bayon qilish axborotni bayon qilishdan tubdan farq qiladi, chunki unda u yoki bu hodisaning belgilari, xossalari, tushunchalari, qoidalari shunchaki tasvirlab beriladi, tayyor xulosalar bayon qilinadi.

Oʻquv axborotlarining muammoli bayoni metodidan foydalanishning boshqa varianti fan taraqqiyoti tarixidagi u yoki bu qonunning olimlar tomonidan kashf etilishi yoʻlini yoritib berish boʻlishi ham mumkin.

Oʻquv jarayomida keng tarqalgan metodlardan biri - *shartli ravishda oʻquv axborotlarining bayonini muammoli boshlash* deb nomlanadigan metoddir. Materialni muammoli bayon qilish metodidan bu metod muammoli ham, faqat materialni bayon qilish boshidagina yaratilishi bilangina farqlanadi. Keyinchalik material axborot usulida bayon qilinadi. Albatta, bu metod yuqorida talabaning ijodiy izlanish faoliyati, ayniqsa, ijodiy metodida koʻringan koʻnikmalarni hosil qilishga imkoniyat bermaydi, lekin talabalarning mashgʻulot ibtidosida olgan ilhomlari barcha materialni faol idrok qilishga, unga yuqori qiziqish uygʻotishga bevosita turtki beradi. YUqoridagi barcha metodlar orasida bu metod oʻzining oddiyligi bilan ajralib turadi.

Muammoli vaziyatni tashkil qilishda quyidagi ehtimol koʻringan didaktik maqsadlarni hisobga olish zarur: oʻquv materialiga talabalar diqqatini jalb qilish, ularning bilishga boʻlgan qiziqishini uygʻotish, talabalarning bilish faoliyatini jonlantirish, ularni intellektual zoʻriqish mashaqqatlariga olib kelish, talabalar tomonidan egallangan hozirgi bilim, malaka va koʻnikmalar kelajakda yuzaga keladigan bilishga boʻlgan talablarini qondira olmasligini koʻrsata bilish, talabalarga oʻquv muammolariii tahlil qilishga, uning echilishidagi eng ratsional yoʻllarni aniqlashda yordam berish kerak.

Muammoning murakkabiligi, talabalarning bilim saviyasi va malakasni, ularning ijodiy faolligi ko'nikmalari, didaktik maqsadga yo'nalganligiga qarab muammoli o'qitishda talaba va o'qituvchi o'zaro munosabatlarining turli variantlari bo'lishi mumkin, yani *muammolilikniig turli sathlari* amalda bo'lishi mumkin.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda asosan muammolilikning uch sathi haqida fikr yuritiladi:

Birinchi satxda o'qituvchi o'zi muammoni qo'yadi, uni shakllantiradi va talabalarni mustaqil ravishda uning echilish yo'lini qidirishga yo'naltiradi.

Ikkinchi satxda o'qituvchi faqat muammoli vaziyatni vujudga keltiradi, talabalar esa muammoni mustaqil shakllantiradilar va echadilar.

Uchinchp sath - oliy sath bo'lib, unda o'qituvchi shunday qoidani ko'zda tutadi: muayyan muammoni ko'rsatib bermaydi, balki unga talabalarni "ro'baro" qiladi hamda ularni mustaqil ijodiy faoliyagga yo'naltiradi, ularni boshqaradi va natijani baholaydi. Talabalar esa muammoni mustaqil anglaydilar, uni shakllantiradilar, uning echilish usullarini tadqiq qiladilar.

O'z-o'zini nazorat qilish va tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Muammoli o'qitish deganda nimani tushunasiz?
2. Muammoli o'qitishning asosiy belgilari nimalardan iborat?

4-mavzu: O'quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadalashtirish asosidagi ta'lim texnologiyalari

Reja:

1. O'yinli texnologiyalar.
2. O'yinli texnologiyalarni funksiyalari.
3. Pedagogik o'yinlar klassifikatsiyasi.

Tayanch tushunchalar

O'yinli texnologiyalar, o'yin funksiyalari, o'yin tuzilmasi, pedagogik o'yin, tadbirkorlik o'yinlari, sotsial-psixologik muammolar.

Adabiyotlar:

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: 2006.
3. Amonashvili SH. A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsesssa. – Minsk.: 1990.
4. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – Namangan: NamMPI, 2004.
5. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisod-moliya, 2006.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 102 b.
7. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.
8. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.
9. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiriy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.
10. Faberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO'MMMI, 1999 y.

1.O'yinli texnologiyalar.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

D.N. Uznadzening ta'rificha, o'yin shaxsga xos bo'lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulqi shaklidir.

L.S. Vigotskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi.

A.N.Leontev o'yinga shaxsning hayotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni hayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta'kidlaydilar, o'yinga kirishib ketish qobiliyati ki-shi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'la-di.

2. O'yinli texnologiyalarni funksiyalari.

O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar: *ko'ngilochar; kommunikativlik; o'z imkoniyat-larini amalga oshirish; davolovchilik; tashxis; millatlararo muloqot; ijtimoiylashuv.*

Tadqiqotchilar o'yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O'yinlarning muhim qirralari S.A.SHmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbirni) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko'ra, faoliyat jarayonining o'zidan bahra olish uchun qo'llanadi.

O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga – "ijod maydoni"ga ega bo'ladi.

O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar.

Tadqiqotchilar nazariy aspektda o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar.

O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub'ekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi (G.K. Selevko ta'biricha) quyidagilarni qamrab oladi: *o'ynash uchun olingan rollar; bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari; predmetlarni, ya'ni haqiqiy narsalarni shartli, o'yin narsalari o'rnida qo'llash; o'yinda ishtirok etuvchilarning real o'zaro munosabatlari; o'yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mazmun) – ijro sohasi.*

O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'limini o'zlashtirishda o'qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi.

O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llanadi.

O‘yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko‘nikmalarni qo‘llash, umumta’lim malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma’naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o‘yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog‘ishtirish, o‘xshashini topish, faraz, hayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal echimni topa olish, o‘quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiylashuv o‘yinlari jamiyatning me‘yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko‘nikish, ehtirolarni nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish, muloqotga o‘rgatish, psixoterapiyani nazarda tutadi.

3. Pedagogik o‘yinlar klassifikatsiyasi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o‘yin degan tushuncha mavjud.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o‘yinlar “o‘yinli pedagogik texnologiyalar”ni tashkil etadi.

Pedagogik o‘yinda ta’limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo‘yiladi. Pedagogik o‘yinlar asosida talabalarni o‘quv faoliyatiga yo‘llovchi o‘yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

G.K. Selevko tomonidan pedagogik o‘yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik o‘yinlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda bo‘ladi:

didaktik maqsad o‘yinli vazifa shaklida qo‘yiladi;

o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysunadi;

o‘quv materialidan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi;

o‘quv jarayoniga didaktik vazifa o‘yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;

didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o‘yin natijalari bilan bog‘lanadi.

Oliy maktab amaliyotida tadbirkorlik o‘yinlariga alohida ahamiyat beriladi.

Tadbirkorlik o‘yinlari nazariyasi umuman boshqa o‘yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog‘langan.

Tadbirkorlik o‘yinlarini mashhur psixologlar L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, P.YA. Galperin va boshqalarning ishlarida nazariy asoslangan.

Tadbirkorlik o‘yinlari o‘z xarakteriga ko‘ra insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi.

Tadbirkorlik o‘yinlari bilish va o‘qitishning vositasi sifatida XX asrning 20-yillarida gurkirab rivojlandi. Tadbirkorlik o‘yinlariga taqlidiy (imitatsion) o‘yinlar bilishning vositasi sifatida asos bo‘ldi. Taqlidiy o‘yinlarga o‘z navbatida harbiy va harbiy-siyosiy o‘yinlar asos bo‘lgan.

A.A. Verbitskiy tadbirkorlik o‘yinlariga o‘qitishning ishoraviy-kontekst shakllari sifatida qaraydi. Uning fikricha, tadbirkorlik o‘yinlarida mashq qilish faoliyati va bo‘lajak kasbiy faoliyat model yoki uning prototipi, qaysidir sun‘iy va tabiiy tizim sifatida o‘zaro nisbatlanadi. SHu tufayli tadbirkorlik o‘yinlari kasbiy faoliyatning ishoraviy modellari sifatida belgilanadi, uning konteksti (mazmuni) ishora vositalari, ya’ni tabiiy tilni ham hisobga olgan modellashtirish, taqlid (imitatsiya) va aloqa yordamida beriladi.

A.A. Verbitskiy oliy o‘quv yurtining vazifasini bunday o‘qitishda, ya’ni talabani bir etakchi faoliyat tipi (uquv)dan boshqa (kasbiy) tipga faoliyatning predmeti, motivi, maqsadi, vositasi, usul va natijalarini maqsadga muvofiq yo‘naltirilgan (o‘zlashtirilgan) holda o‘tkazishni ta’minlash deb biladi.

Tadbirkorlik o‘yini yangi texnologiya sifatida mohiyatan quyidagilarni bildiradi:

ishlab chiqarish imitatsion modeli sifatida taqdim etilgan o'quv materialini mazmunining izchilligi;

o'yinli o'quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish;

o'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni tug'dirish va ularni amalda qo'llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;

o'yinning ta'limiy va tarbiyaviy samaradorligi yig'indisi;

o'yinni olib boruvchi o'qituvchining talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishidan talabalarining o'z xatti-harakatlarini tashkil etish va boshqarishga o'tishini ta'minlashi.

Tadbirkorlik o'yini ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida quyidagi tayyorgarlik bosqichlariga ega:

1. O'quv-bilish vazifalarini muammoli vaziyat topshirig'i shaklida qo'yish.
2. Navbatdagi vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan avval egallangan bilimlardan foydalanish.
3. Tadbirkorlik o'yinlarining shartlarini tushuntirish va vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan yangi amaliy bilimlarning axborotini berish.
4. Navbatdagi ishni rejalashtiri.
5. Vazifa shartlari, ularning bajarilishini tushuntiruvchi qoidalar (materiallar)ni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha mustaqil ishlar va tadbirkorlik o'yinlaridagi o'z mavqeini aniqla
6. O'zlaridagi bor bilim, malaka va ko'nikmalar asosida reja bo'yicha ishlarni bajarish:
7. Talabalar faoliyatini, ularning bilimi, malakasi, ko'nikmalarini nazorat qilish va joriy yo'l-yo'riqlar berish.
8. Talabalarining tadbirkorlik o'yinlariga tayyorligini aniqlash maqsadida ularning mustaqil ishlari natijalarini tekshirib ko'rish.
9. Talabalarga tadbirkorlik o'yinlarini o'tkazish va unda qatnashish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish, ularni rol o'ynash bo'yicha taqsim qilish, zarurat tug'ilganda har biriga qo'shimcha yo'l-yo'riqlar berish.
10. Oldindan ishlab chiqilgan ssenariy bo'yicha talabalarining tadbirkorlik o'yinlari.
11. O'yin ishtirokchilariga joriy yo'l-yo'riqlar berish.
12. O'yin ishtirokchilarining o'yin davomida o'zi o'ynagan rollariga baho berishi, o'z-o'zini nazorat qilishi.
13. Tadbirkorlik o'yini natijalarini muhokama qilish va talabaning o'quv-o'yin faoliyatiga baho berish.

SHunday qilib, tadbirkorlik o'yinlari materiallarni yangi bilimlarni egallash, o'tilganlarni mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, umumiy malakani shakllantirish kabi bir qator vazifalarni echishda foydalaniladi.

Tadbirkorlik o'yinlarining bir necha modifikatsiyalari mavjud:

Imitatsion o'yinlar. Bunday o'yinlardan maqsad qaysidir tashkilot, muas-sasa va uning qismlari faoliyati andoza qilinadi. Voqealar, kishilarning biror faoliyati (ish bitirish majlislari, rejani muhokama qilish, suhbat-lar o'tkazish), faoliyat holati va shartlari andoza qilib olinishi mumkin.

Ssenariyda bunday o'ynash to'la tuzilmasi yozib chiqilgan va imitatsiya qilinadigan ob'ektlar va jarayonlar belgilanadi.

Operatsion (voqeiy) o'yinlar. Bunday o'yinlarda aniq o'ziga xos voqea-hodisaning bajarilishi mashq qilinadi. Operatsion o'yinlar ish jarayoniga xos modellashtiriladi.

Rol ijro etish o'yinlari. Unda konkret shaxsning xulqi, xatti-harakati, o'z vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi.

Tadbirkorlik teatri. Bunda qandaydir vaziyat va undagi kishining xulqi o'ynaladi. Bu o'yinning asosiy vazifasi turli holatlarda mo'ljalni to'g'ri baholay olishni o'rgatish, o'zining xulqiga to'g'ri baho berish, boshqa kishilarning imkoniyatlarini baholay olish, ular bilan muloqot o'rnatishga o'rgatishdir.

Psixodrama va sotsiodrama. Bu ham o‘ziga xos “teatr”, lekin ijtimoiy psixologik maqsadni ko‘zlaydi: Uning asosiy maqsadi jamoada vaziyatni his qila olish, boshqa kishining holatini o‘zgartirish va unga baho berish, u bilan samarali muloqotga kirisha olishni shakllantirish hisoblanadi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish va tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. O‘yinli texnologiyalar haqida nimalar bilasiz?
2. O‘yinli texnologiyalarning funksiyalarini sanab bering.
3. Pedagogik o‘yinlar qanday klassifikatsiya qilinadi?

5-mavzu: Ta’limning fanga yo‘naltirilgan texnologiyasi

Reja:

1. Bilimni to‘liq o‘zlashtirish texnologiyasi.
2. Tabaqalashgan darajadagi texnologiya.
3. S. D. SHEvchenko bo‘yicha pedagogik jarayon texnologiyasi.
4. Konsentrlangan ta’lim texnologiyasi.

Asosiy tushunchalar: to‘liq o‘zlashtirish metodikasi, ta’lim natijalari, korreksiya, differensiatsiya, qobiliyat, intellekt, qadriyat, o‘zlashtirish-tushunish, aytib berish, ichida so‘zlash, ovoz chiqarib aytish, konsentrizm, fan bo‘limlari.

Adabiyotlar:

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: 2006.
3. Amonashvili SH. A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsessa. – Minsk.: 1990.
4. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O‘quv qo‘llanma. – Namangan: NamMPI,2004.
5. Voinova M.G. Pedagogicheskie tehnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisodmoliya, 2006.
6. Yo‘ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2004. – 102 b.
7. Golish L. V. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.
8. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.
9. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.
10. Faberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO‘MMMI, 1999 y.

1. M. V. Klarin materiallari asosida fanni to‘liq o‘zlashtirish metodikasi yoki texnologiyasi.

Muammo:

1. O‘quvchilarning ta’lim mazmunini egallashlaridagi o‘zlashtirish darajalarining xilma-xilligi ularning qobiliyat va qobiliyatsizligida emas, aksincha, bizning idrok etish va o‘zlashtirishni individual o‘ziga xosliklar bilan bog‘liqlikda ta’lim jarayonini tashkil etishni bilmasligimizda, deb tushuntiradi.
2. An‘naviy o‘quv jarayonida har doim ikki jihat: ta’lim sur‘ati va o‘quv materialini bayon qilish usuli belgilab qo‘yiladi. Biz esa xuddi oldi-mizda o‘nlab idrok etishi, anglash, eslab qolish

qobiliyatlari turlicha bola-lar emas, bita o'quvchi turgandek, tushuntiramiz va shunday talab qilamiz.

3. Faqatgina ta'lim olganlikning natijalari belgilanmasdan qola-di. O'quvchilarning ta'lim mazmunini o'zlashtirganliklari uchun qo'yila-digan ko'klarga ko'tarib maqtalgan «uch», «to'rt», «besh» baho belgilangan bo'yicha tabaqalashgan bo'lishi mumkin emas, bundan tashqari hamma to'liq o'zlashtirgan bo'lishi lozim.

4. O'quvchi qobiliyati uni o'rganish sur'atining o'rtacha emas, mazkur bola uchun qulay, batartib shart-sharoitlarda aniqlanadi.

Xulosa: O'quvchilarning ko'pchiligini o'quv materialini to'liq o'zlashtirishi ta'limni to'g'ri tashkil etilishi, asosiysi, vaqtdan to'ri foydalanishdadir.

Bilimlarni to'liq o'zlashtirish texnologiyasining asosiy tavsifi:

1. O'qituvchining umumiy maqsadi: hamma o'quvchilar biror o'quv materialini egallab olishlari zarur.

2. Kurs, bo'lim yoki kata mavzularni to'liq o'zlashtirish me'zonlarini ishlab chiqish.

3. Butun o'quv mazmuni belgilangan o'qua birliklari asosida rivojlanadi.

4. Har bir o'quv birligi bo'yicha tashxisli testlar va korreksion didaktik material ishlab chiqiladi.

Ta'limdagi qadamlarning ketma-ketligi:

1. O'quvchilarni yo'naltirish:

- Sinf(guruh) uning kata qismining emas, butun o'quvchilarning yaxshi natijalarga erishishlariga yordam beruvchi yangi metod asosida o'qiydi.

- Har bir o'quvchi faqat butun kurs yakunlari bo'yicha so'ngii tekshirish natijalari asosida baho oladi.

- Har bir o'quvchining bahosi boshqa o'quvchilarning natijalari bilan taqqoslangan holda emas, aksincha, oldindan belgilangan mezonlar orqali aniqlanadi.

- Har bir o'quvchi belgilangan mezonga erishsa, «a'lo» baho oladi.

- «A'lo» baholarning soni cheklanmaydi.

- Har bir o'quvchi istalgan zaruriy yordamni oladi, shuning uchun agar u biror usul bilan materialni o'zlashtira olmasa, unga boshqa muqobil imkoniyatlar beriladi.

- Ta'limning butun kursi davomida har bir o'quvchi uning jadal-lashishiga rahbarlik qilish uchun mo'ljallangan seriyali «tashxisli» nazorat ishlari(testlar)ni oladi, bunday nazorat natijalari baholanmaydi. Mazkur nazorat asosida olingan ma'lumot o'quvchining tushunmovchiliklarni yoki xatolarini va ularni to'g'rilashni oson egallashlari uchun imkon beradi.

- Oraliq nazorat ishlarini bajarishda qiyinchilik sezilgan holda, har bir o'quvchiga qiyinchiliklarni, tushunmovchiliklarini engib o'tish va xatolarini tuzatish uchun muqobil o'quv protsedurasi (bajariladi-gan ish tartibi) olish imkoniyati taqdim etiladi.

- Bunday tanlash imkoniyatini kechiktirmasdan foydalanish zarur.

Ko'rinib turibdiki, ishning boshlang'ich bosqichidayoq butun tizimning asosiy jihati – butun o'quv jarayonining rejalashtirilgan yakuniy natijalarga yo'naltirilganligi aniq kuzatiladi.

2. O'quv jarayoni oldindan belgilangan o'kuv birliklari(oddiy holda uning ketma-ketligi o'kituvchilarning o'quv qo'llanmasidagi tanlangan materialini bayon etilishiga bog'liq bo'ladi.) bilan bog'liqlikda qismlarga bo'linadi.

3. YAngi materialni bayon etish va uni o'quvchilarning qayta ishlashi an'naviy kechadi.

4. O'kuvchilar nazorat ishlarini bajarib bo'lganlaridan so'ng ikki guruhga ajratiladi: bilim va ko'nikmalarni to'liq o'zlashtirganlar va to'liq o'zlashtira olmaganlar. YOrdamchi(korreksiyali) o'quv faoliyati tashkil etiladi. Material bayoni qaytadan takrorlanadi, shu bilan birga bayon etish usuli ham o'zgaradi. Kamchilik va qiyinchiliklarni bartaraf etishda ba'zan o'qituvchining o'quvchilar bilan individual ishi qo'llaniladi.

5. YOrdamchi ish nazorat o'tkazish (tashxisli testlar) bilan tugallanadi. Sinf(guruh) hamma yokm deyarli barcha o'quvchilar oldingi o'kuv birligi mazmunini belgilangan darajada o'zlashtirganlaridan so'ng YAngi o'kuv birligini o'rganishga o'tadi.

Bir nechta o'quv birliklarini o'z ichiga qamrab oluvchi ham katta bo'lim, ham butun kursga oid nazorat ishlari natijalari bo'yicha baho an'anaviy tarzda qo'yiladi.

Bajarilishi shart bo'lgan qoidalar:

Ekvivalentli amaliyot qoidasi – ta'lim sharti va ta'lim jarayonida kutilgan harakatlar aniq test yoki nazoratni vaqtda o'tkazilishiga bog'liq bo'ladi.

Anologli amaliyot qoidasi – imkoniyat o'xshash tabiatli hatti-harakatlarda mashq qilinadi, lekin bir xil natija bilan tugamaydi.

Natijalarni to'xtovsiz e'lon qilinishi qoidasi – har bir harakat natijalari o'kuvchilarga to'xtovsiz e'lon qilinadi.

1. Tabaqalashgan darajadagi texnologiya.

Tabaqalashgan ta'lim (differensiya – lotincha so'zdan olingan bo'lib, “farq” degan ma'noni beradi) – o'quvchilarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini xisobga olib tashkil etiladigan o'quv faoliyatini tashkil etish shaklidir

Tabaqalashgan ta'limning turlari:

- **qobiliyati bo'yicha** (oldingi sinfdagi o'zlashtirishini hisobga olib, o'quvchilarni bir nechta guruhlariga ajratiladi);

- **intellekti bo'yicha** (test orqali tekshirish natijalari asosida o'quvchilarni bir nechta guruhga ajratiladi: o'qitish darajasiga va bilimga qo'yiladigan talab hisobga olinib, qobiliyatli, o'rtacha qobiliyatli, past qobiliyatli);

- **qobiliyatining pastligi bo'yicha** (muayyan bir fanlarni o'zlashtira olmasligiga qarab o'quvchilar fanlar past darajada va kam hajmda o'tiladigan sinflarga ajratiladi.).

Dolzarlighi: axborotlar hajmining o'sib borishi.

“Agar oldingidek o'quvchilarning barcha fanlardan ta'lim mazmunini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishish yo'nalishini saqlab qolsak, unda barcha fanlar bo'yicha o'quvchilarga kuch tushadi va ularning bilim o'rganishga qiziqishi pasayadi”.

Hammasini birdek yuqori darajada majburiy o'rganish juda qaltis (ziyon) bo'ladi. Bu muammonini tabaqalashgan darajadagi texnologiyada baza-viy darajani kiritish orqali echiladi.

2. Sergey Danilovich Shevchenko bo'yicha pedadagogik jarayoni texnologiyasi

Pedagogik jarayon texnologiyasi – pedagogning boshqaruv faoliyati va o'quvchilarning mustaqilligi hamda ta'lim jarayonidagi o'zini-o'zi boshqari-shining uyg'unligidir.

Texnologik jarayon – kerakli natijaga erishishga olib keladigan opera-siyalarning yig'indisi.

1. O'zlashtirish uchun bir darsning o'rtasidan uchinchi darsning o'rtasiga-cha (idrok etish, fikrlash, mustahkamlash, malaka xosil qilish, yangi bilim va ko'nikmalarni tajribada qo'llash) bo'lgan o'quv vaqti kerak.

2. YAngi o'quv materialini idrok etish – bu o'quv mavzusini o'zlashtirish-dagi o'qituvchi-o'quvchi faoliyatining birinchi bosqichi. Bunda o'quv materia-lini berish yo'lini tanlash butunlay o'qituvchiga bog'liq bo'ladi.

3. Ikkinchi qadam – dastlabki takrorlash. Dars mavzusini o'quvchilar-ning tushunganini aniqlash. Idrok qilinganlarini korreksiyalash (to'g'ri-lash).

“Hech qachon hech qanday material bir darsning o'zida o'zlashtirilib oli-nishi mumkin emas” o'zlashtirish – bu tushunish.

“Uy vazifasiz to'liq o'zlashtirish bo'lishi mumkin emas”.

Uy vazifasining xususiyati – aytib berish.

YAngi o'quv materialini esda saqlash va tushunib olishning eng samarali metodi – o'ziga-o'zi aytib berish. Bu:

- axborotlarni yodda saqlashning qisqa vaqtdan uzoq vaqtga o'tkazadi;
- o'quv materialini tushunib olishga imkon beradi;
- yangi mazmun fikrda qayta ishlanadi (analiz, taqqoslash, asosiysini ajratish...).

Ovoz chiqarib aytish – o‘zlashtirishning bu elementi keyingi darsning birinchi daqiqalaridan boshlanadi. Ovoz chiqarib aytish “o‘qituvchi-o‘quvchi” juftligida o‘rin almashib turiladi. Aytib berishning oxirida xar bir darsda o‘qituvchi o‘quvchining maxsus “bilimni hisobga olish kartochkasi”ga baho qo‘yadi – davomiyligi 5 minut.

Frontal (ommaviy) takrorlash. Aytib berish jarayonida o‘quvchilar xato-liklarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Bu xatolar ommaviy takrorlash jarayonida tu-zatiladi. Savollarga to‘g‘ri javoblar o‘qituvchi tomonida albatta aytiladi. Davomiyligi 10-12 minut.

3. Konsentrlangan ta‘lim texnologiyasi

(P.Blonskiy, V SHatalov, G.Ibragimov)

Ta‘limda konsentrizm (concentrum – umumiy markazga egalik) – o‘quv materialla-rining dastur va darsliklarda joylashishi, mavzu va savollar-ning takrorlanib kelish xarakteridan kelib chiqib, o‘qitishning har bir yan-gi bosqichlarida ularning yanada teran yoritilishi tamoyili

SHart-sharoiolari: bir kunda 3-6 har xil fanlarni, bir haftada 8-11 fanni o‘qitiladi.

Vazifa: darsda o‘zlashtirgan o‘quv materialini yoddan chiqarmaslikning oldini olish uchun, uni qabul qilgan kuni mustahkamlash ishlarini olib borish kerak.

Hal qilish yo‘llari: o‘qitishni bunday tashkil qilish tizimiga o‘tish, o‘quv jarayonini insonning qabul qilishdagi tabiiy psixologik xususiyatlariga yaqinlashtiradi.

Konsentrlangan ta‘lim – o‘quv jarayonini tashkil etishning alohida texnologiyasi bo‘lib, bunda pedagog va o‘quvchilarning diqqati xar bir fanni teran o‘rganishga darslar va bloklarni biriktirish, o‘quv kuni, xaftasi da-vomida parallel o‘rganadigan fanlarning sonini qisqartirish orqali jalb qilinadi.

Savollar va o‘zini-o‘zi tekshiriga topshiriqlar:

1. Bilimni to‘liq o‘zlashtirish texnologiyasining asosiy ta‘rifini tahlil qiling.
2. Bilimni to‘liq o‘zlashtirish texnologiyasining qanday qoidalarini bilasiz?
3. Tabaqalashgan darajadagi texnologiya e‘tiborini nimaga qaratadi?
4. Sergey Danilovich Shevchenko “pedagogik texnologiya” tushunchasini qanday aniqlaydi?
5. S.D.Shevchenko bo‘yicha ta‘lim jarayoni texnologiyasi nimaga asos-lanadi?
6. O‘qitishda konsentrizm nimani bildiradi?

6-mavzu: Ta‘limning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasi

Reja:

1. Ta‘limning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasi haqida tushuncha.
2. «Hamkorlik pedagogikasi» texnologiyasi hamda uning mazmuni va metodikasining o‘ziga xosligi.
3. SH. A. Amonashvilining shaxsiy- insonparvarlik texnologiyasi.
4. Birgalikdagi samarali faoliyat(V. YA. Lyaudis konsepsiyasi)
5. Pedagogika tarixidan. S. Frene maktabi.

Adabiyotlar:

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: 2006.
3. Amonashvili SH. A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsessa. – Minsk.: 1990.
4. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O‘quv qo‘llanma. – Namangan: NamMPI,2004.
5. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisod-moliya, 2006.

6. Yoʻldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: Oʻqituvchi, 2004. – 102 b.
7. Golish L. V. Zamonaviy taʼlim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.
8. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.
9. Tolipov Oʻ.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.
10. Faberman B.L. Ilgʻor pedagogik texnologiyalar. - T.: OOʻMMMI, 1999 y.

1. Taʼlimning shaxsga yoʻnaltirilgan texnologiyasi haqida tushuncha.

SHaxsga yoʻnaltirilgan texnologiya insonparvar falsafa, psixologiya, pedagogikani umumlashgan holda oʻziga aks ettiradi.

SHaxsga yoʻnaltirilgan texnologiyaning diqqat markazida turli obrazli hayotiy vaziyatlarda ongli tanlashga qobiliyatli, yangi tajribalarni idrok etishga tayyor, oʻz imkoniyatlarni oʻzi amalga oshirishga ishtiyoqmand noyob yaxlit inson turadi. Bunday shaxsning muvafaqqiyati anʼanaviy texnologiya-dagi bilim va ijtimoiy meʼyorlarni tarbiyalanuvchilarga formal uzatishdan farqli ravishda, erkin fikrli shaxsni shakllantirish ekanligini bildiradi.

SHaxsga yoʻnaltirilgan texnologiyalarning oʻziga xosligi shundaki, ular shaxs rivojlanishini qandaydir buyurtma asosida shakllantirishga emas, aksincha uning(shaxsning) tabiiy qobiliyatlari asosida shakllanti-rishga yoʻnaltirilgan.

Taʼlim mazmuni oʻzida bola shaxsi shakllanishi va rivojlanishidan kelib chiquvchi muhitni aks ettiradi. Uning insonparvarlik xususiyati insonga, insonparvar meʼyorlarga va ideallarga eʼtibor qaratilganligidir.

SHaxsga yoʻnaltirilgan texnologiya har bir bolaning individual oʻziga xosligi bilan bogʻliqlikda taʼlim va tarbiyaning metod va vositalarini iz-lab topishga harakat qiladi. SHaxsga yoʻnaltirilgan texnologiya anʼnaviy texnologiyadagi bolaga avtoritar, mustaqilligini eʼtirof etmagan xolda qarashga qarama-qarshi qoʻyiladi. Sevish, gʻamxoʻrlik, hamkorlik asosida shaxs ijodiyligi va oʻzini-oʻzi rivojlantirishi uchun sharoit yaratadi.

SHaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim asosida Karl Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan falsafa, psixologiya va pedagogikadagi insonparvarlikka yoʻnaltirilgan **tamoyillar** yotadi:

- individ doimiy oʻzgaruvchan dunyoning markazida joylashadi: har bir kishi uchun borliqni idrok etishda shaxsiy dunyosi muhim ahamiyatga ega. Bu ichki dunyoni hech kim tashqaridan oxirigacha bila olishi mumkin emas;

- inson borliqni shaxsiy munosabati va tushunishi asosida idrok eta-di;

- individ oʻzini-oʻzi bilish va oʻzini-oʻzi realizatsiyalashga harakat qi-ladi, u oʻzini-oʻzi takomillashtirishda ichki imkoniyatlarga ega boʻladi;

- muloqot natijasida erishish mumkin boʻlgan rivojlanish uchun zarur oʻzaro bir-birini tushunish;

- oʻzini-oʻzi takomillashtirish, rivojlanish muhit, boshqa odamlar bi-lan oʻzaro harakat asosida kelib chiqadi. Toʻgʻridan-toʻgʻri yoki yashirin aloqa-lar natijasida erishiladigan tashqi baho inson, uning oʻzini-oʻzi bilishi uchun juda muhim.

SHaxsga yoʻnaltirilgan taʼlimning **bosh gʻoyalari** (I.S. YAkimanskiy boʻyicha) quyidagilarda aks etadi:

- shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlimning maqsadi: oʻquvchilarning bilish faolligini oshirish, bolaning individualligini yuqori darajada kashf eta olish;

- bilim boʻyicha berilgan meʼyor sifatida taʼlim, jarayon sifatida oʻqitishga alohida urgʻu beradi;

- oʻqitish deganda, taʼlim jarayonida berilganlarini ijtimoiy-ahami-yatli namunalarga aylantirishga yoʻnaltirilgan har bir bolaning alohida individul faoliyati tushuniladi;

- oʻquvchi subʼektivligiga taʼlimiy taʼsir natijasida kelib chiquvchi sifatida emas, boshidanoq unga oʻziga xosligi sifatida qaraydi;

- ta'lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirishda har bir o'quvchining shaxsiy tajribasi va uning ijtimoiylashuvini aniqlash bo'yicha ish o'tkazilishi kerak;
- bilimlarni egallash maqsadi o'quvchi rivojlanishi uning imkoniyatlari va individual-ahamiyatli qadriyatlarini hisobga olish vositasiga aylanadi.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'limning an'anaviy didaktik tizimdan asosiy farqli jihatlari:

An'anaviy ta'lim	SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim
“Ta'lim – bu tashqi ta'sirlar nati-jasida individning umumlashtirilgan, ijtimoiylashgan tajribalarni o'zlashtirish jarayoni.... Jamiyatga zarur bo'lgan narsalar, shaxsga ham zarur” (Kliberg L “Problemy teorii obucheniya”, M.: Pedagogika, 1984 – s.25)	“SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchi shaxsining, uning shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib bilish va o'qish faoliyatini sub'ekti sifatida, rivojlanishini va o'zini-o'zi rivojlanishini ta'minlaydigan ta'lim”(“Новые сениости образованиа”, M.: RFFI-IPI, 1995 s.55)
O'quvchi haqidagi obrazli tushuncha: “inson-loy” – dastlabki mohiyatga ega emas(“toza qog'oz”) hamda pedagogik faoliyatning materiali hisoblanadi.	Ta'lim oluvchi haqidagi obrazli tushuncha: “inson-oila”–rivojlanishning genetik dasturi mavjud. Ta'lim potensial xususiyatlarning rivojlanishi sifatida
Ta'lim jarayonida markaziy figura – o'qituvchi.	Ta'lim jarayoni markazida – o'quvchi.
Ta'lim: o'qitish va o'qish: o'kituvchi bilim, ko'nikma va malakalarni beradi, o'quvchi esa idrok etadi va o'zlashtiradi	Ta'lim: o'rganilayotgan fanlarni egallash jarayonida o'quvchining individualligi amalga oshishi va uning shaxsiy sifatlarining rivojlanishiga yo'naltirilgan o'kituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati. SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim yuqori darajada “o'rganish” va “o'zlashtirish” tushunchasiga qaraganda, “egallash” tushunchasida aks etadi.
Ta'lim jarayonining asosiy faoliyati – o'qitish.	Ta'lim jarayoning asosiy faoliyati – bilish faoliyati
Ta'lim jarayonida bolalarning sub'ektkli farqlari hisobga olinmaydi, hamma bolalar uchun yagona andoza –“standart” beriladi.	Ta'lim jarayonida bolalarning sub'ektiv tajribasi maksimal darajada ochib beriladi, o'quvchilarning individualligiga alohida e'tibor qaratiladi.
SHaxsiydan ijtimoiy qadriyatlar yuqori qo'yiladi.	Bola shaxsining o'zi yuqori qadriyat sanaladi.
Darsliklar bilan birga o'kituvchi bilimlarning asosiy manbai sifatida aks etadi. Bundan tashqari o'qituvchi bilish sub'ektining nazorat qiluvchisidir.	O'qituvchining roli – o'quvchi mustaqil ta'lim oladigan, shaxsiy imkoniyatlariga tayanadigan va ta'lim texnologiyalari bilan bog'liqliqda foydalanuvchi ta'limiy muhitni tashkil etish.

2. “Hamkorlik pedagogikasi” texnologiyasi, uning mazmuni va metodikasining o'ziga xosligi.

Hamkorlik pedagogikasini novator-pedagoglar (SH.A.Amonashvili, S.N.Lisenko, I.P.Volkov, V.F.SHatalov, E.N.Ilin va boshqalar) pedagogik jarayon ishtirokchilari (o'qituvchi va o'quvchilar) o'rtasida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o'zaro munosabatlari tashkil etishini ta'kidlab o'tadilar. Hamkorlik pedagogikasi uchun konseptual ahamiyatga ega qoidalar A.Avloniy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, J.J.Russo, YA.Korchak, K.Rodgers va boshqalarning pedagogik qarashlarida o'z ifodasini topgan. Pedagogik hamkorlik g'oyalari bugungi kunda pedagogik texnologiyalar mazmuniga singdirilgan va “XXI asr ta'limi Konsepsiyasi” asosini tashkil etadi.

“Hamkorlik pedagogikasi”ning tasnifiy tavsifi:

Qo'llanish darajasiga ko'ra: umumpedagogik.

Falsafiy asoslariga ko'ra: insoparvar.

Asosiy rivojlanish omillariga ko'ra: majmuaviy, biogen, sotsiogen va psixogen.

SHaxsga yo'naltirilganligiga ko'ra: hartomonlama barkamol.

Mazmunli xarakteriga ko'ra: ta'limiy + tarbiyaviy, dunyoviy, insonparvar, umumta'limiy.

Boshqarish turiga ko'ra: kichik guruhlar tizimi.

Tashkiliy shakllariga ko'ra: akademik + klubli, individual + guruhli, tabaqalashgan.

Bolaga yondashuvga ko'ra: shaxsiy-insonparvar, sub'ekt-sub'ektli(hamkorlik).

Metodlarni qo'llanilishiga ko'ra: muammoli-izlanuvchan, ijodiy, dialogli, o'yinli.

Ta'lim oluvchilar toifasiga ko'ra: ommaviy.

Maqsadga yo'nalganligi:

- Talabchanlik pedagogikadan munosabatlar pedagogikasiga o'tish.
- Bolaga shaxsiy-insonparvar yondashuv.
- Ta'lim va tarbiya birligi.

Hamkorlik konsepsiyasi.

“O'qituvchi-o'quvchi” munosabatlaridagi hamkorlik, bu faoliyatning borishi va natijalarining birgalikdagi tahlili, ma'naviy dunyoda bir-biriga samimiylik, o'zaro bir-birini mustahkam tushunish, kattalar va bolalarning hamkorlikdagi rivojlantiruvchi faoliyati g'oyasi. An'naviy ta'lim pedagogik jarayonda o'kituvchining sub'ekt sifatida, o'quvchini esa ob'ekt sifatida ishtirokiga asoslangan. Bu qoida o'quvchi o'z o'quv faoliyatining subekti haqidagi tasavvur bilan almashinadi. “O'quvchi-o'quvchi” munosabatlari hamkorlikning turli shakllari(hamkorlik, birga qatnashish, birga qayg'urish, birga ijod qilish, birgalikda boshqarish)da qabul qilingan umumiy jamoa hayotiy faoliyatida amalga oshadi.

Hamkorlik pedagogikasining to'rtta asosiy yo'nalishi mavjud:

- shaxsiy-insonparvar yondashuv;
- didaktik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua;
- tarbiya konsepsiyasi;
- atrof-muhitni pedagogizatsiyalash.

1. SHaxsiy-insonparvar yondashuv:

• shaxsga yangicha qarash ta'lim berishning maqsadi sifatida, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonining shaxsga yo'naltirilganligi: shaxs sub'ektdir, har bir bolaning qobiliyati bor.....

- Pedagogik muloqotni insonparvarlashtirish va demokratiyalash:

- bolalarga muhabbat, ularning taqdiriga qiziqish;
- boladagi umidli mshonch;
- hamkorlik, muloqot mahorati;
- to'g'ridan-to'g'ri majbur qilishni bekor qilish;
- ijobiy rag'batlantirishning muhimligi;
- bolalardagi kamchiliklarga sabrli bo'lish;
- o'qituvchi va o'quvchi huquqlarini tenglashtirish;
- bolaning erkin tanlash huquqi;
- xato qilish huquqi;

- shaxsiy qarashlarga bo'lgan huquq;

- bola huquqlari haqidagi konvensiyaga aml qilish;

- o'kituvchi-o'quvchi munosabatlari usuli: taqiqlash emas, yo'naltirish; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishonitirish; buyruq berish emas, tashkillashtirish; chegaralamaslik, erkin tanlashni yo'lga qo'yish.

• zamonaviy sharoitda natijalarga olib kelmaydigan tug'ridan-to'g'ri majburlashdan metod sifatida voz kechish:

- majburlovsiz, ishonchga asoslangan talabchanlik;

- tug'ma qiziquvchanlikni hisobga olib o'qitish;

- muvafaqqiyatsizlikka sabab bo'ladigan majburiy istakni almash-tirish;

- bolalarning mustaqilligi va mustaqil faoliyatini oʻrnatish;
- jamoa orqali bevosita talablarning qoʻllanishi.
- Individual yondashuvning yangi talqini:
 - oʻrta oʻqiydigan oʻquvchilarga yoʻnaltirishni bekor qilish;
 - shaxsning eng yaxshi sifatlarini izlash;
 - shaxsni psixologik-pedagogik tashxis etish (qiziqimlari, qobiliyati, yoʻnalganlik, Men-konsepsiyasi, xarakteri, fikrlash jarayonlarining oʻziga xosligi)ning qoʻllanilishi;
 - oʻquv-tarbiya jarayonida shaxsning oʻziga xosliklarini hisobga olish;
 - shaxs rivojini bashorat qilish(proгноzlash);
 - rivojlanishni, uni korreksiyalashning individual dasturlarini lo-yihalash.

2. Didaktik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua:

- taʼlim mazmuni shaxs rivojlanishining mazmuni sifatida qaraladi;
- bilim, koʻnikma va malakalarni hosil qilish va umumlashgan fikrlashga oʻrgatish;
- maktab fanlarini integratsiyalash, umumlashtirishga oʻtilishi;
- taʼlimning variativligi va tabaqalashganligi;
- oʻrgatishning ijobiy ragʻbatlaridan foydalaniladi.

3. Tarbiya konsepsiyasi:

- Bilimlar maktabini Tarbiya maktabiga almashtirish;
- barcha tarbiyaviy tizimlar markazida oʻquvchi shaxsini qoʻyish;
- tarbiyaga insonparvar yondashuv, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish;
- bolaning ijodiy qobiliyatlarini, uning individualligini rivojlantirish;
- milliy va madaniy anʼanalarni tiklash;
- individual va jamoaviy tarbiyani hisobga olish.

4. Atrof-muhitni pedagogizatsiyalash.

Oila, maktab va ijtimoiy borliq oʻsib kelayotgan avlodni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institutlar sifatida aks etadi. Natijalar barcha uchta tarbiya manbalarining birgalikdagi harakatida aniqlanadi. Bundan bolalarni himoya qiluvchi ijtimoiy va davlat institutlariga taʼsir etuvchi ota-onalar bilan hamkorlik, omilkor boshqarish gʻoyasi kelib chiqadi.

3. SH.A.Amonashvilining bolaga shaxsiy-insporvarlik yondashuv texnologiyasi.

SHalva Aleksandrovich Amonashvili taniqli pedagog olim va amaliyotchidir. U oʻzining eksperimental maktabida hamkorlik pedagogikasini, shaxsiy yondashuvni, til va matematika oʻqitishning ajoyib metodikasini ishlab chiqdi va hayotga tatbiq etdi.

SH.A. Amonashvilining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- *bolaning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda olijanob insonning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tugʻdirmoq;*
- *bolaning qalbi va yuragini ulugʻlamoq;*
- *boladagi bilishga boʻlgan kuchlarni rivojlantirish va shakllantirish;*
- *keng va chuqur bilim hamda malaka olish uchun sharoit tugʻdirmoq;*
- *ideal tarbiya – bu oʻz-oʻzini tarbiyalamoq.*

SH.A. Amonashvili oʻzining texnologiyasini amalga oshirish uchun quyidagi metodika va metodik usullardan foydalandi:

- *insonparvarlik;*
- *shaxsiy yondashuv;*
- *muloqot mahorati;*
- *oila pedagogikasining qoʻshimcha imkoniyati;*
- *oʻquv faoliyati.*

SH.A.Amonashvili texnologiyasida bola faoliyatini baholash alohida ahamiyatga ega. Baholardan foydalanish oʻta cheklangan. Miqdoriy baholashdan koʻra sifatli baholashga urgʻu beriladi, yaʼni tavsif, natijalar paketi, oʻz-oʻzini baholash.

4. Birgalikdagi samarali faoliyat (V.YA.Lyaudis konsepsiyasi)

O'qituvchining talabalar bilan hamda talabalarning talabalar bilan birgalikdagi samarali faoliyati konsepsiyasini professor V.YA. Lyaudis ishlab chiqqan.

Bu o'quv vaziyati bir-biri bilan bog'liq **to'rt qismdan** iborat:

- o'quv predmetining mazmuni;
- sharoit;
- o'zaro xarakatdagi o'quv tizimi;
- barcha qismlarning o'zaro aloqa dinamikasi.

Birgalikdagi samarali faoliyat vaziyatini tashkil etishga qo'yiladigan **talablar**:

O'qishning boshidan qatnashchilarni ijodiy samarali faoliyatga qo'shish;

- Oraliq vazifalar tizimini o'quvchilar va o'qituvchilarning birgalikda rejalashtirishi;
- O'quv faoliyatida hamkorlik, mazkur faoliyatga o'zining xissasini qo'shishini aniqlashga yo'naltirish;

- O'qitishning borishi qonuniyatlari: faoliyatga kirish, xarakat, imitatsion xarakatlar, xarakatni qo'llash, o'zi tartibga keladigan va o'zi xarakatlanadigan xarakatlar.

BSF konsepsiyasi tabiiy xolda "hamkorlik pedagogikasi" ichiga kiradi va qo'yidagi **g'oyalarga** asoslanadi:

- qiyin maqsad g'oyasi;
- tayanch g'oyasi (asosiy tushunchalar, signallar);
- erkin tanlash g'oyasi (ko'p masalalarning ichidan);
- katta bloklar g'oyasi;
- dialogli fikrlash g'oyasi.

5. S. Frene maktabidagi o'qitish texnologiyasi.

XX asrning 20-30 yillarida fransuz maktablarini modernizatsiyalash birinchi navbatda ushbu olimning nomi bilan bog'liq. Uning pedagogik taj-riba-sinov ishlari butun dunyoga keng yoyildi. U shaxs rivojlanishi uchun mustaqil muhim bosqich sifatida bolalikning ahamiyatini tushunmaslik bor, shuning uchun maktabda bolani haqiqiy hayotga tayyorlashga o'rgatish kerak, deb hisobladi. Frenening maktabi – bu mehnat maktabining modeli. Bunday maktabning asosiy texnik vositasi – bu erkin matnlar, tarqatma materiallar deb nomlanadigan bosmaxona, ba'zi texnik vositalar hamda maktabning o'zini-o'zi boshqarishi.

Maktab pedagogik ishlarini tashkil etilishining butun markazida – bosmaxona. Lekin odatdagi maktab bosmaxonasidan farqli ravishda bu o'zida muhim didaktik va tarbiyaviy vazifalarni jamlaydi.

O'qitish texnologiyasi:

1. Frene maktabida natijasida o'qituvchi va o'quvchi haqiqiy yaqin ki-shilarga aylanadigan insoniy munosabatlarga oid o'quv ishiga o'quvchilar-ning qiziqishlarni rag'batlovchi ish metodlari uyg'unlashadi.

2. O'qituvchi turli yosh guruhidagi o'quvchilar(7-14 yosh) bilan ishlaydi. Mashg'ulot matnni muhokama qilish bilan boshlanadi, bu paytda sinf guruhlarga bo'linmaydi, chunki muhokama uchun katta va kichik yoshdagi bolalar kerak.

3. Bolalarning qiziqishlari, masalalar aniqlanadi.

4. Har bir kishining imkoniyatiga qarab vazifa bo'linadi.

5. Kattalar guruhlarga bo'linishadi va birdaniga mustaqil ishlashga kirishishadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan dastlab jamoa bo'lib ishlaydi, so'ng har biri alohida topshiriq oladi.

Masalan, katta yoshdagi o'quvchilar. Bir guruhi devoriy gazeta chiqarish ustida ishlaydi: bittasi odatdagi shriftda, boshqasi kichkina bolalar uchun katta shriftda matn teradi; ikkitasi turli belgilangan mavzular («Idishlarning tutashuvi», «Suv quvuri») bo'yicha matnni tasvirlovchi gravyuralar tayyorlaydi. Yana ikkitasi kutubxonada ishlaydi, kartoteka to'ldiradi. Ba'zi bir bolalar dokladlar tayyorlashadi. Ikkita bola «Suv va uning xususiyatla-ri» mavzusi bo'yicha materiallar to'plash uchun qishloqqa ketishadi, ikkitasi maktab metereologiya maydonchasida ishlaydi.

SHundan so'ng o'qituvchi kichik bolalarga alohida topshiriq berganidek, o'rta va kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashga kirishadi.

Nazariy munozara tajriba-sinov ishlari bilan almashinadi. O'quvchi-lar mustaqil ravishda axboriy xaritalar tuzishadi va nazoratli xaritalar yordamida ishning sifatini tekshirishadi. SHunday qilib, butun jamoa faoliyati doirasida har bir o'quvchining ishini tashkil etish S. Frene maktabidagi yangi ta'lim texnologiyasining bosh o'ziga xosliklaridan biri sifatida aks etadi.

Frene maktabidagi o'qituvchilar bilimlarni o'zlashtirishning sama-rali yo'li sifatida kuzatish va demonstratsiya emas, aksincha tajriba orqali bilish deb hisoblashadi. Frene fikriy qobiliyat faoliyatda shakllanadi va ko'rinadi, deb hisoblaydi. CHunki kuchli odam unda o'zidagi egallangan tajribadan foydalanadi, shunda uning ravnaqi tezlashadi. «Agar biz asalari singari u asal ishlab chiqishda gul nektarini yig'ish uchun har bir ochiq kundan foydalangani singari harakat qilamiz. SHuning uchun biz turli faoliyatga boy insonni so'ng sinfdagi ularni asal bilimlarga aylantirish uchun atrof-olam haqida ma'lumot to'plashga jo'natamiz. (S. Frene. Pedagogik asarlar to'plami. M.: Progress, 1990.)».

7-mavzu: O'quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosidagi texnologiyalar

Reja:

1. O'qitishni tabaqalashtirish. Aqliy rivojlanish darajasi, sog'lig'i darajasi bo'yicha.
2. O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi
3. Programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasi

Asosiy tushunchalar: *o'qitishni tabaqalashtirish, jadallashtirish, individuallashtirish, programmalashtirilgan o'qitish, o'qitishni samaradorligi-ni oshirish.*

Adabiyotlar:

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: 2006.
3. Amonashvili SH. A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsessa. – Minsk.: 1990.
4. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – Namangan: NamMPI, 2004.
5. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisodmoliya, 2006.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 102 b.
7. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.
8. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.
9. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.
10. Faberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO'MMMI, 1999 y.

1.O'qitishni tabaqalashtirish texnologiyalari

G.K. Selevko tadqiqotlarida o'qitishni tabaqalashtirish o'quv jarayonini tashkil etish shakli sifatida izohlanadi, o'zida bilim darajasi bir xil bo'lgan, u yoki bu jihatdan o'quv jarayonida umumiy sifatlarga ega bo'lgan o'quvchilar guruhi bilan o'qituvchi ishlaydi. O'qitishni tabaqalashtirish o'quv jarayonidagi ta'lim oluvchilarning turli guruhlarini ixtisoslashtirilishini ta'minlaydigan umumiy didaktikaning bir qismi sifatida ham belgilanadi.

O'qitish tizimining qurama texnologiyasi (N.P. Guzik).

“O'qitish tizimining qurama texnologiyasi” saviyasiga va darslarda mavzu bo'yicha davriylikni rivojlantirishga ko'ra sinf ichidagi o'qitishning tabaqalashtirilishi deb qaraladi. Darslar har bir mavzu bo'yicha ketma-ket joylashgan besh tipdan iborat bo'ladi:

- 1) mavzuni umumiy tahlil qiluvchi darslar (ular leksiyalar deb yuritiladi);
- 2) ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlari jarayonida o'quv materia-lining chuqurlashtirib ishlab chiqishini ko'zda tutgan, tuzilgan seminar mashg'ulotlari (bunday darslar uchtadan beshtagacha bo'lishi mumkin);
- 3) bilimlarni umumlashtirish va tartibga tushirish (guruhlash) dars-lari (mavzular bo'yicha sinovlar);
- 4) fanlararo materiallarni umumlashtirish (mavzular bo'yicha vazifa-larni himoya qilish);
- 5) dars-praktikumlar.

Keyingi bosqichda o'qituvchi o'quvchilarning saviyalariga ko'ra tabaqalashtirish ishlarini tashkil etadi. Bu ish yangi materialni berish, uni mustahkamlash va takrorlash, bilim, malaka va ko'nikmalarni nazorat qilishda amalga oshiriladi.

Bu texnologiyada uchta tabaqalashtirishning turli darajadagi qiyinchilikda: “A”, “V”, “S” dasturlari ajralib turadi.

Dasturlar quyidagi vazifalarni hal qiladi: muayyan darajadagi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashni ta'minlaydi; ta'lim oluvchilarning ma'lum darajadagi mustaqilligini ta'minlaydi; “S” dasturi tayanch standart sifatida qayd qilinadi. Uni bajarish orqali ta'lim oluvchilar fan bo'yicha o'quv materialini, uni qayta tiklay olish darajasida o'zlashtiradi-lar. “S” dasturi vazifalarini nisbatan qiyin dasturga o'tmasdan oldin har bir o'quvchi bajara olishi lozim. “V” dasturi mavzuni qo'llash bilan bog'liq masalalarni echish uchun zarur bo'lgan o'quv va aqliy faoliyatining umumiy va o'ziga xos usullari bilan birga egallashni ta'minlaydi. Ushbu dasturga ki-ritiladigan qo'shimcha ma'lumotlar birinchi bosqich materiallarini kengaytiradi, asosiy bilimlarni isbotlaydi, namoyish etadi va oydinlashtiradi, tushunchalarning amal qilish va qo'llanishini ko'rsatib turadi. “A” dasturi o'quvchilarning bilimlarini to'la anglash, ijodiy qo'llash darajasiga ko'taradi. Bu dasturda ijodiy qo'llash istiqbolli tobora takomillashib boruvchi ma'lumotlar, chuqurlashtiriladigan materiallar, uning mantiqiy asoslanganligi joylashtirilgan.

Materiallarni takrorlashda turli darajadagi vazifalarni erkin tiklash metodikasi qo'llanadi.

Tabaqalashtirilgan vazifalarni nazorat qilishda individuallikka o'tiladi va u chuqurlashtiriladi.

2.O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi

Inge Unt, A.S. Granitskaya, V.D. SHadrikov tadqiqotlarida individual o'qitish o'quv jarayonini tashkil etish shakli, modeli sifatida belgilanadi. Unda: pedagog faqat birgina talaba bilan o'zaro munosabatda bo'ladi; bir talaba faqat o'qitish vositalari (kitoblar, komyuter va b.) bilan o'zaro aloqada bo'ladi.

Individual o'qitishda faoliyatning mazmuni, metodlari va sur'ati talabanning xususiyatlariga moslashtiriladi.

SHaxsiy yondoshish deganda: u pedagogikaning tamoyili bo'lib, unga ko'ra pedagog o'quv – tarbiya ishlar jarayonida talabalarning shaxsiy xislatlarini hisobga olgan holda ayrim talabalar bilan individual model bo'yicha o'zaro munosabatda bo'lish, individual xususiyatlariga asoslanish; individual xususiyatlarini hisobga olish; o'quv jarayonida talabalarning individual xususiyatini hisobga olish; barcha talabalarning rivojlanishigina emas, balki har bir talabaga alohida rivojlanish uchun psixologik–pedagogik tadbirlar yaratish tushuniladi.

O'qitishni individuallashtirish: o'quv jarayonini tashkil etish bo'lib, unda o'qitish usullari, sur'atini tanlash talabanning individual xususiyatlari bilan bog'lanadi; individual yondashuvni ta'minlovchi turli o'quv-metodik, psixologik-pedagogik va tashkiliy-ma'muriy tadbirlardir.

SHunday qilib, didaktika bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko'ra o'qitishni individuallashtirish o'quv jarayonining shunday tashkil qilinishiki, unda individual yondashuv va individual shakl ustuvor hisoblanadi.

O'qitishni individuallashtirish quyidagi mualliflik texnologiyalarida asoslab berildi:

1. *Inge Untning o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi;*
2. *A.S. Gransikayaning moslashuvchan o'qitish texnologiyasi;*
3. *V.D. SHadrikovning individuallikka qaratilgan reja asosida o'qitish texnologiyasi.*

Inge Untning o'qitishni individuallashtirish texnologiyasidagi asosiy konsepsiya hozirgi sharoitda o'qitishni individuallashtirishning muhim shakli o'quvchilarning maktabdagi va uydagi mustaqil ishlari deb qoidalashtirilgan. Inge Unt uning mazmuni va metodikasi deb mustaqil ishlar uchun individual o'quv vazifalari, joriy o'quv adabiyotiga moslashtirilgan, individuallashtirilgan mustaqil ishlar qo'llanmasi asosida nashr etilgan ish daftarlarini tushunadi.

A.S. Granitskaya o'zining moslashuvchan o'qitish tizimini sinf-dars tizimida tashkil etish va unda o'qituvchi 60-80% vaqtini o'quvchilar bilan individual ishlashga ajratish mumkinligini qayd qiladi. A.S. Granitskaya metodikasining o'ziga xosligi uning darsni muayyan g'ayrioddiy qurilma asosida tashkil etishidir: birinchi qism – barchani o'qitish; ikkinchi qism – ikki parallel jarayon: o'quvchilarning mustaqil ishlari va o'qituvchining ayrim o'quvchilar bilan individual ishlashi, ya'ni umumlashtirilgan sxemalardan foydalanish, almashinib turuvchi juft o'qituvchi bo'lib ishlash, moslashuvchan ko'p qirrali vazifalar va b.

V.D. SHadrikov gipotezasiga ko'ra agar bolaga murakkablashib boruvchi vazifalarning tafsiloti berilsa, unga o'rganish jarayonini motivatsiyalash taklif etilsa, lekin bolaga shu bugun uning uchun mumkin va qulay ishlash imkoniyati qoldirilsa, o'quvchilar qobiliyati samarali rivojlanadi deb hisoblanadi. V.D. SHadrikov metodikasi asosini har bir o'quvchining qobiliyatiga qarab o'qitishga imkon beradigan olti darajadagi o'quv rejasi, dastur va metodik qo'llanma tashkil etadi. Har bir fanning murakkablik darajasiga ko'ra kuchi etgan variantni tanlab olib, o'quvchilar sinfda tez-tez almashib turadi va fanning hajmi va mazmunini qo'ldan chiqarmay birgalikda o'quv dasturini o'zlashtirishga harakat qiladilar. Murakkablik darajasini tanlash tezlikda amalga oshiriladi, "ba'zan" uni amalga oshirib bo'lmaydi, chunki u sinfdagi o'quvchilarning tenglashish, o'quvchilarning qobiliyati holatiga bog'liq bo'ladi.

Murakkablikning olti darajasi amalda barcha bolalarga e'tibor berishga, barchaning kuchi etadigan, o'quvchining qobiliyatiga, uning rivojlanishiga moslangan, o'quv jarayonini tashkil etishga imkon beradi.

Bu o'qitishni individuallashtirish mualliflik texnologiyasi negizida umumiy tamoyillar mavjud: individuallashtirish o'qitish jarayoni strate-giyasidir; individuallashtirish–individuallikni shakllantirishning zarur-riy omili; barcha o'rganiladigan fanlarda individuallashtirilgan o'qitish-dan foydalanishning mumkinligi; individual ishlarni o'quv faoliyatining boshqa shakllari bilan integratsiyalash; individual sur'atda, uslubda o'r-ganish.

- Individuallashtirish texnologiyasining umumiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: o'zlashtira olmaslikka olib keluvchi omillarni qayd qilish;
- fikrlash jarayonida bilim, malaka, ko'nikmalarni egallash individual kamchiliklarni tuzata olish usullari;
- oila tarbiyasidagi motivatsiyaning bo'linmasligi, irodaning sustligi kamchiliklarini qayd qilish va eng olish;
- qobiliyatli va iste'dodli o'quvchilarga nisbatan o'quv jarayonini optimallashtirish (ijodiy faoliyat, sinf va sinfdan tashqari ishlarni hisobga olish);
- o'qitish jarayonini tanlash erkinligini berish;
- umumiy o'quv malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quvchilarning o'z-o'ziga mos baho bera olishini shakllantirish;
- o'qitishning texnik vositalaridan, shuningdek, EHMdan foydalanish.

3. Programmashtirilgan o'qitish texnologiyasi

Programmashtirilgan o'qitish XX asrning 50-yil boshlarida paydo bo'ldi. U amerikalik psixolog B. Skinner nomi bilan bog'liq. U materiallarning o'zlashtirilishini boshqarishning samaradorligini oshirishda axborotlarni qismma-qism uzatishning muntazam programmasi asosiga qurish va uni nazorat qilishni tavsiya etdi. N. Krauder tarmoqlangan programmani ishlab

chiqdi, unda nazorat natijalariga ko'ra ta'lim oluvchilarga mustaqil ishlar uchun turli xildagi materiallar tavsiya etiladi. G.K. Selevko programmalashtirilgan o'qitishga quyidagi ta'rifni beradi, ya'ni programmalashtirilgan o'qitish deganda o'qitish uskunolari (EHM, programmalashtirilgan darslik, kinotrenajer va b.) yordamida programmalashtirilgan o'quv materialining o'zlashtirilishini boshqarishni tushunadi. Programmalashtirilgan o'quv materiali muayyan mantiqiy izchillikda beriladigan nisbatan katta bo'lmagan o'quv axborotlari ("kadrlar", "fayllar", "odimlar") seriyasidan iborat bo'ladi.

V.P. Bespalko bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish namunasidagi pedagogik texnologiya tasnifini tavsiya etdi. O'qituvchi va ta'lim oluvchi (boshqariluvchi) munosabatlarini quyidagicha belgilaydi:

berk- (o'quvchilarning nazorat qilinmaydigan va tuzatilmaydigan faoliyati);

davriy (nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zaro nazorat);

tarqoq – (frontal) yoki yo'nalganlik (individuallik);

qo'l (og'zaki) yoki avtomatlar (o'quv vositalari) orqali.

Programmalashtirilgan o'qitishning beshta asosiy tamoyili farqlanadi:

1. Boshqarish qurilmalarining muayyan bosqichliligi (ierarxiya) tamoyili. Bu programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasining ierarxiya tuzilmasida avvalambor pedagog turadi, fanda dastlabki umumiy mo'ljal yaratish; o'qitishning murakkab nostandart vaziyatlarida individual yordam va korreksiya o'rin oladi.

2. Qayta aloqa tamoyili. U o'quv faoliyatining har bir tadbiri bo'yicha o'quv jarayonini boshqarishning davriy tashkil etish tizimini talab qiladi. Bunda avvalo to'g'ri aloqa o'rnatiladi – zaruriy harakat obrazi to'g'risidagi axborot boshqaruvchi ob'ektdan boshqariluvchiga uzatiladi. Qayta aloqa, V.P. Bespalko ta'kidlashicha, pedagog uchungina emas, balki ta'lim oluvchiga ham zarur; birinchisiga korreksiya uchun, ikkinchisiga esa o'quv materialini tushunish uchun.

Ichki va tashqi qayta aloqa ham mavjud. Ichki qayta aloqa ta'lim oluvchilarning o'z natijalarini va o'zining aqliy faoliyati xarakterini mustaqil korreksiya qilish uchun xizmat qiladi.

Tashqi qayta aloqa ta'lim oluvchiga bevosita o'quv jarayonini boshqaruvchi qurilmalar vositasida yoki pedagog tomonidan ta'sir etishda amalga oshiriladi.

3. O'quv materialini yoritish va uzatishda amalga oshiriladigan odimlovchi texnologik jarayon tamoyili. Odimlovchi o'quv tadbiri – bu texnologik usul bo'lib, unda o'quv materiali programmada axborot bo'laklari va o'quv vazifalari (bilim va malakalarni samarali o'zlashtirishni ta'minlashga xizmat qiladigan va ta'lim oluvchining bilimlarni o'zlashtirishning muayyan nazariyasini aks ettirgan)ning kengligi bo'yicha alohida, mustaqil, lekin o'zaro bog'langan va optimal bo'lgan qismlardan iboratdir.

To'g'ridan-to'g'ri va qayta aloqa uchun zarur bo'lgan axborotlar to'plami bilish harakatlarini va qoidalarining ta'limiy programma odimini hosil qiladi. Bu odim tarkibiga uch o'zaro aloqador kadr (zveno) qo'shiladi: axborot, qayta aloqa tadbiri va nazorat. Odimlovchi o'quv tadbirlari izchilligi programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasi asosini tashkil etuvchi ta'limiy programmani hosil qiladi.

4. O'qitishda individual namuna va boshqarish tamoyili davom ettiriladi. Bu tamoyil ta'lim oluvchining har biriga shunday axborot jarayonini yo'naltiradi va tavsiya etadiki, u ta'lim oluvchiga mashq jarayonida, tezlikda oldinga siljishga imkoniyat beradi, chunki uning bilish kuchi unga muvofiq ravishda boshqaruvchi tomonidan uzatilgan axborotga, moslashishga qulay bo'ladi.

5. Programmalashtirilgan o'quv materialini uzatish uchun maxsus texnik vositalardan foydalanish tamoyili.

Programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasini ilmiy asoslash bir qa-tor ta'limiy programmalarini farqlash imkoniyatini beradi: ravon prog-rammalar; tarmoqlanuvchi programmalar; soddalashtirilgan programmalar; aralash programmalar; algoritim; blokli o'qitish; modulli o'qitish; bilim-larni to'la o'zlashtirish;

Ravon programmalar – bu nazorat topshiriqlari va o'quv axborotlarining almashinib turuvchi u qadar katta bo'lmagan bloklari ketma-ketligidir. Ravon programmada ta'lim oluvchi

to'g'ri javob berishi shart, ba'zan ehtimol deb topilgan javoblardan birini shunchaki tanlaydi. To'g'ri topilgan javobda u yangi o'quv axborotiga ega bo'ladi, agar javob to'g'ri chiqmasa, axborotni qaytadan o'rganishga tavsiya etiladi.

Tarmoqlanuvchi programma. Ta'lim oluvchi noto'g'ri javob berganda, unga qo'shimcha o'quv axboroti beriladi va u ta'lim oluvchiga nazorat topshiriqlarini bajarish, to'g'ri javob qaytarish va o'quv axborotlarining yangi bo'laklarini olish imkoniyatini beradi.

Soddalashtirilgan programma. U ta'lim oluvchiga yangi o'quv materialini murakkablik darajasiga qarab tanlab olish, uni o'zlashtirish jarayonida u yoki bu tarzda o'zgartirish, oddiy ma'lumotnoma, lug'at va qo'llanmalardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Aralash programma. U ravon, tarmoqlanuvchi, soddalashtirilgan programma bo'laklarini o'zida qamrab oladi.

Algoritm. U aqliy va amaliy tadbirlar izchilligini belgilovchi tafsilotdir. U o'qitishning mustaqil vositasi hamda ta'limiy programmlarning qismi bo'lishi mumkin.

Blokli o'qitish. Bu moslashuvchan programma asosida o'quvchilarning turli-tuman intellektual tadbirlar va egallagan bilimlaridan o'quv vazifalarini echishda foydalanish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Modulli o'qitish. U modullar bo'yicha tuzilgan o'quv programmlari asosida o'qitishni tashkil etishdir. Modul kurs mazmunini uch sathda qamrab oladi: to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan. Programma materiallari bir vaqtning o'zida barcha ehtimol ko'rilgan kodlarda: rasm, test, ramzlar va so'z bilan berilishi mumkin.

Bilimlarni to'la o'zlashtirish texnologiyasi. O'quv materiallari bir necha bo'laklarga bo'linadi: o'zlashtirilishi tegishli bo'lgan o'quv unsurlari, undan so'ng bo'limlar bo'yicha tekshirish uchun materiallar ishlab chiqiladi, undan so'ng o'qitish, tekshirish – joriy nazorat, korrektirovka va qayta, o'zgartirilgan tarzda ishlab chiqish - o'qitish.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar va vazifalar:

1. O'qitishni tabaqalashtirish texnologiyasiga tushuncha bering.
2. Aqliy rivojlanish darajasi, sog'lig'i darajasi bo'yicha texnologiyalarga ta'rif bering.
3. O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi qanday tashkil etiladi?
4. Programmalashtirilgan o'qitishni tashkil etish prinsiplarini ayting.
5. Programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasining turlariga ta'rif bering.

8-mavzu: Ta'limning interfaol strategiyalari

Reja:

1. Interfaol metodlar haqida tushuncha.
2. Interfaol ta'lim metodlarning turlari.

Adabiyotlar:

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: 2006.
3. Amonashvili SH. A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsessa. – Minsk.: 1990.
4. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – Namangan: NamMPI,2004.
5. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisodmoliya, 2006.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 102 b.
7. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.

8. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.
9. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.
10. Faberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO‘MMMI, 1999 y.

1. Interfaol metodlar haqida tushuncha.

Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An‘anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta‘lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘rishiga olib keladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta‘lim maqsadi, ta‘lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta‘limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e‘tiborga olinadi.

Interfaol metodlar – ta‘lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta‘lim jarayonining markazida ta‘lim oluvchi bo‘lgan metodlar. Bu metodlar qo‘llanilganda ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta‘lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta‘lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta‘lim samarasi yuqoriroqbo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta‘lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e‘tiborga olinishi;
- ta‘lim jarayoni ta‘lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta‘lim oluvchining tashabbuskorligi va mas‘uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega. Ta‘lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o‘rganish va amalda qo‘llash o‘quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri echimini topishlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta‘lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma‘lum bo‘ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz.

Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta‘lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

2. Interfaol ta‘lim metodlaining turlari.

Zamonaviy ta‘limni tashkil etishga qo‘yiladigan mahim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bunday samaraga erishish uchun dars jarayonlarini interfaol metodlar orqali tashkil etish davr talabidir. Interfaol ta‘lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi.

Hozirgi kunda eng ommaviy **interfaol ta‘lim metodlari** quyidagilar sanaladi:

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blist-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta‘lim” va b.

2. Interfaol ta'lim strategiyalari. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va k. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

3. **Interfaol grafik organayzerlar:** "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmokda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan yuqoridagi tasnif bo'yicha hozirgi ayrim interfaol ta'lim metodlarining turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan qo'llash uchun qulayligi shartli ravishda quyidagi 8-jadvalda keltirildi.

Bu jadvaldagi ayrim interfaol ta'lim metodlarining turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan qo'llash uchun qulayligi bir muncha shartli va aslida muayyan o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan boshqa yana ko'p interfaol metodlarni aniq maqsadlar yo'lida qo'llash mumkin ekanligini alohida ta'kidlash zarur.

1-jadval

Ayrim interfaol ta'lim metodlarining turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan qo'llash uchun qulayligi

O'quv mashg'ulotlari texnologiyasi	Interfaol metodlar va ta'lim strategiyalari	Grafik organayzerlar
Ma'ruza mashg'ulotlari ta'lim texnologiyasi.	Erkin yozish. Asoslangan esse va b.	Klaster. B-B-B chizmasi T-chizma va b.
Seminar mashg'ulotlari ta'lim texnologiyasi.	Aqliy hujum FSMU Blist-so'rov. Blist-o'yin va b.	Venn diagrammasi. Konsteptual jadval va b.
Amaliy mashg'ulotlar ta'lim texnologiyasi.	O'qitish bo'yicha qo'llanma. Yozma va ogzaki davra suhbatlari va b.	Insert jadvali. "Nima uchun" chizmasi. "Qanday?" diagrammasi va b.
Mustaqil ta'lim texnologiyasi.	Tushunchalarni aniqlash va b.	Baliq skeleti va b.
Keys-stadi ta'lim texnologiyasi.	Tushunchalar asosida matn tuzish va b.	Toifalash jadvali va b.
Loyihali ta'lim texnologiyasi.	Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi va b.	Nilufar guli va b.

Eng jiddiy didaktik muammolardan biri ta'lim metodlarini tanlash nimalarga bog'liq, degan masaladir.

Didaktikaga oid adabiyotlarda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ularni qo'llash samaradorligining turli omillar bilan bog'liqligi quyidagicha qayd qilinadi:

- **birinchidan**, o'quv mashg'ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog'liq;
- **ikkinchidan**, bayon qilinadigan materialning harakteriga bog'liq;
- **uchinchidan**, ta'lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog'liq;
- **to'rtinchidan**, o'quv jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog'liq;
- **beshinchidan**, oliy o'quv yurti yoki kafedraning sharoitlariga bog'liq;
- **oltinchidan**, o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minoti bilan bog'liq;

- **yettinchidan**, o'qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o'quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o'qituvchining hozirgi zamon metodlari bo'yicha bilimlariga bog'liq.

Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalaridagi kasbiy ta'lim jarayoni o'qitishning zamonaviy shakl va metodlariga muvofiq tashkil etiladigan ko'pqirrali yaxlit tizim doirasida amalga oshiriladi. Bunda har bir shakl o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to'plami yagona didaktik majmuani hosil qiladi. Bu didaktik majmuaning amalga oshirilishi esa, o'quv jarayonining psixologik-pedagogik qonuniyatlari bilan belgilanadi.

Keyingi maqolalarda hozir amalda ko'p qo'llanayotgan interfaol ta'lim metodlaridan ayrimlariga doir ma'lumotlar keltiriladi.

9-mavzu: Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari

Reja:

1. Rivojlantiruvchi ta'limning psixologik tamoyillari.
2. L.V. Zankovning rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi.
3. B. Elkonin va V.V. Davidovning rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi.

Adabiyotlar:

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: 2006.
3. Amonashvili SH. A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsessa. – Minsk.: 1990.
4. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – Namangan: NamMPI, 2004.
5. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisod-moliya, 2006.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 102 b.
7. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.
8. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.
9. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.
10. Faberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO'MMMI, 1999 y.

1.Rivojlantiruvchi ta'limning psixologik tamoyillari.

XX asrning so'ngi choragida psixologik va pedagogik adabiyotlarda ta'lim jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik yondashuv va tamoyillarni amalga oshirish ko'plab ta'riflanganligini ko'rish mumkin. Jumladan, *“aqliy rivojlanish”* tushunchasi keng qo'llaniladi, lekin qanday belgilariga ko'ra inson aqli, uning aqliy rivojlanish darajasi haqida fikr yuritish mumkin degan savolga bir mazmunli javob berilmaydi. Barcha psixologlar aqliy rivojlanishda ta'lim asosiy, hal qiluvchilik rolini o'ynashini e'tirof etadi. Bu insonning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi. Ma'lumki, insonning psixik rivojlanishi u yashayotgan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarda aniqlanadi. O'z hayotining birinchi kunidanoq bola kattalar ta'siri ostida ijtimoiy tajribani o'zlashtira boshlaydi. Bu tajribalarni o'zlashtirish jarayonida bolaning aqliy rivojlanishi, uning insoniy qobiliyatlarining shakllanishi sodir bo'ladi.

Amaliy bilimlar zahirasi bilan bir qatorda aqliy rivojlanishning tuzilishida ta'lim olganlik o'z aksini topadi. Ta'lim olganlik – bu aql sifatini shakllantiruvchi shaxs intellektual xususiyatlarining tizimi.

Aqlning teranligi inson yangi materialni egallashda mavhumlashtira olishi mumkin bo'lgan belgilarning muhimligi bosqichi va ularni umumlashganligi darajasida namoyon bo'ladi.

Aqlning sustligi qarama-qarshilikda: bir qoliplikka, fikrlashdagi odatiylikka moyillikda, bir harakatdar tizimidan boshqasiga o'tishdagi qiyinchilikda namoyon bo'ladi.

Fikrning moslashuvchanligi maqsadga muvofiq o'zgaruvchanlikni talab etadi.

Aqlning barqarorligi insonga vazifalarni fikriy hal etish, ularning butun belgilarini xotirada eslab qolishga imkon beradi. Bu sifat tasniflashga oid biror vazifani hal etishda aniq ko'rinadi.

Fikriy faoliyatning anglanganligi – uning mahsuli sifatida so'zda ifoda etish imkoniyatida aks etadigan aqlning sifati.

Aqlning mustaqilligi – yangi bilimlarni, vazifalarni hal etishning yangi yo'llarini faol izlashda namoyon bo'ladi.

Fikrning tejamkorligi – kam vaqt sarflab etarlicha bilimlarni egallay olishda aks etadi.

Rivojlantiruvchi ta'limning asosiy psixologik tamoyillari:

- o'qitishning muammoligi;
- fikriy faoliyatning turli ko'rinishlari (ko'rgazmali, amaliy, ko'rgazmali-obrazli, mavhum, abstrakt-nazariy)ning qulay rivojlanishi;
- ta'limni individuallashtirish va tabaqalashtirish;
- aqliy faoliyatning algoritimli va evristik usullarini maxsus shakllantirish;
- mnemonik(esga olishni osonlashtiradigan) faoliyatni maxsus tashkil etish.

Ta'lim jarayoniga talablarning o'sib borishi ta'siri ostida psixologlar XX asrning 60-yillarida bolalarning "yaqin zonadan rivojlanish"larini tadqiq eta boshladilar. Ochib berish uchun quyidagicha vazifa qo'yildi: ular mavhum, abstrakt-nazariy fikrlashni faollashtirishlari uchun ta'limning mazmuni va metodlarini o'zgartirilsa, bunga bolalarning imkoniyatlari etarlimi yoki yo'qmi? Tadqiqotlar oldin hisoblanganiga qaraganda bolalar ko'proq intellektual imkoniyatlarga ega ekanliklarini tasdiqladi. SHu narsa ko'rindiki, hatto birinchi sinf o'quvchilari mavhum simvol(ramz)lardan foydalana olishi, formula asosida vazifalarni hal etishi, grammatik tushunchalarni egallashi mumkin. Buni hatto mashhur psixolog Dj.Bruner ham shunday ta'kidlaydi: har qanday bola o'z rivojining istalgan bosqichida ularni taqdim etish metodlari bilan bog'liqlikda barcha bilimlarni o'zlashtira oladi.

O'quv faoliyati turli materiallar(tavsifiy matn, grafiklar, rasmlar)ga obrazlarni yaratishning turli usullarini egallashni talab etadi. O'quv ishlari usullari ularni umumlashtirishning turli darajasi bilan aloqadorlikda xilma-xil murakkablik darajasiga ega bo'lishi mumkin.O'quv ishlari usullarini egallash asosan, bolalarda o'quv ko'nikma va malakalarini shakllantirishda aks etadi. Ko'nikma va usul bir-biriga aynan o'xshash emas. Agar o'quvchi o'zidagi ko'nikmani ratsional usulda dastlabki o'zlashtirishsiz shakllantirgan bo'lsa, u holda ba'zan noto'g'ri ko'nikmani egallaydi.

O'quvchi shaxsini rivojlantirishga imkon beruvchi o'quv usullari tizimiga quyidagilar kiradi:

- o'rganilganlari bilan o'zlashtirish usullarini yangi vazifalarni hal etishda esga tushirish;
- o'quv ishlarining yangi usullarini izlash;
- o'z o'quv faoliyatini boshqarish;
- umumlashtirish usullari.

2. L.V.Zankovning rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi.

XX asrning 50-yillari oxirida L.V.Zankov rahbarligidagi ilmiy jamoa ta'limning ob'ektiv qonuniyatlari va tamoyillarini o'rganish bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni amalga oshira boshladi. Tadqiqotchilarning e'tibori ularning umumiy psixik rivojlanishi maqsadidan kelib chiquvchi kichik maktab o'quvchilarini o'qitishning didaktik tizimini ishlab chiqishga yo'naltirilgan edi. Ular boshlang'ich ta'limning shunday tizimini ishlab chiqishni vazifa qilib qo'yishgandiki, an'anaviy metodikadagi mavjud o'qitishga qaraganda, kichik maktab o'quvchilarining ko'proq rivojlanishida muvafaqqiyatni ta'minlay olsin.

L.V.Zankov bo'yicha o'qitish tizimi asosini quyidagi o'zaro bog'langan tamoyillar tashkil etadi:

- yuqori darajadagi qiyinchilikka o'rgatish;
- dastur materialini o'rganishdagi yuqori sur'at.
- nazariy bilimning hal qiluvchilik roli;
- o'quvchilarning o'qish jarayonining anglanganligi;
- hamma o'quvchilarni, ko'proq past o'zlashtiruvchilarni rivojlantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan va tizimli ishlar.

YUqori darajadagi qiyinchilikka o'rgatish tamoyili. L.V.Zankov fikricha, qiyinchilikning "o'rtacha me'yor"dan oshib ketadi, eng avvalo, bolaning ma'naviy kuchini uyg'otadi, unga erkinlik beradi va yo'nalishtiradi. Bu erdan kelib chiqadiki, aniqlangan bilimlarni o'zlashtirish o'quvchining mulkiga aylanadi, navbatdagi bosqichda esa unga yuqori darajadagi rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi.

YUqori darajadagi qiyinchilikka o'rgatish tamoyili dastur materialini o'rganishda yuqori sur'atda oldinga intilish tamoyili bilan tabiiy ravishda bog'langan. Bu tamoyil bir xil o'tilganlarni takrorlashdan voz kechadi. SHuning uchun eng muhimi – o'quvchilarda hamma yangi-yangi bilimlarni oshirish. Faqat ushbu tamoyilni o'quv ishlaridagi shoshqaloqlik bilan solishtirish mumkin emas. Muhimi olingan axborotni chuqur anglash uchun ijobiy sharoitni yaratish va o'quvchining har tomonlama aqlini o'stirish.

L.V.Zankov tizimining navbatdagi tamoyili – boshlang'ich maktabdayoq ko'nikma va malakalarni egallash negizida rivojlanishning asosiy vositasi sifatida yuzaga chiquvchi nazariy bilimlarning hal qiluvchilik roli. Bu tamoyil shunday xulosa bermaydigan zamonaviy psixologiyadagi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning fikrlashidagi aniqlik haqidagi tasavvurlarga qarshi o'rtaga tashlandi.

Bu tamoyil o'quvchilardagi obrazli tasavvurning rolini inkor etmaydi. U kichik maktab o'quvchilarining aqliy rivojlanishida aniq fikrlash hal qiluvchi xarakterni belgilamasligini ta'kidlaydi. CHunki kichik maktab yoshi o'quvchilari atamalarni o'zlashtirishga qobiliyatli. Bunga faqat tushunchalarni oddiy yodlash sifatida qaramaslik zarur.

Mazkur tamoyil barcha fanlarni o'rganishda o'z o'rniga ega. Biroq u kichik maktab o'quvchilarining shakllanishida ko'nikma va malakalarning ahamiyatini yo'qqa chiqarmaydi. L.V.Zankovning ta'lim tizimida ko'nikmalarni shakllantirish tushunchalar, munosabatlar, aloqadorliklar bilan bog'liqlikda chuqur anglash negizida to'la talabga javob beradigan umumiy rivojlanish asosida kelib chiqadi.

O'quvchilarning o'qish jarayonining anglanganligi tamoyili umumtomonidan qabul qilingan onglilik didaktik tamoyilidan kelib chiqadi. L.V.Zankov ko'plab tadqiqotlarni tahlil etib, o'quv materialini tushunishning muhimligi, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, fikrlash jarayonlarini egallash zarurligini, o'quvchining o'quv predmetiga ijobiy munosabatining muhimligini aniqladi. Bularning hammasi, L.V.Zankovning fikricha, zarur, biroq etarli emas. O'quvchining rivojlani-shining muhim sharti uni anglash ob'ektidan kelib chiquvchi bilim va ko'nikmalarni egallash jarayoni holatida aks etadi.

Ma'lumki, an'anaviy metodikada ko'paytirish jadvalini yodlashga imkon beruvchi turli usullar qo'llaniladi. Bu uni o'rganish vaqtini qisqartirishga va ko'plab qiyinchiliklarni oldini olishga imkon beradi. L.V.Zankovning tizimi bo'yicha o'quv jarayonini materialning joylashish tartibiga qarab o'quvchining o'zi aniqlab olishiga asoslangan holda tashkil etiladi.

Uning tizimida *hamma o'quvchilarni, ko'proq past o'zlashtiruvchilarni rivojlantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan va tizimli ishlar* asosiy o'rin tutadi. L.V.Zankov buni shunday tushuntiradi, odatda, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar amaliy mashqlar oqimiga ko'mib tashlanadi. An'anaviy metodikada bu o'zlashtirmaydigan o'quvchilarda o'zlashtirmaslikni yo'q qilish uchun chora sifatida qabul qilingan. L.V.Zankovning tajribasi buni aksini ko'rsatdi: amaliy topshiriqlarning o'zlashtirmaydiganlar ustiga yuk bo'lib tushishi bolalarni rivojlanishiga imkon bermaydi, aksincha ularning orqada qolishini uzaytiradi. Uzashtirmaydiganlar kam emas, ko'proq boshqa o'quvchilar ularning rivojlanishi bo'yicha tizimli ishga ehtiyoj sezadi. Tadqiqot

shuni ko'rsatdiki, bunday ish sust o'zlashtiruvchi o'quvchilarning ilgariylashiga va bilim va ko'nimalarini o'zlashtirishdagi natijalarini yaxshilanishiga olib keladi.

3. B. Elkonin va V.V.Davidovning rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi.

XX asrning 60-yillarida psixologlar V.V.Davidov va D.B.Elkoninlar rahbarligi ostidagi ilmiy jamoa insonning psixik rivojlanishida kichik maktab yoshining ahamiyati va rolini aniqlashga urinib ko'rishdi. Natijada shu narsa aniqlandiki, zamonaviy sharoitlarda bu yoshda xulqni erkin boshqarish, abstrakt-nazariy fikrlash, o'quv faoliyati va uning sub'ekti rivojlantirilsa, maxsus ta'limiy vazifalarni hal etish mumkin.

Tadqiqotlar natijasida yana shu narsa aniqlandiki, an'anaviy boshlang'ich ta'lim ko'pchilik kichik maktab o'quvchilarining to'liq rivojlanishini ta'minlay olmaydi. Bu uning bolalar bilan ishlashda zaruriy rivojlanishning yaqin zonasini yaratib bermasligini bildiradi. Aksincha o'z asosida hali maktabgacha ta'lim muassasasida paydo bo'lgan va rivojlana boshlagan psixik funksiyalarni mashq qildiradi va mustahkamlaydi. Bundan kelib chiqadiki, ta'lim psixik yangilashdagi vaqt bilan o'zgartirsa bo'ladigan zaruriy rivojlanishning yaqin zonasini yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

V.V.Davidov va D.B.Elkoninning nuqtai nazaricha, boshlang'ich sinflarda ta'lim mazmuni va metodlarini asosan o'quvchilarda empirik fikrlash asoslarini shakllantirishga yo'naltirish muhim, biroq bu bolalarning rivojlanishini samarali yo'lini aks ettirmaydi. O'quv fanlarining tuzilishi empirik mazmundan farqli ravishda o'ziga xosligiga ega bo'lgan nazariy fikrlashni o'quvchilarda shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. U butun tizimni tashkil etuvchi ob'ektiv o'zaro harakatlanuvchi hodisalar sohasi bilan bog'liq. V.V.Davidov ta'kidlaydiki, aynan nazariy fikrlash keng o'lchamda inson oldida borliqdagi umumiy aloqalarni xotirada tiklab beruvchi predmetli-hissiy amaliyotni ochib beradigan bilish imkoniyatlarini amalga oshiradi.

Nazariy fikrlash asosida mazmunan umulashtirish turadi. Inson narsa-hodisalarning ba'zi rivojlantiruvchi tizimini tahlil qilar ekan, uning kelib chiqishining dastlabki, muhim yoki umumiy asoslarini payqay oladi. Bu asosni ajratib olish va qayd etish mazkur tizimni mazmunan umumlashtirishdir. Bunday umumlashmaga tayanib, u tizimlarning xususiy va umumiy o'ziga xosliklarini fikran kuzatib borish layoqatiga ega bo'ladi. Nazariy fikrlash u yoki bu tizimning mazmunan umumlashtirish, so'ngra esa uning asosidagi umumiylikni ochib beruvchi mazkur tizimni barpo etishda ko'rinadi.

V.V. Davidov empirik va nazariy fikrlashning quyidagi asosiy farqlarini belgilaydi:

- empirik bilish narsa-hodisalarni tasavvur etish va taqqoslash natijasidir; nazariy bilish esa ichki yaxlit tizim munosabatlari funksiyasi va rolini tahlil qilish jarayonida paydo bo'ladi;

- taqqoslash jarayonida aniqlangan barcha narsa-hodisalarning rasmiy umumiy xususiyatlarini ajratib olish kelib chiqadi; tahlil qilish esa, uning butun asosini yoki mohiyati sifatida yaxlit tizimning boshlang'ich munosabatini ochishga imkon beradi;

- empirik bilim kuzatishga asoslanadi, narsa-hodisalarning tashqi xususiyatlarini tasavvur etishda aks etadi; nazariy bilim esa, narsa-hodisalarni fikriy qayta tiklash asosiga hosil bo'ladi, ularning ichki munosabatlarini va aloqadorliklarini aks ettiradi va xuddi o'sha tasavvur chegarasida aylanib chiqadi.

- rasmiy umumiy xususiyat narsa-hodisalarning o'ziga xos va umumiy xossalari bilan bir belgili sifatida belgilanadi, bu vaqtda nazariy bilimlarda uning turlicha namoyon bo'lishi bilan butun tizimning real umumiy munosabatlari aloqasini qayd etadi;

- empirik bilimlarni aniqlashtirish jarayoni narsa-hodisalarni sinfi bilan bog'liqlikdan kelib chiquvchi misollar, illyustratsiyalarni yig'ib olishdan; nazariy bilimlarni aniqlashtirish uning umumiy asosidan kelib chiqib, yaxlit tizimning o'ziga xosligi va birligini ajratib ko'rsatish va tushuntirishdan iborat;

- empirik bilimlarni qayd etishning zaruriy vositasi atama so'zlarda aks etadi; nazariy bilim turli ramz-belgili vositalarning yordami bilan aqliy faoliyat usullarida ko'rinadi.

Inson bilimlarni foydalanishni aniq fikriy harakatlar yordami bilan amalga oshiradi. Fikrlashning muhim tarkibiy qismlari ikki asosiy shakllari – empirik-formal va nazariy

mazmuniyga ega bo'lgan analiz, rejalashtirish, refleksiya sifatidagi harakatlarda aks etadi. *Nazariy-mazmuniy refleksiya* shu bilan xarakterliki, u muhim munosabatlarni aks ettirish, haqiqiy borliqning muhim asoslarini izlash va muhokama qilish bilan bog'liq. *Mazmunli tahlil* xususiy o'ziga xosliklardan muhim yaxlit ob'ektdagi ba'zi alohidalilikni izlashga yo'naltirilgan. *Mazmunli rejalashtirish* optimal(maqbul) harakatlarni aniqlash va bajarilishi joiz harakatlarni tashkil etishni izlab topish bilan tugallanadi.

Empirik va nazariy fikrlashning barcha farqlarida ularga fikriy harakatlar va bilimlarning muvofiqligi xosdir. Ular bir-birini to'ldirganligi bois har bir inson uchun fikrlashning bu ikala turi ham zarur. Nazariy fikrlash unga xos vazifalarni ijtimoiy ongning xuddi shunday turli doiralari – ilmiy bilish, badiiy obrazlar yaratish, huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish, axloqiy va diniy qadriyatlarini izlash bilan hal etadi. SHuning uchun g'ayri qonuniylik uni yolg'on ilmiy tushunchalarni ko'rsatish bilan bog'laydi.

V.V.Davidov va D.B.Elkoninning fikricha, o'quvchilarning rivojlantiruvchi ta'limi asosida tahlil qilish, rejalashtirish va refleksiya vositasida nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quv faoliyati va uning sub'ektlarini shakllantirish turadi. Bunday nazariyada gap insonda butunlay bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish emas, aynan maxsus o'quv faoliyati shaklida kelib chiqadiganlarini o'zlashtirish haqida boradi. Uning amalga oshishi jarayonida o'quvchi nazariy bilimlarni egallaydi. Ularning mazmuni qaysidir fanning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishini aks ettiradi. Bunda real, aniq nazariy aks ettirish ko'pbrazli birlik sifatida fikrning aniqlikdan mavhumlikka harakatlanishida amalga oshiriladi.

V.V.Davidov va D.B.Elkoninning rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasi eng avvalo, shaxsiy asosi sifatidagi ijodiy rivojlanishga mo'ljallangan. Aynan rivojlantiruvchi ta'limning bu turi uni an'naviy ta'limga qarshi qo'yadi. Bu konsepsiyaning ko'plab qoidalari bir qancha tadqiqotlar jarayonida o'z tasdig'ini topgan. Uning rivojlanishi va amaliyotda qullanilishi hozir ham davom etmoqda. Faqatgina bu konsepsiya hali ommaviy ta'lim amaliyotida to'liq amalga oshirilmayapti.

10-mavzu: Tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi texnologiyasi

Reja:

1. Tanqidiy fikrlashning mazmun-mohiyati.
2. Tanqidiy fikrlashning psixologik mohiyati.
3. Tanqidiy fikrlashga o'rgatish usullari.

Adabiyotlar:

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: 2006.
3. Amonashvili SH. A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsessa. Minsk.: 1990.
4. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – Namangan: NamMPI,2004.
5. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisod-moliya, 2006.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 102 b.
7. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.
8. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.
9. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.

1. Tanqidiy fikrlashning mazmun-mohiyati.

Tanqidiy fikrlash bu – XXI asr talablarini muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishimizga imkoniyat yaratuvchi, o'rganayotgan va bajarayotgan ishimizni yanada chuqurroq anglashimizga yordam beruvchi ijobiy ko'nikmadir. Tanqidiy fikrlashga o'rgatish Kadrlar tayyorlash milliy dasturida bayon etilgan yuqori kasbiy madaniyatli, ijodiy va ijtimoiy faol xayotda o'z o'rnini topa oladigan malakali kadrlarni shakllantirish vazifasini hal qilishga ham mos keladi.

“Tanqidiy fikrlash” tushunchasi haqida gapirishdan oldin, ayrim aqliy faoliyat ko'nikmalarini ko'rib chiqaylik, lekin ularni tanqidiy fikrlash deb bo'lmaydi. Esda saqlash – eng muhim fikrlash jarayoni bo'lib, busiz o'quv jarayonini amalga oshirib bo'lmaydi, lekin u tanqidiy fikrlashdan tubdan farq qiladi. Kompyuterning xotirasi har birimiznikidan anchagina yaxshiroq, lekin esda saqlash tanqidiy fikrlashni bildirmaydi. Ko'pchilik o'qituvchilar har qanday fikrlashdan ko'ra xotirani rivojlantirishni yuqoriroq qadrlaydilar, nazorat ishlari va imtihonlarda asosan o'quvchilar xotirasi ko'lamini tekshiradilar. Lekin tanqidiy fikrlash tarafdorlari esa aqliy faoliyatning murakkabroq turlarini nazarda tutadi.

“Tanqidiy fikrlash” atamasidan pedagogik muhitda anchadan beri foydalanib kelinadi va turli pedagoglar buni xilma-xil tarzda tushunadilar. Ko'pchilik o'qituvchilar va metodistlar uchun tanqidiy fikrlash “yuqori tartibdagi” fikrlashni bildiradi – yuqori degani shu ma'nodaki, U Benjamin Blum tizimiga ko'ra o'rganish qobiliyatlarining so'nggi oliy pog'onasida turadi. Faylasuflar tanqidiy fikrlash deganda, odatda mantiqiy fikrlash va isbotlash ko'nikmalarini tushunadilar, uning yordamida o'quvchilar diqqat bilan o'qish, chuqur munozaralar yuritish va yozuvda o'z fikrlarini aniq va o'ylab ifoda etish imkonini oladilar. Adabiyot nazariyotchilari va tarixchilar uchun matnning tarkibiy qismlarini ajratishga va matnning kitobxonga ta'sir qilish usullarini tanqidiy qayta mushohada qilishga xamda muallif asarni yaratishda amal qilgan sababalarni aniqlashda yordam beradigan matnga yondashish “tanqidiy” deb hisoblanadi.

Dayana Xalperi “Tanqidiy fikrlash psixologiyasi” kitobida tanqidiy fikrlash “fikir yuritishning shunday ko'rinishini anglatadiki, u vazminlik, mantiq va maqsadga yo'naltirilganlik bilan ajralib turadi”,- deb yozadi.

Djeni Stil, Kert Meredis, CHarlz Templarning “Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qish va yozish” loyihasida quyidagicha ta'kidlanadi: “Odam tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g'oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo'lgan oqibatlarini ham e'tiborga oladi. Bunda odam bu g'oyalarni dastlab ma'lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtai-nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo'shimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o'z nuqtai-nazarini ishlab chiqadi”. Tanqidiy fikrlash – g'oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg'unlashuvi, konsepsiya va axborotlarni qayta fikrlash va qayta qurishdek murakkab jarayondir. Bu faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtda ro'y beradigan jarayon ham bo'lib hisoblanadi. Tanqidiy fikr egasiga hiyla-nayranglar kamroq ta'sir qiladi, o'zining shaxsiy qarashlar tizimi bo'lgani uchun ular turli xavf-xatardan holi bo'ladilar.

Tanqidiy fikrlashda g'oyalar va ularning ahamiyati ko'pfikrlilik nuqtai-nazaridan ko'rib chiqiladi hamda ular boshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi aqliy faoliyat bo'lib, unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo'llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e'tibor beriladi.

Tanqidiy fikrlash muloqot va guruh bilan ishlash malakalarini rivojlantiradi. SHuningdek, u ta'lim jarayoniga jo'shqinlik baxsh etadi, mashg'ulotlarni o'qituvchi va o'quvchi uchun quvonchga aylantiradi.

Hozirda o'quvchilarni o'qishga o'rgatish va tanqidiy fikrlashni egallashlari muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. YAngi axborotlarga duch kelar ekan, o'quvchilar uni mustaqil ravishda baholashi, unga turli xil nuqtai-nazardan qarashi, undan o'z ehtiyoj va maqsadlari yo'lida

foydalana olish imkoniyati to'g'risida xulosa yasay olishlari zarur. Haqiqiy tanqidiy fikrlaydigan odam bo'lib etishish uchun o'quvchilar ijodiy fikrlab, o'zini sinab ko'rishi va bunga oid malakalarni egallashi zarur.

Tanqidiy fikrlashni paydo qilish uchun quyidagilar bo'lishi kerak:

- o'quvchida o'ziga xos nuqtai-nazarni paydo qilish;
- bir fikrdan boshqasining afzalligini asoslash mahorati;
- murakkab muammolarni echish mahorati;
- bahsni dalillab olib borish;
- yagona fikrni ishlab chiqish uchun birgalikda ishlash mahorati;
- qarashlar va tasavvurlarga hayotiy tajriba qanday ta'sir qilishini tushunish.

O'quvchilarni haqiqatan ham dolzarb muammo haqida fikrlash imkoniyatidan mahrum qilib, mantiqiy jarayonlarni mavhum tarzda o'rganish emas, balki o'quvchilarni tezda faol o'ylash jarayoniga kirishishga, uni tajribada amalga oshirishga imkon beradigan metod eng yaxshi hisoblanadi. Bundan tashqari, o'quvchilarni haqiqatda bezovta qiluvchi muammolar haqida so'z borganda tashabbus ularning o'zidan chiqqanda, tanqidiy fikrlash yaxshiroq rivojlanadi.

2. Tanqidiy fikrlashning psixologik mohiyati.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu ma'lum yosh davrida o'rgatish tugallanishi va unutilishi mumkin bo'lgan masala ham emas. Tanqidiy fikrlashga olib boradigan aniq-ravshan yo'llar yo'k. Biroq o'qitish shartlarining muayyan to'plami borki, uning yordamida tanqidiy fikrlashni tarbiyalash mumkin. Jumladan, quyidagi shartlar zarur:

1. Tanqidiy fikrlash tajribasini orttirishga vaqt va imkoniyat berish.
2. O'quvchilarga fikrlash imkoniyatini berish.
3. Turli g'oya va fikrlarni qabul qilish.
4. O'quv jarayonida o'quvchilarning faol qatnashishlariga imkon berish.
5. O'quvchilarni ularning ustidan hech kim kulmasligiga ishontirish.
6. Har bir o'quvchini u tanqidiy mulohaza yuritishga qodir ekanligiga ishontirish.
7. Tanqidiy fikrlash paydo bo'lishini qadrlash.

SHu bilan birga, o'quvchilar:

1. O'z-o'ziga ishonchni rivojlantirib, o'z g'oya va fikrlarining qimmatini tushunishlari kerak.
2. Ta'lim jarayonida faol qatnashishlari lozim.
3. Turli fikrlarni hurmat bilan eshitishlari kerak.
4. O'z mulohazalarini shakllantirishga tayyor bo'lishlari yoki undan o'zlarini tiyishlari lozim.

Tanqidiy fikrlashning elementlari quyidagilardan iborat:

- tanqidiy fikrlash – bu mustaqil fikrlashdir;
- axborot – tanqidiy fikrlashning boshlanishidir;
- tanqidiy fikrlash savolning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni

aniqlashdan boshladi;

- tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi;
- tanqidiy fikrlash – ijtimoiy fikrlashdir.

*Birinchi*dan, tanqidiy fikrlash – bu mustaqil fikrlashdir.

Mashg'ulot tanqidiy fikrlash tamoyillari bo'yicha yaratilar ekan, har bir ishtirokchi boshqalarnikidan mustasno holda o'zining g'oyasi, baholashi va ishonchiga ega bo'ladi. Hech kim biz uchun tanqidiy fikrlab bermaydi. Biz faqat o'zimiz uchungina bunday fikrlay olamiz. Demak, fikrlash yakka tartibli xarakterga ega bo'lgandagina, uni tanqidiy fikrlash deb atash mumkin. O'quvchilar o'z aqli, fikrlashi va eng murakkab savollarga ham o'zlari javob topa olish erkinligiga ega bo'lishi kerak. Qanday fikrlash zarurligini har bir o'quvchi o'zi uchun o'zi hal qiladi. SHunday qilib, mustaqillik tanqidiy fikrlashning eng muhim jihatlaridan biridir.

Ikkinchidan, axborot tanqidiy fikrlashning natijasi emas, balki uning boshlanishidir. Bilim odamni tanqidiy fikrlashga undovchi motiv bo'lib hisoblanadi. Ba'zan "bo'sh bosh bilan fikrlash qiyin:", deb ham aytishadi. Murakkab fikrni yaratish uchun anchagina "xom ashyo" - dalillar, g'oyalalar, matnlar, nazariyalar, ma'lumotlar, konsepsiyalarni qayta ishlash zarur.

Har qanday yoshda ham tanqidiy fikrlash mumkin: faqat o'quvchidagina emas, balki hatto birinchi sinf o'quvchilarida ham hayotiy tajriba va bilimlar mavjud bo'ladi. Bolalarning fikrlash qobiliyatlari o'qitish natijasida yanada takomillashib boradi. Hatto juda yosh bolalar ham tanqidiy fikrlash va butunlay mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega. Aynan tanqidiy fikrlash tufayli odatdagi bilish jarayoni alohidalik va anglashuvchanlik, uzviylik va samaradorlik kasb etadi.

Uchinchidan, tanqidiy fikrlash, savolning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi. Insoniyat o'z tabiatiga ko'ra qiziquvchidir. Biz biron-bir yangilikni sezar ekanmiz, albatta uning mohiyatini bilishni xohlaymiz. Qandaydir tarixiy obidani ko'rar ekanmiz, bizda uning ichkarisiga kirish istagi paydo bo'ladi. "Barcha hayvonot olamida,- deb yozadi kimyogar va faylasuf Mikael Poloniy,- uning eng sodda shakli bo'lgan chuvalchangdan, ehtimol hatto amyobadan boshlab, biz adabiy ehtiyotkorlik harakatini, ehtiyojni bevosita qondirishga bog'liq bo'lmagan izlanuvchanlik faoliyatini: har qanday jonli mavjudotni o'z atrofini aql-zakovat bilan nazorat qilishga intilishini kuzatamiz". Qiziquvchanlik har qanday tirik mavjudotning ajralmas xususiyatidir. Bu xususiyat yosh bolalarda ayniqsa quchli bo'ladi. Biroq, har qanday bosqichdagi haqiqiy bilish jarayoni o'quvchining muammoni hal qilishi, o'zining shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlaridan paydo bo'lgan savollarga javob izlashi bilan belgilanadi.

Amerikalik faylasuf va pedagog J.Dyuining aytishicha, agar o'quvchilar muayyan muammo bilan shug'ullana boshlasalargina, ularda tanqidiy fikrlash paydo bo'ladi. "O'quv jarayonining boshlang'ich nuqtasi hisoblangan, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo'lgan eng muhim savol bu hodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir. Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o'zining shaxsiy yo'lini izlagandagina, o'quvchi haqiqatan ham fikrlaydi".

Bundan xulosa qilish mumkinki, o'kituvchi darsga tayyorgarlik ko'rar ekan, o'quvchilar to'qnashishi mumkin bo'lgan muammolar doirasini aniqlashi, so'ngra esa, o'quvchilarni bu muammolarni o'zlari mustaqil ravishda shakllantirishlariga tayyorlashi zarur. Tanqidiy fikrlash tufayli o'qitish aniq maqsadga yo'nalgan, mazmunli faoliyatga aylanadi hamda bu faoliyat davomida o'quvchilar haqiqiy aqliy ish bajarib, haqiqiy hayotiy muammolarni hal qiladilar. Ular dalillar to'plab, matnlarni tahlil qilib, teng kuchli nuqtai-nazarlarni taqqoslab hamda jamoa imkoniyatlaridan foydalanib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob izlaydilar va uni topadilar.

To'rtinchidan, tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi. Tanqidiy fikrlovchi kishi muammoning o'z shaxsiy echimini topadi va bu qarorni oqilona, asosli dalillar bilan mustahkamlaydi. U boshqa qarorlar bo'lishi mumkinligini ham tan oladi, lekin o'zi tanlagan qaror boshqalarga nisbatan eng mantiqiy va oqilona ekanligini isbotlashga harakat qiladi.

Har qanday ishonchli dalil uch asosiy qismdan iborat bo'ladi. Tasdiqlash – dalil markazi, uning mazmuni bo'lib hisoblanadi (ba'zan u tezis, asosiy g'oya yoki qoida deb yuritiladi). Tasdiqlash bir necha dalillar bilan mustahkamlanadi. Dalillarning har biri o'z navbatida isbotlar bilan mustahkamlanadi. Statistik ma'lumotlar, matn parchasi, shaxsiy tajriba, umuman olganda, ushbu ishonchli dalillarni isbotlashga yordam beruvchi va muhokamaning boshqa ishtirokchilari tomonidan tan olinishi mumkin bo'lgan barcha g'oyalardan isbotlovchi sifatida foydalanish mumkin. Ishonchli dalillarning yuqorida qayd qilingan barcha qismlari tasdiq, dalil va isbotlash negizida, uning to'rtinchi qismi bo'lgan asos turadi. Asos – bu qandaydir yo'naltiruvchi hisobning boshlang'ich nuqtasi bo'lib, u notiq uchun ham, yoki yozuvchi va uning muxlislari uchun ham umumiy bo'ladi va u barcha ishonchli dalillar uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishonchli dalillar, unga qarama-qarshi dalillarni mavjud bo'lishi, yoki ularni oshirib ko'rsatilishi, yoki qabul qilinishi mumkinligini ham hisobga olgandagina yutadi. Boshqacha

nuqtai-nazarlarning tan olinishi ishonchli dalillarning ta'sir kuchini yanada oshiradi. O'ta ta'sirchan dalillar bilan qurollangan tanqidiy fikrlovchi kishi, hatto katta obro'ga ega bo'lgan fikrga ham qarshi tura oladi, amaliyotda bunday kishining fikrini o'zgartirish mumkin emas.

Beshinchidan, tanqidiy fikrlash – ijtimoiy bo'lib ham hisoblanadi (har bir inson ijtimoiy organizmdir). Har qanday fikr, agar u boshqalar bilan o'rtoqlashilgandagina o'tkirlashadi yoki faylasuf Xanna Arendt yozganidek: "kimningdir huzurimda bo'lishi, meni barkamollikka erishtiradi". Bahslashuvda, o'qiganimizda, muhokamada ishtirok etganimizda, e'tiroz bildirganimizda, boshqalar bilan fikr almashganimizda biz o'z nuqtai-nazarimizni aniqlashtiramiz va uni chuqurlashtiramiz. SHuning uchun ham tanqidiy fikrlash yo'nalishida ishlayotgan pedagoglar o'z mashg'ulotlarida juftlikda yoki guruhlarda ishlashning turli shakllaridan foydalanishga, bunda debat va munozaralardan samarali foydalanishga hamda o'quvchilar yozma ishlarini namoyish qilishning turli ko'rinishlaridan foydalanishga intiladilar. Umuman olganda, har qanday tanqidiy fikrlovchi biron-bir jamoa bilan ishlaydi va faqat o'z shaxsini konstruksiyalashga nisbatan anchagina keng ma'nodagi vazifalarni hal qiladi.

SHuning uchun ham tanqidiy fikrlash yo'nalishida ishlaydigan o'qituvchi: vazminlik, boshqalarni eshitishga o'rganish, o'z fikriga javobgarlik kabi o'zaro samarali fikr almashish uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirishga ko'proq e'tibor beradi. SHunday qilib, bu o'qituvchilar o'quv jarayonini auditoriyadan tashqarida kechayotgan haqiqiy hayotga yaqinlashtirishga erishadilar.

Tanqidiy fikrlash yozma ishda yaqqolroq namoyon bo'ladi. YOzuvda fikrlash jarayonini kuzatish mumkin bo'ladi va bu o'qituvchi uchun ham qulaylik yaratadi. YOzayotgan o'quvchi doimo faol bo'ladi. U doim mustaqil fikrlaydi va bunda u o'zida mavjud bo'lgan barcha bilimlardan foydalanadi. U o'z fikrini mustahkamlash uchun etarli darajadagi ishonchli dalillarni qatorlashtirib tashlaydi. Bundan tashqari u o'z tabiati jihatidan ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. CHunki xat yozuvchi, uni o'qiydiganga mo'ljallab yozadi. O'quvchi uchun eng qimmatlisi – o'qituvchining uning ishiga qiziqishi va unga hurmat bilan qarashi, o'z fikrlari to'g'risida kursdoshlari, boshqa o'qituvchilar, ota-onalar va hatto notanish kishilar bilan o'rtoqlashish imkoniyatiga ega bo'lganligidir. SHuning uchun yozishni tanqidiy fikrlashning eng muhim vositasi deb hisoblash mumkin.

3. Tanqidiy fikrlashga o'rgatish usullari

Tanqidiy fikrlash asoslari uch bosqich (faza)dan iborat bo'ladi, bular: chaqiriq (da'vat), anglash, fikrlash (mulohaza) bosqichlaridir.

Tanqidiy fikrlash "chaqiriq" deb ataladigan bosqichdan boshlanadi, uning davomida o'quvchilarning qiziqishi uyg'onadi, zarur savollar tug'iladi va bunday bilimlarni olish uchun sabablar shakllanadi. SHundan keyin ma'noni anglash bosqichi keladi, uning davomida o'quvchilar izlash uchun rag'bat oladilar, ba'zi hollarda bunga o'rganadilar ham. Fikrlash bosqichi kulminatsiya bo'lib hisoblanadi, uning davomida o'quvchilardan o'z bilimlarini umumlashtirish, bilib olgan narsalarni bungacha bilgan narsalari bilan taqqoslash, ularning savollariga javoblarni qay darajada olganiga qarab baholash (va zaruratga qarab yangi savollarni shakllantirish), bilgan narsalarini yanada katta muammolarga qo'llash, bilib olgan narsalarini munozara qilish va himoya qilish kabilar iltimos qilinadi.

CHaqiriq bosqichining ahamiyati shundan iboratki, unda yangi bilimlar, o'zi mustaqil tanlagan maqsad uchun intilish anchagina kuchli bo'ladi. CHaqiriq bosqichida faoliyatning bir nechta bilim beruvchi muhim turlari amalga oshiriladi. Birinchidan, o'rganuvchi mazkur mavzu to'g'risida bilganlarini tiklashda faol ishtirok etadi. Bu esa uni o'z bilimlarini tahlil qilishga va tez orada batafsil ko'rib chiqiladigan mavzu haqida o'ylashni boshlashga majbur etadi. Boshqa ikkita bosqich tushuntirilganidan keyin dastlabki harakatning ahamiyati ravshanroq bo'ladi.

O'quvchilarni bilganlari to'g'risida o'ylashlariga ko'maklashish, qiziqish uyg'otish amalga oshadi. O'quvchilar yangi bilimlar qo'shilishi mumkin bo'lgan o'z bilimlarining darajasini aniqlaydi. Agar bilim odam bilgan va tushunganlar kontekstida olingan bo'lsa, puxta bo'ladi. Agar axborot o'quvchiga oldingi bilimlar bilan bog'lanmasdan berilsa, u tez yo'qolib ketadi.

Ta'lim jarayoni – yangilarni ma'lum bo'lganlar bilan bog'lash jarayonidir. O'quvchining yangi tasavvurlari ilgari bilimlari va tasavvurlari asosida quriladi. O'quvchilarga ilgari bilim va tasavvurlarini tiklashga yordam berib, yangi axborotlarni uzoq muddatga tushunish uchun keng asoslar yaratish mumkin.

CHaqiriq bosqichining ikkinchi maqsadi – o'rganayotganlarni faollashtirishdan iboratdir. Ta'lim – intilish talab etadigan faoliyat turidir.

O'quvchilar yangi axborotni ongli, puxta tushunishlari va yangi axborotga tanqidiy yondashishlari uchun ta'lim jarayonida faol qatnashishlari kerak. O'quvchi belgilangan maqsad asosida o'ylab, fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash orqali faollashadi. Bilimlarni namoyish qilish (o'ziga va sherigiga) og'zaki yoki yozma nutq yordamida, faol fikrlash orqali sodir bo'ladi. SHunday qilib, ilgari olingan bilimlar anglash darajasiga olib chiqiladi. endi ular yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun negiz bo'lishi mumkin. Bu esa o'quvchilarga yangi axborotni avval bilganlari bilan samarali bog'lashga imkoniyat beradi, chunki chunki tushunish uchun kontekst paydo bo'ldi.

CHaqiriq bosqichining uchinchi maqsadi – bunda taklif etilgan mavzuni ko'rib chiqishga qiziqish tug'diriladi va maqsad aniqlanadi. Qiziqish va maqsadning bo'lishi o'quvchilarning faolligini yanada oshiradi. Maqsadni aniqlash ta'limda eng muhimdir.

Maqsad ikki xil bo'ladi: o'qituvchi tomonidan yoki taklif etilgan matnda qo'yilgan maqsad va o'quvchi mustaqil ravishda tanlab olgan maqsad. Mustaqil ravishda tanlangan maqsadlar, tashqaridan majburiy kiritilgan maqsadlardan kuchliroq bo'ladi. SHaxsiy qiziqish shaxsiy maqsadni belgilaydi. Agar barqaror qiziqish bo'lmasa, o'quvchi faoliyatining motivatsiyasi pasayadi. Umuman olganda o'quvchi o'z savollariga javob olishi orqali haqiqiy tushunishga erishadi.

Anglash bosqichining ahamiyati. Anglash fazasida yangi axborot da'vat fazasida faollashtirilgan axborot bilan bog'lanadi.

Bu bosqichning asosiy vazifasi, birinchidan, chaqiriq bosqichida yaratilgan qiziqish va harakatlanish inersiyasini, faollikni qo'llab-qo'vvatlashdan iborat. Ikkinchi muhim vazifasi o'quvchilarda o'z tushunishini kuzatishga doir intilishlarini qo'llashdan iboratdir Sub'ektning ichki jarayonlari va holatlarini o'zi tomonidan bilib borishi refleksiya (ba'zan meta-bilish) deb ataladi.

Refleksiya (lotincha reflexio- orqaga qaytish) falsafiy tushuncha bo'lib, u individ ongida sodir bo'layotgan o'zgarishlar haqida o'zining mulohaza yuritishini anglatadi. Refleksiya- bu sub'ektning faqatgina o'zini-o'zi tushunishi bo'libgina qolmay, balki u "refleksiyalanuvchi"ni, uning shaxsiy xususiyatlari, ta'sirga javob berishining ifodalanganligi va bilishga oid tasavvurlarning oydinlashtirilishi va boshqalar tomonidan tushunilishini ham anglatadi.

Fazaning eng muhim vazifasi esa, yangi o'quv materialining tushunilishiga erishishdan iboratdir. Faol o'quvchilar xabarni eshitib, odatda savol beradilar yoki tushunmaganlarini keyinchalik aniqlash uchun yozib qo'yadilar. Sust o'quvchilar esa bunday qilmaydilar, ular vujudga kelgan chalkashliklar, anglashilmovchiliklar haqida yoki nimanidir tushunmay qolganlarini o'ylab ham ko'rmaydilar.

O'quvchilar o'z tushunishlarini kuzatganda, yangi axborotni o'zlaridagi tasavvurlar bilan solishtiradilar, ongli ravishda yangilarni avval ma'lum bo'lganlari bilan bog'laydilar. Ular yangi tushunishni yaratish uchun eski va yangi bilimlar orasida "ko'priklar" quradilar.

Fikrlash (mulohaza qilish) bosqichining ahamiyati. Bu fazada bilimlar mustahkamlanadi va o'rganilayotgan masala bo'yicha oldingi fazalarga nisbatan boshqacha (to'laroq) tasavvur shakllanadi va "o'qiganlik"ning ortishiga olib keladi. O'quvchi o'z o'quv maqsadiga erishgandagina bunday o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin. SHunday qilib, bu fazada o'quvchini o'qiganlikning pastroq darajasidan uning yuqoriroq darajasiga o'tkazish sodir bo'ladi. Bu o'quvchining yangi g'oya va axborotlarni o'z so'zi bilan ifodalay olishida aks etadi. O'quvchilar o'zlariga ko'proq yoqqan narsani yaxshiroq eslab qoladilar.

Fikrlash bosqichida bir nechta muhim maqsadlarga erishish rejalashtiriladi. Birinchi navbatda, o'quvchilar yangi fikr va axborotlarni o'z so'zlari bilan ifodalashga harakat qilib

ko'rishlari kerak. *Agar sizga eslab qolish kerak bo'lsa – unutasiz. Agar sizga tushunish kerak bo'lsa – eslab qolasiz.*

Ta'lim natijalarining qancha uzoq muddatga saqlanishi hamda tushunish darajasi turli odamlarda har xildir. Tushunganlarni o'z so'zlari bilan ifodalab, qayta tuzganda shaxsiy anglangan kontekst yuzaga keladi.

Fikrlash bosqichining ikkinchi maqsadi o'quvchilar o'rtasida fikrlar bilan jonli almashuv hisoblanadi, bu ularga o'z so'z boyligini kengaytirishga hamda boshqa o'quvchilarning tasavvurlari bilan tanishishga imkon beradi.

O'zgaruvchan tanqidiy fikrlash turli fikrlar rag'batlantiriladigan muhitda kuchayadi. SHunda o'quvchilar ularni hisobga olib, o'z tasavvurlarini qurishlari mumkin.

Tanqidiy fikrlashning asoslari o'qituvchiga shunday sharoitlar yaratadiki, natijada u quyidagilarga erishadi:

- o'quvchilarning fikrlashini faollashtiradi;
- ta'lim (o'quvchilar) maqsadini ajratadi;
- faol munozaralarga imkoniyat yaratadi;
- o'qishga qiziqishni oshiradi;
- faol o'quv faoliyatini ta'minlaydi;
- o'zgarishlarni rag'batlantiradi;
- fikr yuritishni rag'batlantiradi;
- o'quvchilarga turli xil fikrlarni tinglashga imkoniyat beradi;
- o'quvchilarga o'z savollarini berishda yordam beradi;
- o'quvchiga o'z-o'zini ro'yobga chiqarishga imkon beradi;
- o'quvchilar tomonidan axborotlar qayta ishlanishini ta'minlaydi;
- o'quvchilarda tanqidiy fikrlashga imkoniyat yaratadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish strategiyalari. *“Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi” strategiyasi.* Masalan, “Ta'lim metodlari” mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulot o'tkazilayapti, deylik. Dastlab o'qituvchi doskaga ta'lim metodlarni chalkashtirilgan holda yozib qo'yadi. So'ngra, ulardan mazkur metodlarni qaysi guruhga kirishiga qarab, og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarga tasniflashni taklif etadi.

1. Mashq
2. Hikoya
3. Videometod
4. Munozara
5. Didaktik o'yinlar
6. Laboratoriya metodi
7. Suhbat
8. Tushuntirish
9. Ma'ruza
10. Kitob bilan ishlash
11. Ilyustratsiya
12. Demonstratsiya

11-mavzu: Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish

Reja:

1. Tarbiyaga texnologik yondashuv: imkoniyatlari va ularning o'ziga xosliklari.
2. Tarbiyaviy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari.

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: 2006.

3. Amonashvili SH. A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsessa. Minsk.: 1990.
4. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – Namangan: NamMPI,2004.
5. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisodmoliya, 2006.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 102 b.
7. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.
8. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.

1.Tarbiyaga texnologik yondashuv: imkoniyatlari va ularning o'ziga xosliklari


Tarbiya – o'qituvchi va talaba (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo'lib, tarbiyalanuvchining ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama o'stirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish, yosh avlodni muayyan maqsad asosida har tomonlama voyaga etkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni xalqning boy mafkuralari asosida shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Tarbiyaviy faoliyatda tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Tarbiyaviy faoliyatda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun talabaning ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiyaviy faoliyatga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U talabalar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni mamlakatning ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslanadi. Tarbiya mohiyati turli davrda har xil ifodalangan bo'lsa ham, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyatiga ko'ra bir-biriga o'xshash g'oyalarni ifodalaydi. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liqligi qadimdan o'z isbotini topgan.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiya maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat.

SHaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldindan belgilangan va puxta o'ylab tuzilgan tarbiyaviy rejalar asosida hal etib boriladi. Tarbiyaviy faoliyatda uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, amalga oshishida ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g'oyalar yaxlit tarzda quyidagicha aks etadi:



Тарбиявий фаолиятнинг умумий моҳияти

2. Tarbiyaviy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari.

Tarbiyaviy faoliyat nuqtai nazaridan o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

- 1) aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayon;
- 2) ko'p qirrali jarayon;
- 3) uzoq muddatli jarayon;
- 4) uzluksiz jarayon;
- 5) yaxlit tizimlilik jarayon;
- 6) ikki tomonlama aloqa jarayoni;
- 7) qarama-qarshiliklardan iborat jarayon.

Tarbiyaviy faoliyatning **aniq maqsadga yo'naltirilganligi** zamonaviy talqinda Tarbiyaviy faoliyat o'qituvchi va talaba (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni demakdir. Zero, Tarbiyaviy faoliyatda o'qituvchi va talabalarning faoliyatlari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

Tarbiyaning ko'p qirrali jarayonligi, tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (sub'ektiv va ob'ektiv) omillar asosida tashkil etiladi. Sub'ektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglatish, ob'ektiv omillar esa shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarini ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi.

Tarbiyaviy faoliyat **uzoq muddat davom etadi**. Tarbiya natijalari tez sur'atda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniyat sifatlarini namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Maktab tarbiyasi shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki yoshlik yillarida insonda odob tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi.

Tarbiyaviy faoliyat jarayonning yana bir muhim xususiyati uning **uzluksizligidir**. Tarbiyaviy faoliyat talabalar va o'qituvchining birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayoni. Talabalarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi tarbiyani tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. SHu bois, oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni uzluksiz o'tkazilishiga erishish lozim.

Tarbiyaviy faoliyatning **yaxlit tizimli tashkil etilishi** shundan iboratki, tarbiyaviy faoliyatning maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g'oyasi amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, shaxs sifatlari navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o'zlashtiriladi.

Tarbiyaviy faoliyatning yana bir xususiyati **ikki tomonlama aloqa** ikki yoʻnalishda, yaʼni, oʻqituvchining talabaga nisbatan koʻrsatadigan taʼsiri (toʻgʻri aloqa) hamda talabanning oʻqituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzda tishkil etiladi.

Tarbiyaviy faoliyatda **qarama-qarshiliklar** talabalarda oʻz tushunchalariga muvofiq paydo boʻlgan dastlabki sifatlar bilan oʻqituvchining talabalarga qoʻyadigan talablari va ularni bajarish imkoniyatlari oʻrtasida ziddiyatlarning kelib chiqishidan paydo boʻladi. Baʼzan bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq kelmasligidan yoki oʻqituvchining talabalar yosh xususiyatlarini, feʼl-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy hamda fiziologik jihatdan sogʻlomligini bilmasliklari oqibatida ziddiyatlar kelib chiqadi.

Tarbiyalash texnologiyasi – nisbatan yangi atama boʻlishiga qaramay rivojlangan mamla-katlarda keng tarqalgan. Tarbiyalash texnologiyasi pedagogikada yangi yoʻnalish hisoblan-gan «ijtimoiy pedagogika» bilan birgalikda fuqarolik gʻururi, vatanparvarlik, ijti-moiy faollik, masʼuliyat hissi va boshqa shaxsiy sifat-larni shakllantirishga jiddiy taʼsir qilmoqda.

Taʼkidlash joizki, tarbiyalash texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning gʻoyasi, mazmuni va tarkibini emas, balki bu sohadagi respublikamiz hukumati tomonidan ishlab chiqilgan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shugʻullanadi. Tarbiya-lash texnologiyasi moʻljallangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni taʼminlovchi vositalar majmuasini koʻrib chiqadi.

Oʻqituvchi(pedagog)larning oʻzida muloqot, bahs olib borish madaniyatini shakllantirish maqsadida pedagogik taʼlim mazmuniga qoʻyiladigan talablar, ayniqsa muhimdir. Oʻzaro hamkorlik pedagogikasi – oʻqituvchi (pedagog) va oʻquvchi-talaba oʻrtasida hamfikir-lilik, bir-biriga ishonch, oʻzaro yordam, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi. Bu esa, oʻz navbatida, yoshlar tomonidan haqiqiy insoniy qadriyat-larning anglab olinishi va eʼtirof etilishini kafolatlaydi.

Oʻquv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish pedagog-dan ijodiy ishlashni talab etadi. Pedagog oʻzida unga yordam beruvchi tashqi imkoniyatlar, yaʼni, nazariy-amaliy materiallar, oʻquv qurollari va vositalari mavjudligi haqida toʻliq maʼlumotlarga ega boʻlishi kerak. Pedagog oʻzidagi mavjud maʼlumotlar va imkoniyatlar asosida qaralayotgan taʼlim yoʻnalishi boʻyicha mavjud metodika va ilgʻor oʻqitish uslublarini koʻzlagan maqsadga yoʻnaltirish qobiliyatiga ega boʻlishi lozim.

12-mavzu: Pedagogik texnologiyalar – taʼlim texnologiyalari sifatida

Reja:

1. Pedagogik texnologiyaning mohiyati
2. Pedagogik texnologiyaning umumiy tuzilmasi

Adabiyotlar:

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy oʻqitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxoʻjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: 2006.
3. Amonashvili SH. A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsessa. Minsk.: 1990.
4. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. Oʻquv qoʻllanma. – Namangan: NamMPI,2004.
5. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisod-moliya, 2006.
6. Yoʻldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: Oʻqituvchi, 2004. – 102 b.
7. Golish L. V. Zamonaviy taʼlim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.

8. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.
9. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.
10. Faberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO‘MMMI, 1999 y.

1.Pedagogik texnologiyaning mohiyati

Pedagogika talabalar guruhi bilan ishlashda yuqori natijaga erishish yo‘llarini doimo izlab kelgan va o‘z vosita, usul va shakllarini hamma vaqt takomillashtirib kelgan. Ko‘zlangan maqsadga erishish imkoniyatini beruvchi, qandaydir usul yoki usullar majmuasini topish ilinjida bo‘ldi. Buning natijasida turli uslubiyotlar paydo bo‘ldi. Pedagogik tajriba to‘planishi bilan yangi, samaraliroq uslubiyotlar yaratila bordi. Ammo, yangi uslubiyotlarni yaratish borasidagi amaliy ishlar natijasi, o‘zib borayotgan talablarga hamma vaqt ham javob bermas edi. O‘qitishdagi doimiylik, rejalashtirilgan natijalarga erishish kafolati kabi muammolar o‘z echimini kutar edi.

O‘quv maqsadlarning noaniq va mujmal qo‘yilishi, shu bilan bog‘liq o‘qitishdan kutilgan natijaning yo‘qligi, an‘anaviy ta‘lim maktabining kamchiligi hisoblanadi. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharoitida, oliy ta‘lim muassasasi, o‘qitishdan kutiladigan natija yo‘qligidek, ortiqcha daxmazaga yo‘l qo‘ya olmaydi. O‘qitish natijasi aniq va erishiladigan bo‘lishi lozim, aks holda, tayyorlangan mutaxassislariga ehtiyoj ham noaniq bo‘ladi va ular talab qilib olinmaydi. An‘anaviy o‘qitish maktabiga tayangan oliy ta‘lim muassasasi, hozirgi zamon ishlab chiqarish va boshqa sohalarning aniq talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga qodir bo‘lmaydi. SHuning uchun, o‘quv jarayonini takomillashtirish, talabalar qiziqishini oshirish, o‘qitish natijalarini yaxshilashning eng samarali yo‘llarini izlash ishlari uzluksiz davom ettirilmoqda. O‘qitish sifatini oshirish, ob‘ektiv zaruriyatga aylanganligi tufayli, alohida o‘qitish uslublaridan pedagogik texnologiyaga o‘tish muammosining dolzarbligi ortib bormoqda. O‘quv jarayonini birinchi marta ushbu tarzda talqinlash YA.A.Komenskiyning pedagogikasida uchratish mumkin.

Komenskiy asarlarida, inson tabiati qonuniyatiga uyg‘unlashgan o‘qitish tartibini izlash urinishlari mavjud. O‘qitish texnologiyasining asosiy elementlari - dars tamoyili, sinf tamoyili, o‘qitishning predmetligi, o‘quv materialini bayon etishning umumtartibi – aynan YA.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan edi, bu esa uning pedagogik tizimining individual jamiyatdagi uning ommaviy so‘ngra umumiy ta‘limi ehtiyoji uchun uzoq yillar xizmat qilishini ta‘minlaydi. U o‘qitishning yagona takomillashgan usulini ko‘z oldiga keltirib, uni soat mexanizmining aniq va ravon ishi bilan taqqoslagan edi.

O‘qitish amaliyotida, o‘qitishning turli tuman yo‘llari, usullari va shakllari keng qo‘llaniladi. Ammo o‘qitishda yagona samarali (integral) yondashuv sohasidagi izlanishlar jadallik bilan hamon davom ettirilmoqda. O‘qitishni, o‘ziga xos ishlab chiqarish texnologik jarayonga aylantirishi mumkin bo‘lgan didaktik yondashuvlar, didaktik vositalarni izlash davom etmoqda. 50-yillarda o‘quv jarayoniga mashinalarni kirib kelishi va tarqalishi bilan, pedagogik texnologiyalarni rivojlanish bosqichi boshlandi. Bu paytda sanoat ishlab chiqarishida yangi ilmiy yo‘nalish – sistemotexnika paydo bo‘ldi va u «odam-mashina» majmualarini yaratish masalalarini echib berdi. Ushbu ilmiy yo‘nalishda «odam-mashina» tizimida odamning rolini aniqlash muhim ahamiyatga ega, hozirgi kunda ushbu muammo echimining uch bosqichini ko‘rsatish mumkin:

Birinchi bosqich - «mashina hamma narsaga qodir» tamoyilini qo‘llab, mashinani odamga bog‘liqsiz loyihalash.

Ikkinchi bosqich - vazifalarni odam va mashina o‘rtasida taqsimlash tamoyili asosida, odam bilan mashinaning o‘zaro ta‘sir jarayonlarini o‘z ichiga oluvchi mashinalarni loyihalash.

Uchinchi bosqich - odamni texnik tizimning tarkibi sifatida qarashdan voz kechish bilan belgilanadi, loyihalash asosiga odam faoliyati tamoyili qo‘yiladi, ya‘ni odam faoliyati tizimi loyihalana boshlandi. Faoliyat tizimi o‘zining funksional birliklaridan iborat mazkur bosqich,

industrial jamiyat o'rniga kelayotgan, informatsion yoki postindustrial deb ataluvchi yangi jamiyatning rivojlanayotgan elementlariga yo'naltirilgan. Yangi jamiyatning taraqqiyoti, bilimlarni to'plash va qayta ishlash jarayonlarida inqilobiy shartni qo'yadi, bunda markaziy rolni telekommunikatsiyalar tarmog'iga ulangan kompyuter bajaradi. Informatsiya (axborot) bosh tovar mahsulotga aylanadi, uni yaratish qobiliyati esa mamlakatning strategik resursiga aylanadi. Ishlab chiqarishda yangi yuqori texnologiyali tarmoqlar paydo bo'ladi, mavjudlarining esa shakli keskin o'zgaradi.

Ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar, yangi turdagi xodim paydo bo'lishiga olib keladi. Xodimning bu turi o'zining quyidagi sifatleri bilan ajralib turadi: u ko'proq mustaqil, ijodiy fikr qiladi, endi u mashinaga qo'shimcha qism hisoblanmaydi. Qo'l asboblari to'plamiga ega bo'lgan sanoatlashmagan davrning, hunarmand ustasidek, yangi intellektual ishchilar, bilimlar, mahorat, axborotlar kabi ma'naviy asboblari to'plamiga egalar.

Intellektual ishchilar doimiy o'zgarishlar, muammolar, vaziyatlarga moslashuvchan bo'ladi. Ular o'z ishlarini qattiq nazoratsiz, o'z hohishlariga ko'ra, ijodiy, erkin bajarishga moyil bo'ladi. Ular o'zlarida iste'dodli shaxsni ifoda etadilar. Qaerda intellektual ishchi faoliyati uchun sharoit yaratilgan bo'lsa aynan shu erda ishlab chiqarish raqobatbardosh va daromadli bo'ladi. Bunda ishlab chiqarishning sifati va samaradiligiga ishchilarning muskul energiyasi, texnik malakasi orqali emas, balki uning omilkorligi, ma'lumoti, harakatchan fikrlash qobiliyati va ishga ijodiy munosabati orqali erishiladi.

Postindustrial jamiyat xodimini shakllantirish uchun, jamiyat ishlab chiqarishning yangi talablariga javob beradigan, yangi ta'lim texnologiyasi zarur bo'ladi, yangi turdagi xodim uchun yangi turdagi pedagog mos keladi. Sistema texnika majmuasi taraqqiyotining uch bosqichiga mos, ta'lim tizimida o'qituvchining uch turli maqomi, pedagogik faoliyatning uch turini alohida qayd etish mumkin.

Pedagogik faoliyatning birinchi turi, shu bilan xarakterlanadiki, o'qituvchi o'z ishining ustasi hisoblanadi, nodir bilimlar, ko'nikmalar tashuvchisi, shaxsiy tajribaga, pedagogik qobiliyatga ega bo'ladi (qadimgi davrdagi hunarmandga o'xshash). Uning «asboblari» - yo'llari, usullari individual bo'lib, pedagogik iste'dodining mevasidir, qo'llanmalar, ko'rgazmali va texnik vositalar unga meros qolgan yoki o'zi tomonidan ishlab chiqilgan.

Pedagogik faoliyatning ikkinchi turi, shu bilan xarakterlanadiki, unda o'qitish tajribasi umumlashtiriladi, tizimlashtiriladi va ilmiy fan ko'rinishini oladi. Bunga, kitob chop etishning paydo bo'lishi, pedagogik mehnatning bo'linishi va ixtisoslashuvi sabab bo'ldi. Bu erda pedagogik jarayon, oqilona tashkil etilgan, o'qitish ma'lum qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu sharoitlar bilimni ob'ektivlashtirish imkonini berdi. O'qituvchi sanoatlashgan (industrial) jamiyatning ishlab chiqarish xodimiga o'xshab, sanoatlashgan (industrial) turdagi xodimga aylanadi.

Pedagogik faoliyatning uchinchi turi shu bilan xarakterlanadiki, u pedagogik texnologiya asosida amalga oshiriladi, o'qituvchining holatini, zamonaviy kompyuterdan foydalanuvchi holati bilan taqqoslash mumkin. O'qitish texnologiyasi kasbiy yondashuv asosida aniqlanadi. Ular odatda, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya negizida, pedagogik ilmiy usul va malakalari, ishlab chiqarishning usul va malakalaridek, o'quv jarayonini ro'yobga chiqaruvchi ob'ektiv mantiqiy imkoniyatlar sifatida mavjud bo'lishi mumkinligi haqidagi, tasavvur yotadi.

Ishlab chiqarish sohasida ushbu imkoniyatlar qanday ro'yobga chiqarilsa, pedagogik ishda ham shunga o'xshash jarayon sodir bo'ladi. Yuqori malakali pedagog o'zining pedagogik qobiliyati tufayli bu imkoniyatlarni aniqlaydi va ularni ishlab chiqadi.

O'qitish jarayonining mavjud ob'ektiv qonuniyatlarni o'rganish va qo'llash, o'qitishda zaruriy natijaga erishish, ma'lum darajada hattoki pedagog va talabaning qobiliyatiga bog'liq emas degan xulosaga olib keladi.

Pedagogik jarayon qanchalik chuqur ishlangan va ob'ektlashgan bo'lsa, uni ro'yobga chiqarish uchun, shunchalik kam qobiliyat talab etiladi. Ushbu, ommaviy ta'limning butun amaliyotida o'z tasdig'ini topdi. Bundan tashqari kompyuterli o'qitishni joriy etish amaliyoti,

odamning bevosita ishtirokisiz ham, o'qitishning usul va yo'llari tizimi, amalga oshirilishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Pedagogik texnologiyaning xususiyati shu bilan belgilanadiki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni yaratiladi va ro'yobga chiqariladi.

Ishlab chiqarish texnologik jarayon ma'lum mahsulot uchun ishlanganidek, xuddi shunday pedagogik texnologiya ham har qaysi fan uchun o'qitish texnologiyasining asosiy elementlarini o'z ichiga olgan umumiy uslubiyot asosida ishlab chiqiladi.

Pedagogik texnologiyaning afzalligi ham, ahamiyati ham shu bilan belgilanadi. Bu ommaviy o'qitish sharoitida, talabalarni to'la o'zlashtirishini ta'minlovchi yagona to'g'ri yo'ldir.

2. Pedagogik texnologiyaning umumiy tuzilmasi

Pedagogik texnologiya, o'z tamoyillariga, binoan, tegishli tabiiy qo-biliyatga va zaruriy o'qituvchilik ish tajribasiga ega bo'lgan etuk pedagoglar tomonidan loyihalanganadi. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari, qayta takrorlanadigan o'rgatuvchi sikl sifatida ro'yobga chiqariladigan o'quv jarayo-nini yaratishga imkon beradilar.

Pedagogik texnologiya quyidagi asosiy **elementlardan** iborat:

- O'ta aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish. Ularni o'lchash va baholash mezonlarini o'rnatish;

- O'quv maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan, o'quv jarayonini ishlab chiqish va aniq tasvirlash;

- Butun o'quv jarayonini, o'qitish natijalariga kafolatli erishishga qaratish;

Pedagogik texnologiyalarni yaratish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, o'ta aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish uchun, amerikalik peda-gog-olim B.Blum taksonomiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'lchov mezonlarini o'rnatish va ularni baholash ishlab chiqilgan diagnostik testlar yordamida bajariladi.

Bunda, har bir o'quv materialining minimal o'zlashtirish daraja-sini belgilash muhit ahamiyatga ega. Butun o'quv jarayoni, unga qaratilgan taqdiridagina, o'quv maqsadlariga erishish mumkin bo'ladi.

O'quv jarayonini o'quv maqsadlariga erishishga yo'naltirish, o'quv reja-sini ishlab chiqishdan boshlanadi. Birinchi navbatda o'quv rejadagi har bir fanning, mutaxassis tayyorlashdagi o'rni va va ahamiyatini aniq o'rnatish zarur. Bu esa, Davlat ta'lim standartlari va mutaxassis faoliyatining chu-qur tahlili asosida bajariladi. O'quv fanining mutaxassis tayyorlashdagi rolga ko'ra, mashg'ulotlar turlari – ma'ruzaviy, amaliy (seminar), labo-ratoriya, mustaqil ishlar orasidagi munosabatlar o'rnatiladi.

Yo'nalish fanlari uchun amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga ajratilgan o'quv soatlari ma'ruzaviy soatlardan ko'p bo'lishi kerak, chunki bu erda olingan bilimlarni qo'llash, tahlil etish, sintez, baholash darajasida bo'lishi muhimdir. YA'ni, mutaxassis faoliyati uchun zarur bo'lgan malakalarga ega bo'lishi lozim. Boshqa turdagi o'quv fanlari uchun mashg'ulotlar turlari orasidagi munosabat o'zgacha nisbatlarda rejalashtiriladi.

SHu bilan bir qatorda o'rta maxsus kasb hunar ta'limi o'quv jarayonining tashkil etish samaradorligiga, auditoriya soatlari va mustaqil ish uchun ajratilgan soatlar orastdagi nisbatlarni maqbullashtirish ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim kursi oshishi bilan mustaqil ishlash malakalari va zaruriyati oshib boradi. Zero, ta'lim kursi oshishi bilan, malakalarni shakllantirish mutaxassis kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarish talablari oshib boradi.

O'quv jarayonining tashkil etish samaradorligiga ta'sir etuvchi, keyingi omil, o'quv grafigini maqbullashtirish hisoblanadi. O'qitish jarayoni-ning samaradorligi nuqtai nazardan, bir haftaga ajratilgan auditoriya soatlarning eng kam miqdori to'rt soatni tashkil etishi kerak. Haftalik auditoriya soatlari bundan kam bo'lgan fanlar uchun o'quv jarayonini blokli tashkil etish tavsiya etiladi. O'quv maqsadlariga erishishda, o'quv jarayoni-ning muhim tarkibiy elementi sifatida, o'qitish jarayonini samarali tashkil etishga alohida o'rin ajratiladi. SHaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari samarali hisoblanadi. O'qitishning ushbu texnologiyalari,

Nazorat savollari:

1. «Pedagogik texnologiya» iborasining ta'rifini tushuntirib bering.
2. «Pedagogik texnologiya» fanining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
3. «Pedagogik texnologiya»ning blok-sxemasini tushuntirib bering.
4. Pedagogik texnologiyaning farqli xususiyatlari va afzalliklarini tushuntirib bering.
5. Pedagogik-texnologik xaritaning ahamiyati nimada?

13-mavzu: Kasb ta'limi o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar

Reja:

1. Jamiyatda o'qituvchining tugan o'rni va vazifalari
2. O'qituvchiga qo'yiladigan talablar
3. O'qituvchining kasbiga xos xislatlari

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: 2006.
3. Amonashvili SH. A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsessa. Minsk.: 1990.
4. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – Namangan: NamMPI,2004.
5. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisodmoliya, 2006.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 102 b.
7. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.
8. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.
9. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.
10. Faberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO'MMMI, 1999 y.

1. Jamiyatda o'qituvchining tugan o'rni va vazifalari

O'qituvchining o'rni va uning vazifalari, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi aniqlanadi. Mamlakatimizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni hayotga tatbiq etish jarayonida o'qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishida jamiyat oldida javobgarligi yanada ortib boraveradi.

Xozirgi sharoitda jamiyatning akademik litsey va kasb-xunar kolleji oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormokda va bu talablarni amalda to'g'ri xal qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liqdir.

Pedagogik faoliyat - inson mexnatining eng murakkab soxalaridan biri bulib, bu faoliyat bevosita davlat va jamiyat tomonidan kuyiladigan talablar asosida tashkil etiladi.

O'qituvchi – pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisosligi yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi.

Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi o'quv jarayoning tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars paytida, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir. Ko'pchilik o'qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar.

Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmashligi mumkin emas. SHuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

O'qituvchi ta'lim muassasasining pedagog jamoa a'zosi sifatida ta'lim muassasasi hayoti faoliyatini uyushtirishda bevosita ishtirok etib, turli fan o'qituvchilari va sinf rahbarlarining metodik birlashmalarida ishlaydi, topshiriqlarni bajaradi. Har bir o'qituvchi o'quvchilarning ota-onalari va jamoatchilik oldida ma'ruzalar o'qib, suhbatlar olib borar ekan, demak, u pedagogik bilimlar targ'ibotchisi hamdir. Vazifalarning shu qadar ko'pligi uchun ham jamiyatning o'qituvchilar oldiga qo'yadigan talablari tushunarlidir.

Ma'lumki, pedagogik faoliyat – kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir.

2. O'qituvchiga qo'yiladigan talablar

Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq xislatlariga qaratilgan.

Jamiyatning o'qituvchi oldiga kuyadigan asosiy talablari qo'yidagilardan iborat:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalash, o'quvchilarni mustakillik Foyalariga sodiklik ruxida tarbiyalash, uz Vatani, tabiat va oilasiga bulgan muxabbatni shakllantirish;

- o'quvchilarni turli soxaga oid boshlanFich bilimlardan xabardor kilish;
- o'zi dars berayotgan fan buyicha etuk muta-xassis bulish;
- ta'lim va tarbiya metodikasini egallash;
- o'z ishiga ijodiy yondashish;
- o'z bilimi va pedagogik maxoratini doimiy ravishda oshirib borish.

Bu talablarni bajarish uchun o'qituvchilarning ilmiy va ijodiy saloxiyatini rivojlantirish, tizimda intellektual o'qituvchilar elitasini shakllantirish, yuksak iste'dodli o'qituvchilarga bilimning tegishli sohalar yoki fanning anik yo'nalishlari bo'yicha o'z qobiliyatlarini namoyon etish, o'zidagi noyob iste'dodni ruyobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratish lozim.

Buning uchun o'qituvchilarning intilish, kat'iylik va mexnatsevarlik kabi fazilatlarini xamda ijodiy faoliyat bilan shugullanish istagini rivojlantirish va intellektual saloxiyatini ustirishga kumaklashish, ularning individual malakasini oshirishga aloxida e'tibor karatish lozim. O'qituvchi faoliyat monitoringining samarali shakllarini yaratish va amaliyotga joriy etish, maxsus o'quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalarni ishlab chikish ishlarini rivojlantirish, psixologik va pedagogik testlar, turli tanlovlar orkali o'qituvchilarning ijodiy rivojlanganlik darajasini aniklashni yulga kuyishi lozim.

Jamiyatda tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga kuyiladigan talablar usishi barobarida, o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga nisbatan kuyiladigan talablar xam usib boradi.

3. O'qituvchining kasbiga xos xislatlari

O'qituvchining eng muhim xislatlari quyidagilardan iborat:

-o'qituvchining o'z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevish, ularni inslnparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o'z yurti, ona tili, o'z halqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatining mustaqilligi g'oyasida yashashidan ibratdir;

-ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;

-olijanoblighi, aqli, farosati, ma'anaviy poklighi, ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarni bolalarga singdirib borishi;

-o'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqatli, bardam, matonatligidir.

Jamiyatning o'qituvchi oldiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagilardir:

-shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tabiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vatani tabiatiga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

-keng bilimga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

- yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigienasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;
- o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;
- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;
- bolalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi;
- pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;
- o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o'qituvchi ana shu talablarga to'la javob bera oladigan bo'lishiga intilishi shart.

O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda hamkasblari, o'quvchilar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim. Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha halq ta'limi bo'limlari va maktab direktorlari o'qituvchining ayrim xislatlari naqadar muhimligini har xil baholaydilar. Jumladan, halq ta'limi bulimlarining mudirlari o'qituvchidan birinchi navbatda o'z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o'zlashtirilishini talab qilsalar maktab direktorlari o'qituvchiga qo'yiladigan bunday talablarni uchinchi o'ringa qo'yadilar. SHu bilan birga halq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchilarning o'quvchilar va ota-onalar, maktab jamoasi Bilan qanday muloqotda e'tibor bermaydilar, aktab direktorii esa bunday xislatlarni o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar ichida birinchi o'ringa qo'yadilar.

14-mavzu: O'qituvchining faoliyati va peldagogik mahorati

Reja:

1. Pedagogik faoliyatning tuzilishi va turlari.
2. O'qituvchining pedagogik mahorati

Adabiyotlar:

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: 2006.
3. Amonashvili SH. A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsesssa. Minsk.: 1990.
4. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – Namangan: NamMPI,2004.
5. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisod-moliya, 2006.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 102 b.
7. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.
8. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.
9. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.
10. Faberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO'MMMI, 1999 y.

1. Pedagogik faoliyatning tuzilishi va turlari.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir.

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivoj-lantirish bo'lib, o'qituvchilarning faoliyat mezonini begilab beradi. O'qituvchilarning faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir. Pedagogik jarayonning obektlari bo'lmish tarbiyalanuvchi insonga, o'quvchi va o'quvchilar guruhiga hamda alohida o'quvchiga, pedagogik jarayonning subektlari — ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf jamoa-si, pedagogik jamoa mas'uldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta'lim va tarbiya berish faoliyatini bajaradilar

Pedagogik faoliyatning maqsadi asrlar davomida yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning umuminsoniy g'oyasi sifatida xizmat qilib kelayotgan tarbiyaviy ishni amalga oshirish bilan bog'liq. Pedagogik faoliyatning asosiy turlari sifatida tarbiyaviy ish va o'qitish aks etadi. Tarbiyaviy ish — bu tarbiyaning tizimligi, to'la-ligi, uzviyligi va uzluksizligidir. Tarbiyaviy ish tarbiyalanuvchilarning muaiyan faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shakldir. Tarbiyaviy ishning asosiy xususiyati — zaruriylik, foydalilik va tatbiq etish imkoniyatidan iborat.

Tarbiyaviy ishlar asosida ikkita: faol va majmuaviy yondashuvlar yotadi. Yonda-shuvlarning birinchisi, faoliyatning bilish, mehnat, ijtimoiy, badiiy, sport va erkin muloqot kabi turli ko'rinishlarini tashkil etishni talab etadi. Ikkinchi majmuaviy yondashuv esa, faoliyatning barcha ko'rinishlarining yagona jarayonga ta'siri bilan ta-biiy "ko'shilib" ketishida namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy ishlar, ayni paytda, o'ziga axlo-kiy. Estetik, hissiy va aqliy (intellektual) ta'sirlarni kamrab oladi. Faoliyatga oid yondashuv tarbiya yo'nalishiga ishora qilsa, majmuaviy yondashuv — uning mazmun tabiatini (pedagogik maqsad (vaziyat, tarbiyaviy maqsadning asosiy va bog'liq tomon-larini shakllantirish)ni; rsjalashtirish; tashkil etish va tayyorlashni; ishni bsvo-sita amalga oshirishni; erishilgan natijalar tahlilini) belgilaydi.

O'qitish — qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilar-ning tartiblangan o'zaro harakatidir. O'rgatish — o'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyatini aks ettirsa, o'rganish anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni bo'lib, avval egallanganlari o'zgaradi.

N.V.Kuzmina pedagogik faoliyatning o'zaro bir-biri bilan aloqador quyidagi uch tarkibiy qismini ajratib ko'rsatadi: *konstruktiv, tashkilotchilikka doir va kommuni-kativ*. **Konstruktiv faoliyat** mazmunli (o'quv materialini tanlash va tizimlashtirish, pedagogik jarayonni rejalashtirish va tashkil etish), konstruktiv operativ (o'zining va o'quvchilarning harakatlarini rejalashtirish); konstruktiv-moddiy (pedagogik jarayon-ning o'quv-moddiy bazasini loyihalash) jihatlarni o'zida aks ettiradi. **Tashkilotchilik faoliyati** — o'quvchilarni faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish. **Kommunikativ faoliyat** — pedagogning ta'lim oluvchilar, o'qituvchilar jamoasi, jamoatchilik, mahalla va ota-onalar bilan munosabatini yo'lga qo'yish.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining alohida xususiyatlari, ro'y berayotgan voqealarni idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan, takrorlanmay-digan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmas-dir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirok-chisi hamdir.

2. Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashish-da bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. O'quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof-muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchi-lari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot ham ta'sir etadi. SHuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

Pedagogik maqsadning o'ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagog faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta'minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o'tkazadi, ijtimoiy tajriba o'ttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

2. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta'kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kela-veradi».

3. Pedagogik (ta'lim-tarbiya) jarayonda o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyatini mantiqan o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

SHunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarini «o'sib» uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;
- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondoshishi;
- o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish;

O'quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o'zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

O'quvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etish-lari tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi kerak.

O'qituvchilik kasbining tarixiy taraqqiyoti tahlili o'qituvchining ham o'qitish, ham tarbiyalash faoliyati hamma davrlarda ham o'zaro aloqadorlikda ko'rib kelinganligi ha-qida fikr yuritish imkonin beradi. "O'qituvchi, – deydi Al Forobiy, - aql-farosatga, chiroylik nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur." U o'z fikrini davom ettirib: "O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'r-ganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi, o'quv-chilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. SHu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u inso-niylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi",- deb ta'kidlaydi.

1. O'qituvchining pedagogik mahorati

Pedagogik mahorat – bu o'qituvchi-tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, hayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy, (bilimdonligi, zukko-ligi, fidoiyligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xusu-siyatki, u o'z fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida, o'quvchi-yoshlarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab-topib amaliy faoliyatida qo'llashida namoyon bo'ladi. SHunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'z o'quv predmetini davr talablari aso-sida bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini o'zlashtirishi hamda insoniy-lik va fidoiyligni o'zida tarkib toptirishga intilishi lozim. SHuni alohida qayd qilib o'tmoq zarurki, o'qituvchilik kasbi murakkab va qiyindir. Ushbu kasbning qiyin va mu-rakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo tirik, ongi jonzot bilan muloqotda bo'la-di. Ongli va tirik jonzot esa ham aqliy, ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan doimo

rivojlanishda bo‘ladi. SHuning uchun o‘quvchi bilan doimo muloqotda bo‘lish, unga ta‘sir ko‘rsatish, undan psixologiya, tarbiya nazariyasini mukammal bilishni taqozo qiladi.

Pedagogik mahorat egasi bo‘lish uchun o‘qituvchi o‘z o‘quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo‘lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o‘zida tarkib toptirishi lozim. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, quyidagi to‘rtta komponent pedagogik mahoratning **asosiy tashkil** etuvchilari hisoblanadi:

- **o‘qituvchilik kasbiga sadoqat;**
- **o‘z fanini o‘qitish metodikasini mukammal bilishi;**
- **pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi;**
- **pedagogik texnikani o‘z o‘rnida qo‘llay bilishi.**

SHuni alohida qayd etib o‘tish zarurki, o‘qituvchilik kasbi murakkab va mas‘uliyatli jarayondan iborat. Ushbu kasbning sharafliigi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, o‘qituvchi doimo ongning yagona sohibi bo‘lmish insonning ta‘lim–tarbiyasi bilan shug‘ullanib, u bilan muloqot olib boradi. O‘qituvchining shaxsiy fazilatlari sirasiga iymon–e‘tiqodi, dunyoqarashining kengligi, faolligi, odob–axloqi, fuqarolik burchini his qilishi, ma‘naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat‘iyligi va o‘z maqsadlariga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi, mamlakatimizning ijtimoiy–siyosiy talablariga o‘z fikr mulohazasi bilan faol ishtirok etishi kiradi.

O‘qituvchining kasbiy xususiyatlariga: o‘z kasbini, bolalarni sevishi, ziyrakligi, hozirjavobligi, vazminligi, pedagogik nazokati, tasavvuri, qobiliyati, tashkilotchiligi, notiqlik madaniyati, chuqur va keng ilmiy saviyasi, kasbiy layoqatliligi, ma‘naviy ehtiyoji va qiziqishi, intellekti, yangilikni anglay va qo‘llay olishi, kasbiy ma‘lumotni muntazam oshirishga nisbatan intilishi va boshqa fazilatlari kiradi.

O‘qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

- 1) O‘qituvchining shaxsiy fazilatlar bo‘yicha tayyorgarligi.
- 2) O‘qituvchining ruhiy – psixologik tayyorgarligi.
- 3) O‘qituvchining ijtimoiy – pedagogik va ilmiy – nazariy jihatdan tayyorgarligi.
- 4) O‘qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi.

Yana ta‘kidlash joizki, pedagogik mahorat o‘qituvchi – tarbiyachi shaxsiy va kasbiy sifatlarining yig‘indisi bo‘lib, o‘qituvchi mahoratini shakllantirishni ta‘minlovchi omillarni, pedagogik–psixologik, metodik bilimlarni doimiy egallab borishi lozim. YUksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta‘minlovchi **omillar** quyidagilar:

a) ixtisoslik bo‘yicha o‘quv predmetini, zamon, ilm–fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning boshqa o‘quv fanlari bilan o‘zaro aloqadorligini ta‘minlash malakasiga ega bo‘lishi;

b) ta‘lim oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi, ularning faoliyatini ob‘ektiv nazorat qilishi va baholashi;

v) ta‘lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida o‘z faoliyatini tashkil etishi;

g) o‘quv – tarbiyaviy jarayonni zamon talablari darajasida tashkil qilish uchun asosiy pedagogik– psixologik, metodik ma‘lumotga ega bo‘lishi;

d) fanlarni o‘qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanishni bilishi;

e) jamoani «ko‘ra bilish», ta‘lim oluvchilarning qiziqishlari, intilishlari, ular uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va hamdard bo‘la olish, o‘z vaqtida ular fikrini anglay bilish, zukkolik bilan har bir ta‘lim oluvchining xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini tushunish hamda ularga muvaffaqiyatli ta‘sir ko‘rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo‘lishi;

j) o‘z shaxsiy sifatleri (nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va hokazo) ni takomillashtirish malakasiga ega bo‘lishi.

O'qituvchining pedagogik mahorati kasbiy faoliyat davomida shakllanib boradi. YUksak saviyali pedagogik kadrlar tayyorlashga nisbatan talablar, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'z kasbi bilan uzluksiz taraqqiyotga moslasha oladigan o'qituvchining shakllanishi, bo'lajak o'qituvchi umummilliy mavqeining o'sib borishini ta'minlaydi.

15-mavzu: Kasb-xunar kolleji o'qituvchisining innovatsion faoliyati va xususiyatlari

Reja:

1. O'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi.
2. O'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish shartlari

Adabiyotlar:

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: 2006.
3. Amonashvili SH. A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsessa. Minsk.: 1990.
4. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – Namangan: NamMPI, 2004.
5. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisodmoliya, 2006.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 102 b.
7. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.
8. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.
9. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.
10. Faberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO'MMMI, 1999 y.

1. O'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

V.A.Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga **akmeologik** jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, etuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi.

B.G.Ananayev, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning samarasini oshirish bilan yo'g'rilgan inson hayotining eng ijodiy davrlari, etuklik bosqichlari to'g'risida fikr yuritadilar. Ular etuk insonlarning professionalizmi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlari, professionalizmga etishdagi balandliklardan o'ta olish masalalari bilan shug'ullanganlar.

V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan sub'ektiv va ob'ektiv omillarini asoslab berdi. Ob'ektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, sub'ektiv omillari esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi mas'uliyati, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi.

YUksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- iste'dod nishonalari;

- uquvlilik;
- qobiliyat;
- iste'dod;
- oila tarbiyasi sharoiti;
- o'quv yurti;
- o'z xatti-harakati.

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi.

Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- ijodiy individuallik;
- o'zining o'sish va takomillashish jarayoni;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.
- O'qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:
- intellektual - ijodiy tashabbus;
- bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliya ti;
- ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka

kurashchanlik qobiliyati;

• axborotlarga tashnalik, muammolardagi g'ayriodatiylikka va yangilikka bo'lgan histuyg'u, professionalizm, bilishga bo'lgan chanqoqlik (N.V.Vishnekova).

V.A.Slastenin ijodiy individualizmni ro'yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

- ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;
- pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;
- samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;
- shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi namoyon qila olishi asosida o'z

rivojlanishini ta'minlash.

SHu tariqa o'qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi. Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o'z-o'zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o'zini boshqalarga qiyos qilish asosida o'z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi; o'zi to'g'risidagi kreativ ko'rinishlar va tasavvurlari to'plami; individual kreativ o'ziga xosliklarning bir butunligi va uyg'unligi, ichki birligi; shaxsning o'z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o'zini namoyon qila olishi va o'zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o'zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'rnini anglay olishi (V.A.Slastenin).

Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o'qituvchining kasbiy mahorati cho'qqilariga erishuvda uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi **kreativlikdir**.

Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrining ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya).

O'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin:

Birinchi bosqichda tayyor metodik tavsifanomalar tuzukkina ko'chiriladi; ikkinchi bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi;

uchinchi bosqichda g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi; to'rtinchi bosqichda o'qitish va tarbiyalashning o'z betakror konsepsiyasi va metodikasi yaratiladi.

O'qituvchining innovatsiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiya.

Refleksiya o'qituvchining o'z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qila olish deb qaraladi (o'z fikri va harakatlariga tashqaridan nazar. V.A.Slastenin).

Pedagogikaga oid adabiyotlarda reflektiv jarayonlarni izohlashning ikki an'anasi mavjudligi aytiladi:

- ob'ektlar mohiyatini izohlashga va ularni konstruksiyalashga olib keladigan

- ongning reflektiv tahlili;

- shaxslararo muloqot ma'nosini tushunish refleksiya;

Bu bilan bog'liq ravishda pedagog olimlar quyidagi reflektiv jarayonlarni farqlaydilar:

- o'z-o'zini va boshqalarni tushunish;

- o'z-o'ziga va boshqalarga baho berish;

- o'z-o'zini va boshqalarni izohli tahlil qilish.

Refleksiya (lotincha Reflexio- ortga qaytish) sub'ektning o'z (ichki) psixik tuyg'u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi.

Falsafa va pedagogikaga oid adabiyotlarda refleksiya shaxsning o'z ongidagi o'zgarishlarni fikrlash jarayoni deb yoziladi.

Psixologik lug'atda shunday izoh beriladi: «Refleksiya - faqat sub'ektning o'z-o'zini bilishi va tushunishi emas, balki boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg'usi va bilish (kognitiv) tasavvurlarini bilish hamda tushunishini aniqlab olishini ham anglatadi.

2. O'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish shartlari

Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir. Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshishini ko'zda tutadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shartsharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir. Muloqotning yangi vaziyati - bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fan, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi.

Keyingi sharti - bu o'qituvchining madaniyat va muloqotga shayligi. O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini echishni aniqlashga qaratilganidir. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. Yangi munosabatlar an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyati bu o'qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;

- me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;

- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo‘lish;
- o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy
- faoliyatida mujassam qilish.

Demak, o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta‘lim taraqqiyoti sharoitida o‘qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo‘lgan zaruriyat quyidagilar bilan o‘lchanadi: ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta‘lim tizimi, metodologiya va o‘quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o‘qituvchining innovatsiya faoliyati

- pedagogik yangiliklarni yaratish, o‘zlashtirish va foydalanishdan iborat bo‘ladi;
- ta‘lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o‘qitishning yangi tashkiliy
- shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;
- pedagogik yangilikni o‘zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o‘qituvchining
- munosabati xarakteri o‘zgarishi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me‘yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me‘yorlarga - yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo‘llash imkoniyatlari kiradi

Yangilik pedagogik yangilik me‘yori sifatida o‘zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo‘llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko‘ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, sub‘ektiv darajalarini farqlaydilar.

Maqbullik me‘yori o‘qituvchi va talabaning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi. Natijalilik o‘qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi.

Pedagogik yangilik o‘z mohiyatiga ko‘ra ommaviy tajribalar mulki bo‘lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o‘qituvchilarning faoliyatiga olib kiriladi.

Keyingi bosqichda - sinalgandan va ob‘ektiv baho olgandan so‘ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati o‘z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi. V.A.Slastenin tadqiqotlarida o‘qituvchining innovatsion faoliyatga bo‘lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi xislatlar taalluqli:

- shaxsning ijodiy-motivatsion yo‘nalganligi. Bu - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; o‘z kamolotiga intilish va boshqalar;
 - kreativlik. Bu – hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi bo‘lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o‘zicha mushohada yuritish, refleksiya;
 - kasbiy faoliyatni baholash. Bu - ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik konsepsiyasi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o‘zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar; o‘qituvchining individual qobiliyati.
- Bu - ijodiy faoliyat sur‘ati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qat‘iyatlik, o‘ziga ishonch; mas‘uliyatlilik, halollik, haqiqatgo‘ylik, o‘zini tuta bilish va boshqalar.

Innovatsion faoliyat tadqiqotlari o‘qituvchining innovatsion faoliyatga hozirligi me‘yorlarini belgilashga imkon berdi (V.A. Slastenin):

- innovatsion faoliyatga bo‘lgan zaruriyatni anglash;

- ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga shaylik;
- shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;
- ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni engishga shaylik;
- innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi;
- innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka ta'siri;
- kasbiy refleksiya bo'lgan qobiliyat.

Nazorat savollari:

1. Ta'limda «innovatsion jarayonlar» termini nimani anglatadi?
2. Innovatsion faoliyatdagi akmeologik yondashuvga izoh bering.
3. Innovatsion faoliyatdagi «kreativlik» deganda siz nimani tushunasiz?
4. Innovatsion faoliyat tarkibidagi «refleksiya»ni tushuntirib bering.
5. Innovatsion faoliyatni shakllantirish shartlarini izohlab bering.

16-mavzu: Pedagogik mehnatining tashkil etishning ilmiy asoslari

Reja:

1. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish mohiyati.
2. O'qituvchining kun tartibi va ish o'rimi.
3. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish tamoyillari.
4. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishning asosiy yo'nalishlari

Adabiyotlar:

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: 2006.
3. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. – T.: O'qituvchi, 1997.
4. Ochilov M. Muallim qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2000.
5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. –T., 2010.

1. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning mohiyati

Pedagogik mehnat – mehnat turlaridan biri bo'lib, unda o'qituvchi va ta'lim oluvchilar, moddiy va ma'naviy vositalar, mehnat shart-sharoitlari faol o'zaro harakatda bo'ladi. Qachonki, pedagogik faoliyat fan va amaliyotning zamonaviy yutuqlariga, mehnat jarayonini har tomonlama metodologik tahlil etish, barcha omillardan majmuaviy foydalanishga asoslansa, u holda uni ilmiy tashkil etilgan mehnat deb atash mumkin. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishga pedagogikaning alohida sohasi sifatida qaraladi.

O'qituvchi mehnatining muvaffaqiyati va samarasi uni ilmiy jihatdan puxta tashkil etishga, mehnatni oqilona uyushtirishga ta'sir etadigan shart – sharoitlarga va mehnatni amalga oshirish yo'llarini to'g'ri belgilashga bog'liq. O'qituvchi mehnati doimo ijodkorlik bilan amalga oshiriladi. SHuning uchun mehnatni amalga oshiruvchi o'qituvchi avvalo o'z mehnatini rejalashtirishda, o'zi puxta egallagan pedagogik mahoratiga va o'z ilmiga tayanishi lozim. Hozirgi zamon axborot kommunikatsion texnologiyalarining taraqqiyoti davrida o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish fan va texnika yutuqlarini o'qituvchi tomonidan qay darajada o'zlashtirilishiga ham bog'liq.

SHu bilan birga o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish uchun fanlar integratsiyasini, pedagogika va psixologiya fanlarining eng so'nggi yutuqlarini muntazam o'zlashtirib borish shart. Ushbu bilimlar axborot kommunikatsion texnologiyalari, matbuot, ilmiy jurnallar, ilmiy adabiyotlar asosida o'zlashtiriladi.

O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda vaqtdan unumli foydalanish, o'zining keng imkoniyatlarini hamisha hisobga olish, o'quv va tarbiya jarayonida har bir daqiqadan

unumli foydalanish, vaqtni bekorga o'tkazishga yo'l qo'ymaslik muvaffaqiyat garovidir. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda avvalo:

- o'z ijodiy imkoniyatlariga ishonishi;
- ta'lim muassasalarida olib boriladigan ta'lim – tarbiya jarayonini to'liq tasavvur eta olishi;
- har bir tarbiyalanuvchining ruhiy holatini puxta bilishi;
- o'z mehnati mexanizmini, qonuniyatlarini, cheklangan imkoniyatlarini yaxshi anglashi;
- ta'lim-tarbiya jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan unumli foydalanishni bilishi shart.

O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etish bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy–foydali mehnat bo'lib, u yuqorida ta'kidlab o'tilganlardan tashqari, aql va diqqatni, jismoniy kuchni, shijoat va g'ayratni talab etadi.

O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ularni mustaqil, erkin faoliyat ko'rsatishiga, o'z fikr–mulohazalarini aniq va mukammal bildirishiga, har tamonlama shakllangan komil insonni tarbiyalashga, o'z kasbini puxta o'zlashtiradigan etuk mutaxassis tayyorlashga zamin yaratadi.

2. O'qituvchining kun tartibi va ish o'rni

Pedagogik mehnatni ilmiy asosda to'g'ri tashkil etishda o'qituvchining kun tartibi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'zi uchun eng optimal bo'lgan va yuqori samara beradigan kun tartibini tanlay olishi lozim.

Ta'kidlash joizki, *o'qituvchining kun tartibi* uning faoliyati va hayotini tartibga soluvchi asosdir. U yo'q joyda mehnat unumi ham past bo'ladi, asablar tez charchaydi, sog'likka putur etadi. Natijada o'qituvchi sarf qilgan kuchini qayta tiklay olmaydi, mehnat unumdorligi pasayadi, ish qobiliyati susayadi, oqibatda ta'lim-tarbiyaning sifati yo'qoladi. Demak, ilmiy asoslangan kun tartibi o'qituvchilarning o'z mehnatini to'g'ri va mukammal tashkil etish vazifasini hal etishga qo'yilgan ilk qadamdir desak mubolag'a bo'lmaydi. Pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etish shartlaridan yana biri ish o'rnini tartibga solish va mehnat sharoitini o'z faoliyatiga moslashtirishdir. O'qituvchining ish joyi yashash jarayonining bir qismi bo'lib, mehnat unumdorligining yuqori bo'lishiga ta'sir etadi. O'qituvchining ish joyi, xususiyati, pedagogik mehnatning mazmuni va xususiyati bilan belgilanadi.

Mehnat sharoiti, kun tartibi kompleks tushuncha. Unda o'qituvchining mehnat qilayotgan joyi, aniq vaziyatlar e'tiborga olinib quyidagi *tamoyillar* asosida takomillashtirilib boriladi.

Pedagogik mehnatning samaradorligi, maqsadi va faoliyat vazifasiga ko'ra aniq bir yo'nalishni belgilash o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning birinchi tamoyilidir.

Ikkinchi tamoyil mutaxassislikka oid bilimlarni chuqur o'zlashtirib qizg'in pedagogik faoliyat uslubini belgilash.

Uchinchi tamoyil pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etishda axborot va kompyuter texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanishni mukammal bilish tushuniladi. Bunda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik texnologiyalar ham e'tiborga olinadi.

To'rtinchi tamoyil ta'lim-tarbiya birligini ta'minlagan holda pedagogik faoliyatni rejalashtirish. Ushbu tamoyil reja asosida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tartibga solish, uning modelini yaratish, tayanch tizimlarni topish kabi masalalardan tashkil topgan.

Pedagogik faoliyatni aniq maqsadlar asosida rejalashtirmasdan turib shaxsni va jamoani tarbiyalash va ularni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash mumkin emas, bu esa jamiyatga ham ijtimoiy, ham iqtisodiy zarar keltiradi. Pedagogik mehnatni nazorat qilish va hisobga olish o'qituvchi faoliyatini muntazam kuzatib borish yutuq va kamchiliklarini aniqlash, muhimlarini ajratib olishni nazarda tutadi. Hisobga olishning eng maqbul yo'li statistik hisobga olishdir. Pedagogik nazoratda obektivlik, omilkorlik, samaradorlik, muntazamlilik va oshkoralik talab qiladi.

3. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish tamoyillari

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish qonunlariga quyidagilar kiradi:

- 1) vaqtni maksimal ravishda tejash va undan samarali foydalanish;
- 2) ijobiy mehnat sharoitlari va dam olishni tashkil etish hamda samarali foydalanish;
- 3) mehnat jarayoni barcha ishtirokchilarining salomatligi va har tomonlama rivojlanishi

haqida qayg'urish.

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish tamoyillari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- 1) optimallashtirish – ta'lim oluvchilarning o'quv-tarbiya ishlari uchun ijobiy shart-sharoitlarni yaratish;
- 2) insonparvarlik tamoyili – pedagog va ta'lim oluvchilarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi hodisalarni bartaraf etish;
- 3) estetizatsiyalash tamoyili – ishchanlik qobiliyatini oshiruvchi badiiy unsurlarni kiritish;
- 4) tejamkorlik – o'quv mashg'ulotlarini oqilona tashkil etish;
- 5) individuallashtirish tamoyili – ta'lim oluvchilarga tabaqalashtirilgan tarzda yondashuv;
- 6) jamoaviylik tamoyili – alohida xodim va pedagogik jamo mehnatini uyg'unlashtirish;
- 7) nazariy va amaliy ta'limni optimal uyg'unlashtirish tamoyili – qisqa muddatda ta'lim oluvchilarning chuqur va mustahkam bilim olishlarini ta'minlash;
- 8) kadrlarni oqilona tanlash, ularning malakasini tizimli tarzda oshirib borish tamoyili;
- 9) pedagogik fanlar rivojini hisobga olgan holda o'quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tizimli yo'lga qo'yish.

4. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishning asosiy yo'nalishlari

O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ularni mustaqil, erkin faoliyat ko'rsatishiga, o'z fikr–mulohazalarini aniq va mukammal bildirishiga, har tamonlama shakllangan komil insonni tarbiyalashga, o'z kasbini puxta o'zlashtiradigan etuk mutaxassis tayyorlashga zamin yaratadi.

O'qituvchi mehnati ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishida o'quvchilar bilan olib borilayotgan faoliyatning quyidagi yo'nalishlariga e'tibor berish lozim:

- o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning ikki tomonlama bir-biriga ta'siri natijalari;
- o'qituvchining ta'lim oluvchilar jamoasi bilan ishlay olish qobiliyati;
- guruh jamoasi faollari bilan olib boriladigan pedagogik faoliyatning ijobiy natijalari.

O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etishning quyidagi vositalarga e'tibor berish lozim.

O'qituvchi mehnatining ta'lim-tarbiyaviy mohiyati ijobiy natijalar berishi uchun, o'qituvchi guruh jamoasi bilan o'tkazilayotgan har qanday tadbirni belgilangan vaqtda amalga oshirishi, mehnat va dam olish uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalana olishi, o'z mehnati faoliyatida sog'ligiga, ruhiy holatiga e'tibor berishi lozim.

Ayniqsa, yosh o'qituvchilar mehnatini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etishda quyidagi boshlang'ich yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega:

1 – yo'nalish. O'qituvchi kasbiga oid faoliyat:

- a) o'z ishiga, mutaxassisligiga oid bilimlarni mukammal egallash;
- b) mamlakatimiz Qonunlari, ta'lim sohasiga taalluqli hujjatlarni puxta bilishi;
- v) pedagogika, psixologiya va o'z mutaxassisligiga oid eng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lib borish;
- g) ta'lim oluvchilar jamoasi va har bir shaxs haqida ma'lumotlarni o'rganish;
- d) ilg'or va tajribali o'qituvchilar mehnat faoliyatini o'rganish va o'z ishida tadbqiq etish;
- e) o'z ustida ishlash va o'z-o'zini tarbiyalash.

2-yo'nalish. O'z kasbiy mahorat elementlarini hosil qilish:

- a) pedagogik faoliyatga oid, shaxsiy pedagogik mahoratni takomillashtiruvchi ko'nikma va malakalarni egallash;

b) o'z mehnatini va qobiliyatini me'yorida to'g'ri ishlata olishi;
v) mutaxassislikka oid ma'lumotlardan to'g'ri foydalana olishi uchun diqqatni jamlay bilish.

3-yo'nalish. O'quvchilar guruhi bilan ishlay olish:

a) pedagogik faoliyatning shart-sharoitlari va guruh jamoasidagi ma'naviy holatni boshqara olish;

b) guruh jamoasidagi psixologik muhitni doimiy nazorat qilish;

v) ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga ijodiy yondashuv;

g) pedagogik faoliyatga insonparvarlik va demokratik prinsiplar asosida yondashish;

d) ta'lim oluvchilar xulqi va bilimini o'z vaqtida rag'batlantirib borish;

e) jamoada shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilishni to'g'ri tashkil etish;

j) ta'lim oluvchilarning kundalik rejimga to'g'ri va doimiy rioya qilishini tashkil etish.

Tekshirish va o'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish nima?

2. O'qituvchining kun tartibini ochib bsring.

3. Mehiatni nlmiy tashkil etish tamoyillarini sanab o'ting?

Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishning yo'nalishlari qanday

II-Amaliy mashg'ulot

1-mavzu: "TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI.

Reja

1. Ta'lim texnologiyasi xaqida tushuncha
2. Ta'lim texnologiyalarining maqsad va vazifasi.

Tayanch so'z va iboralar:

Texnologiya, ta'lim texnologiyasi, pedagogik texnologiya, pedagogik texnologiyaga yunesko bergan taa'rif, jahon va o'zbekiston olimlarining bergan taa'riflari, bixeviorizm, pedagogik texnologiya xususiyatlari, reproduktiv ta'lim, xotira maktabi .

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

24. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2017.
25. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni// "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" kitobida. – T.: Sharq, 1997. – B. 20-29.
26. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"// "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" kitobida. – T.: SHarq, 1997. – b.31-61.
27. "O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'z-bekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil, 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda.
28. "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20-avgustdagi 242-son qarori// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 33-son, 442-modda, 52-son, 646-modda; 2017 y., 9-son, 129-modda, 19-son, 345-modda; Qonun hujjatlari ma'lumot-lari milliy bazasi, 14.02.2018 y., 09/18/107/0697-son, 01.06.2018 y., 09/18/400/1289-son)
29. "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil, 20 apreldagi PQ-2909-son qarori// Xalq so'zi» gazetasining 2017 yil 21-apreldagi 79 (6773)-soni.
30. "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22-maydagi 304-sonli qarori //Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 21-son, 396-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017 y., 09/17/898/0234-son, 15.02.2018 y., 09/18/109/0699-son
31. "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25-yanvardagi PF-5313 Farmoni//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018 y., 06/18/5313/0618-son.

32. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
33. Azizxo'jaeva N.N. Yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T., 2000 y.
34. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – Namangan: NamMPI, 2004.
35. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisod-moliya, 2006.
36. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 102 b.
37. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.
38. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. /Учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров. - М.: Издатский центр "Академия", 2000 y.
39. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.
40. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tabiiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.
41. Faberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO'MMMI, 1999 y.
42. Faberman B.L., Musina R.G., Jumabaeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. – T.: OO'MMMI, 2002 y.

Qo'shimcha adabiyotlar:

43. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse.- M.: "Znanie" 1989.
44. Guzeev V.V. Leksii po pedagogicheskoy texnologii. - M.: Znanie, 1992. Zyazyun YU.V. Osnovy pedagogicheskogo masterstva. – M., 1988.
45. Podlasyy I.P. Pedagogika. Novyy kurs v 2-x kn. – M.: Vlados, 1999.
46. Bepalko V.P. Slagayemye pedagogicheskoy texnologii. – M.: "Pedagogika", 1989.

1-TOPSHIRIQ TESTlarni javobini yeching va konspektlashtiring.

1. "Texnologiya" fani ham qadimgi Yunonistonda paydo bo'ldi va u ikkita so'z – "texne" - san'at va "logos" - o'rganish – degan ma'noni anglatadi. Ushbu davrda, bu hu-narmandning predmetni tayyorlash san'atiga, ustoz rahbarligi ostida (mashqlar tufayli) o'zining tirishqoqligi va tabiiy iqtidori orqali erishishini anglatar edi.

- A) AQSHda ikkita so'z – «texne» - san'at va «logos» - o'rganish
 B) Rossiyada ikkita so'z – «texne» - san'at va «logos» - o'rganish
 S) Yunonistonda, ikkita so'z – «texne» - san'at va «logos» - o'rganish
 D) Yunonistonda, ikkita so'z – «texne» - mahorat va «logos» - o'rganish

2. "Texnologiya" ning fan sifatida vujudga kelishiga nechanchi asrga to'g'ri keladi?

A) XVII- asr

B) XV -asr

S) XVIII-asr

D) XIV-asr

3. Texnologiya so'zining mazmuni va mohiyati?

A) Texnik vositalardan foydalana olish

B) Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan bohabarlik

S) Vaqtni rejalashtirish mahorati

D) Ma'lum ishni bajarish san'ati tushuniladi.

4. Pedagogik texnologiyalar yoki ta'limni texnologiyalashtirish yangilik emas, balki 300 yillar oldin ta'limni texnologiyalashtirishning asosiy yondoshuvlari shakllangan edi:

(1) ta'lim maqsadini aniqlashtirish; (2) muhim yangiliklarni joriy etish (3) bu maqsadlarga erishishning optimal (oson) yo'l va vositalarini tanlash; (4) Pedagogik mazmunga ega qoidalarni shakllantirish; (5) quyilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan ta'lim modelini loyihalashtirishdir; (6) pedagogik voqealik bilan hamohanglik.

A) 1,2,4

B) 1,3,6

S) 2,3,5

D) 1,3,5

5. Yan Amos Komenskiy fikricha ta'limning shunday umumiy tartibini ya'ni qanday inson tabiatining umumiy qonuniyatlari bo'yicha amalga oshirilishi, deb taxmin qiladi?

A. "insonning tabiat bilan uyg'unlik"

B. "xamma narsa aniq va ravshan rivojlanib borishi"

S. "ta'limning madaniyat bilan uyg'unligi"

D. "ta'limda onglilik"

6. Ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasi ilk marotaba nechanchi yilda amalga oshirildi?

A. XX – asrning 30-yillarida Evropa va AQSHda paydo bo'ldi.

B. XX-asrning 40- yillarida Evropa va AQSHda paydo bo'ldi.

C. XX-asrning 30-yillarida Rossiya va AQSHda paydo bo'ldi

D. XX – asrning 50-yillarida Hitoy va Evropa da paydo bo'ldi.

7. 70-yillardan Yapon olimi T. Sakamoto tomonidan "O'qitish texnologiyasiga qanday ta'rif berildi?

A) o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkillashga imkon beruvchi usul, vositalar yig'indisi, deb ta'rif berildi.

B) «pedagogik texnologiya» atamasining ta'rifi ta'lim jarayonini dasturlash asosida tashkillanishi degan g'oyaga asoslandi.

S. - bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi ekanligi e'tirof etiladi.

D. Bu ta'lim jarayoniga ko'rgazmalar, laboratoriya mashg'ulotlari uchun yangi uskunalar olib kirishni anglatadi.

8. O'qitish texnologiyasi ta'rifi aniq ko'rsatilgan qatorni belgilang?

A) bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqcadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqcadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

B) bu-o'quv mashg'ulotining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtirish, har bosqichda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarini oqilona tanlab olish, professor-o'qituvchi va o'quvchining vazifalarini oydinlashtirish qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.

S) bu- tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

D) bu- proq insonlarga bilim berishga, axborot bankini kengaytirishga, axborot uzatishni osonlashtirishga, ta'limni individuallashtirishga, o'quvchilarning bilimi darajasini samarali tashkillashga sharoit yaratib berar edi.

9. Pedagogik texnologiya o'z navbatida asosiy qanday jarayonlarni o'z ichiga oladi.

A) aniq maqsad orqali ta'lim berish

B) rejalashtirish va loyihalashtirish

S) texnika va ta'lim

D) o'qitish va tarbiya texnologiyalari

10. Pedagogik texnologiyaning ob'ekti to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang?

A) – ommaviy ta'lim sharoitida ta'lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta'minlash va talabalar tomonidan o'qishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir.

B) – o'quv jarayonining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

S) – o'quv jarayonining o'zi hisoblanadi.

D) ommaviy ta'lim sharoitida pedagoglarga o'qitishning etarli samarasiga erishishni ta'minlovchi, o'quv jarayonini yaratish hisoblanadi.

JADVALNI TO'LDIRING

“Texnologiya” so'zining mazmuni va mohiyati	“Pedagogik texnologiya”ning ta'rifi	“Pt” shakllanish tarixi	“O'qitish Texnologiyasi”.	“Tarbiya texnologiyasi”	“Pedagogik texnologiya”	“Ta'lim texnologiyasi”ning maqsadi	“Tt” OBE KTI	“Tt” PRE DM ETI	“Tt” VA ZIF ASI
---	-------------------------------------	-------------------------	---------------------------	-------------------------	-------------------------	------------------------------------	--------------	-----------------	-----------------

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

3-topshiriq: Nazorat uchun savollar:

5. “Texnologiya” tushunchasini qanday izohlaysiz?
6. Ta’lim texnologiyasi deb nimaga aytiladi?
7. Ta’lim texnologiyasining maqsadi nima?
8. Ta’lim texnologiyasining vazifalari nimalardan iborat?

Kasb ta’lim yo’nalishi 5-kurs talabalarini baholash mezonlari:

Mavzuni tavsiya etilgan adabiyotlar asosida o’zlashtirganlikni 3-5minutlik video orqali namoyon etish-**25ball;**

Test yechish- **35-ball;**

Jadvalni to’ldirish-**1-30ball;**

O’z vaqtida yuborish-**10ball.**

2-mavzu: Ta’lim texnologiyasi fanining ilmiy-nazariy asoslari

Reja:

1. Ta’lim berishni texnologiyalashtirish tushunchasi
2. Pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslangan ta’rifi.
3. Pedagogik texnologiya tamoyillari

Adabiyotlar:

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o’qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo’jaeva N.N. Yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T., 2000 y.
3. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O’quv qo’llanma. – Namangan: NamMPI,2004.
4. Voinova M.G. Pedagogicheskie tehnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisod-moliya, 2006.
5. Yo’ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O’qituvchi, 2004. – 102 b.

6. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.

7. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. /Учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров. - М.: Издателский центр "Академия", 2000 y.

8. Руководство по развитию критического мышления. Методическое пособие. – Т., 2002 г.

9. Tolipov O'Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tabiiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.

10. Faberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO'MMMI, 1999 y.

1-topshiriq.Chalkashtirilgan tushunchalarni mazmuni asosida joylashtiring

6. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 102 b.


7. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.

8. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.

9. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tabiiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.

10. Faberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO'MMMI, 1999 y.

1-topshiriq: **Ushbu jadvalni to'ldiring!**



2-topshiriq:“SWOT – TAHLIL” metodi

An’anaviy va zamonaviy metodlarning kuchli va kuchsiz tomonlari, ichki imkoniyatlari hamda to‘sqinlik qiluvchi tashqi xavflarini ushbu jadvalga tushiring.

S	Kuchli tomoni	
W	Kuchsiz tomoni	
O	Imkoniyatlari	
T	Xavflar (risklar)	

3-topshiriq:Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Pedagogik texnologiya» iborasining ta’rifini tushuntirib bering.
2. «Pedagogik texnologiya» fanining maqsad va vazifalarini tushuntirib bering.
3. «Pedagogik texnologiya»ning blok-sxemasini tushuntirib bering.
4. Pedagogik texnologiyaning farqli xususiyatlari va afzalliklarini tushuntirib bering.
5. Pedagogik-texnologik xaritaning ahamiyati nimada?
6. Pedagogik texnologiya qanday elementlardan iborat?
7. O‘quv jarayonini samaradorligini boshqarishda qanday munosabatlar o‘rnatiladi?
8. Pedagogik texnologiyani amalga oshirishda qanday vositalar, metodlarni qo‘llash orqali ta’minlanadi?
9. Pedagogik texnologiyaning farqli xususiyatlari va afzalliklari nimalardan iborat?

Talabalarni baholash mezonlari:

- 1) Jadvalni va topshiriqlarni to‘ldirish –0-60 ball
- 2)Mavzuning to‘liq tavsilotini video-rolik orqali namoyish eting-40

Jami: 100 ball

13-mavzu: KASB TA'LIMI O'QITUVCHISIGA QO'YILADIGAN TALABLAR


Reja:

4. Jamiyatda o'qituvchining tugan o'rni va vazifalari
5. O'qituvchiga qo'yiladigan talablar
6. O'qituvchining kasbiga xos xislatlari

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: 2006.
3. Amonashvili SH. A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsessa. Minsk.: 1990.
4. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – Namangan: NamMPI,2004.
5. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisod-moliya, 2006.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 102 b.
7. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.
8. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.
9. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.
10. Faberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO'MMMI, 1999 y.

1-topshiriq:

Ushbu “Qanday?” deb nomlangan metodni to'ldiring!



2-topshiriq: Chalkashtirilgan tushunchalarni o'z qatoriga joylashtiring!

№	Chalkashtirilgan tushunchalarni o'z qatoriga joylashtiring!	O'qituvchiga qo'yiladigan talablar	O'qituvchi ning kasbiga xos xislatlari
1	-ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;		
2	- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalash, o'quvchilarni mustakillik foyadalariga sodiklik ruxida tarbiyalash, o'z Vatani, tabiat va oilasiga bulgan muxabbatni shakllantirish;		
3	-yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigienasidan chuqur biilimlarga ega bo'lishi;		
4	-o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;		
5	-keng bilimga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;		
6	-ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;		
7	- o'quvchilarni turli soxaga oid boshlang'ich bilimlardan xabardor kilish;		
8	-bolalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi;		
9	- o'zi dars berayotgan fan bo'yicha etuk mutaxassis bo'lish;		
10	-o'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqatli, bardam, matonatlilikidir.		

11	- ta'lim va tarbiya metodikasini egallash;		
12	-olijanoblighi, aqli, farosati, ma'anaviy pokligi, ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarni bolalarga singdirib borishi;		
13	- o'z bilimi va pedagogik maxoratini doimiy ravishda oshirib borish.		
14	-o'qituvchining o'z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevish, ularni inslnparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o'z yurti, ona tili, o'z halqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatining mustaqilligi g'oyasida yashashidan ibratdir;		
15	-shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomonidan tabiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vatani tabiatiga va oilasiga bo'lgan muhabbati;		

1) Jadvalni va topshiriqlarni to'ldirish –0-60 ball

2)Mavzuning to'liq tavsilotini video-rolik orqali namoyish eting-40

Jami: 100 ball.

14-mavzu: O'QITUVCHINING FAOLIYATI VA PELDAGOGIK MAHORATI

Reja:

1. Pedagogik faoliyatning tuzilishi va turlari.

2. O'qituvchining pedagogik mahorati

Adabiyotlar:

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.

2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: 2006.

3. Amonashvili SH. A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsessa. Minsk.: 1990.
4. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – Namangan: NamMPI,2004.
5. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisod-moliya, 2006.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 102 b.
7. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.
8. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.
9. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.
10. Faberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO'MMMI, 1999 y.

1-topshiriq: Pedagogik qobiliyat va uning tuzilishiga doir fikrlar muallifini toping!

Olim o'qituvchi shaxsi 6 ta kasbiy-tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlaydi: 1) yuksak saviyadagi bilim va madaniyat; 2) yo'nalishning aniq ifodalanganligi; 3) yuksak axloqiy hislarning mavjudligi; 4) yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik; 5) qat'iy va silliq xarakter; 6) pedagogik qobiliyatlar.

Olim pedagogik qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi: 1) didaktik qobiliyatlar; 2) akademik qobiliyatlar; 3) pertseptiv qobiliyatlar; 4) nutq qobiliyatlari;

5) tashkilotchilik qobiliyati; 6) avtoritar qobiliyatlar; 7) kommunikativ qobiliyatlar; 8) pedagogik xayolot; 9) diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

2-topshiriq: Qobilyat turlariga ta'rif bering!

1. Didaktik qobiliyat –
2. Akademik qobiliyat –
3. Pertseptiv qobiliyat –
4. Nutqiy qobiliyat –
5. Tashkilotchilik qobiliyati –
6. Obro`ga ega bo`lishlik qobiliyati -
7. Kommunikativ qobiliyatlar –
8. Psixologik tashxis (diagnoz)ga doir qobiliyatlar –
9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati –
10. Konstruktiv qobiliyat –
11. Gnostik qobiliyat –

3-topshiriq: Mahoratni shakllantirishda qanday omillar to'sqinlik qiladi?

S – simptom (muammo simptomi);

C – cause (muammoning kelib chiqish sababi);

O – outcome (muammo echimidan kutiladigan natija);

R - resources (Qaerda? Qachon? Nima? Qanday? Savollarga javob topish orqali muammo echimi manbalari);

E – effect (muammo echimini topish, maqsad sari yo'naltirilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish orqali yuqori samaradorlikka erishish)

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Pedagogik faoliyat tushunchasini ta'riflang!

2. Pedagogik jarayonning mohiyatini anglashning muhim tomonlari ko'rsatib bering!

3. Pedagogik jarayonning asosiy vazifasi nimadan iborat?

4. Pedagogik jarayonni samaradorligini oshirishga ma'sul shaxslar hamkorligining muhim jihatlari?

5. Ta'lim jarayonida pedagog tomonidan olib boriladigan tarbiyaviy ishning – bu tarbiyaning tizimliliigi, to'alaligi, uzviyligi va uzluksizligi?

6. Tarbiyaviy ishlar asosida asosiy yondashuvlar?

7. Pedagog olimi N.V.Kuzminaning pedagogik faoliyatni qanday qismlarga ajratib ko'rsatadi?

8. Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi va jamiyatga bevosita aloqasi?

9. Pedagogik maqsadning o'ziga xos jihatlarni ko'rsatib bering?

10. Sharq olimlarining pedagogik faoliyatini olib borishiga nisbatan fikr va mulohazalari?

11. Pedagogik mahoratning asosiy to'rt komponenti?

12. O'qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda qanday yo'nalishlarda olib boriladi?

13. Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta'minlovchi omillarni ayting?

Javoblarni konspekt daftaringizga aniq va qisqa tarzda bayon eting!

Talabalarni baholash mezonlar:

1) Savollar va topshiriqlarni to'ldirish –0-60 ball

2) Mavzuning to'liq tavsilotini video-rolik orqali namoyish eting-40

Jami: 100 ball.

15-mavzu: Kasb-xunar kolleji o'qituvchisining innovatsion faoliyati va xususiyatlari

Reja:

1. O'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi.
2. O'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish shartlari

Adabiyotlar:

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: 2006.
3. Amonashvili SH. A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsessa. Minsk.: 1990.
4. Ishmatov Q. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – Namangan: NamMPI, 2004.
5. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. T.: Iqtisod-moliya, 2006.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 102 b.
7. Golish L. V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001 y.
8. Rukovodstvo po razvitiyu kriticheskogo myshleniya. Metodicheskoe posobie. – T., 2002 g.
9. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006 y.
10. Faberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: OO'MMMI, 1999 y.


1-topshiriq: O'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasiga oid jadvalni to'ldiring

V.A.Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda quyidagilarni muhim deb hisoblaydi, ushbu tushunchalarga tegishli so'zlarni o'z qatoriga joylashtiring				
№	Yuksak professionalizmga erishishning omillari	Ijodiy individualizmni	Reflektiv jarayonlarni izohlash	o'qituvchining innovatsion faoliyatga hozirligi me'yorlari
1-namuna	15	16	11	1
2				
3				
4				
5				

Shalkashti rilgan so'zlar	1-innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash; 2-ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga shaylik; 3-ongning reflektiv tahlili, 4-pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish; 5-shaxslararo muloqot ma'nosini tushunish refleksiyasi; 6-shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish; 7-ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni engishga shaylik; 8-innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi; 9-innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka ta'siri; 10-kasbiy refleksiyaga bo'lgan qobiliyat; 11-ob'ektlar mohiyatini izohlashga va ularni konstruksiyalashga olib keladigan, 12- o'z-o'zini va boshqalarni tushunish; 13-o'z-o'ziga va boshqalarga baho berish; 14-o'z-o'zini va boshqalarni izohli tahlil qilish; 15-iste'dod nishonalari; 16-ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish; 17-samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish; 18-shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi namoyon qila olishi asosida o'z rivojlanishini ta'minlash; 19-uquvlilik; qobiliyat; iste'dod; oila tarbiyasi sharoiti; 20-o'quv yurti; 21-o'z xatti-harakati;
---------------------------------	--

FIKRLASH UCHUN SAVOLLAR?

2-topshiriq:



3-topshiriq:

Ushbu tushunchalarni tushuntirib bering. Innovatsiya, innovatsion texnologiyalar, ta'lim shakli, ilmiy dunyoqarash, hamkorlikdagi faoliyati, o'quv imkoniyatlari, innovatsion faoliyat pedagogning innovatsion faoliyat, ijodiy faoliyat, innovatsiya belgilari, axborotlar fondi.

4-topshiriq:

Mustaqil topshiriq uchun “T- chizma”

Innovatsiya

Novatsiya

Talabalarni baholash tartibi:

1-mavzuga oid topshiriqlarni bajarilishi uchun-0-60

2-o'z vaqtida topshirish (mobillik)- 10

3-mavzuning to'liq tavsilotini video-rolik orqali namoyish eting-15-30

Jami: 100 ball.

16-mavzu: Pedagogik mehnatining tashkil etishning ilmiy asoslari

Reja:

5. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish mohiyati.
6. O'qituvchining kun tartibi va ish o'rni.
7. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish tamoyillari.
8. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishning asosiy yo'nalishlari

Adabiyotlar:

1. Avliyaqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T.: Muallif. 2001 y.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – T.: 2006.
3. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. – T.: O'qituvchi, 1997.
4. Ochilov M. Muallim qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2000.
5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. –T., 2010.

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish tamoyillari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

1-topshiriq:

IKKI QISMLI KUNDALIK

Tushuncha	Tushunchalar mazmunini yoriting
Pedagogik mehnat	
O'qituvchining kun tartibi	
optimallashtirish	
insonparvarlik tamoyili	
estetizatsiyalash tamoyili	
tejamkorlik	
individuallashtirish tamoyili	
jamoaviylik tamoyili	
nazariy va amaliy ta'limni optimal uyg'unlashtirish tamoyili	

2-topshiriq:

Yosh o'qituvchilar mehnatini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etishda boshlang'ich yo'nalishlarni tartibi bilan yoriting hamda shaxsan o'zingiz pedagogik faoliyatga tayyorlik darajangizni qayd eting!

Talabalarni baholash tartibi:

1-mavzuga oid topshiriqlarni bajarilishi uchun-0-60

2-o'z vaqtida topshirish (mobillik)- 10

3-mavzuning to'liq tavsilotini video-rolik orqali namoyish eting-15-30

Jami: 100 ball.

VI. GLOSSARIY

- “Ajurli arra” strategiyasi** (fr. “ajour” – bir yoqdan ikkinchi yoqqa o‘tgan, ikki tomoni ochiq) – yaxlit mavzuni bir nechta qismlarga ajratgan holda mazmunini yoritish asosida talabalarning uni puxta o‘zlashtirishi, o‘z bilimlarini boshqalarga etkazib berish layoqatiga ega bo‘lishi ta‘minlovchi strategiya
- Aralash model** – masofaviy ta‘limning turli shakllari, bir necha shakllarning integra-siyasiga asoslangan model.
- “Assesment” texnologiyasi** (ingl. “assessment” – “baho”, “baholash”) – ta‘lim oluvchilar-ning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta‘minlovchi topshiriqlar to‘plami
- Axborotli loyihalar** – o‘quv jarayonini tashkil etish yoki boshqa ta‘limiy xarakterga ega buyurtmalarni bajarish maqsadida nazariy axborotlarni yig‘ishga yo‘naltirilgan loyihalar
- “Blits-so‘rov” metodi** (ing. “blits” – tezkor, bir zumda) berilgan savollarga qisqa, aniq va lo‘nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod
- Dars ishlanmasi** – ta‘limiy mazmunga ega loyiha hamda o‘qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo‘lgan hujjat
- Dasturiy ta‘lim** – 1) o‘qitishning o‘quvchi, talabalar ehtiyoji, qiziqishi, bilimi, dunyo-qarashi, ular tomonidan o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda duch kelish ehtimoli bo‘lgan muammolar, o‘quv fanining imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladigan ta‘lim; 2) pedagogik texnologiyalaridan biri
- “Debat” metodi** (fr. “debattre”, “debats” – “bahslashmoq”) – yig‘ilish, majlis yoki mashg‘ulotlarda biror-bir mavzu yuzasidan ishtirokchilar o‘rtasida o‘zaro bahs uyushtirish, ularning o‘zaro fikr almashishlarini ta‘minlashga xizmat qiladigan texnologiya
- Diapazon (yunon. “diapason” – “barcha (torlar) orqali”)** – tovush hajmi bo‘lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi ohanglar bilan belgilanadi.
- Diksiya (lot. “diction” – “talaffuz qilish”)** – so‘zlarning aniq talaffuz qilinishi
- Didaktik o‘yinlar** – o‘rganilayotgan obekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o‘quv faoliyati turi
- Dramatik o‘yinlar (psixologik va ijtimoiy dramalar)** – psixologik hamda ijti-moiy masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan o‘yinlar
- Jest (gavda, qo‘l va oyoq harakatlari)** – muayyan hodisa yoki ob‘ektga nisbatan munosabatning gavda, qo‘l va oyoq harakatlari yordamida ifodalanishi
- Ijodiy loyihalar** – inividual yoki hamkorlik asosida ijodiy xarakterga ega yangi ta‘lim mahsulotlari (ijodiy hisobot, ko‘rgazma, dizayn, videofilm, nashr ishlari – kitob, almanax, buklet, albom, bosma va elektron jurnal, kompyuter dasturlari kabilar)ni yaratishga yo‘naltirilgan loyihalar
- Imitatsion o‘yinlar** – ishlab chiqarish korxonalari, ish o‘rinlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imita-siyalash (taqlid qilish, ko‘chirish) asosida talabalarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yo‘naltiradigan o‘yinlar
- Individual ta‘lim** – ta‘lim jarayonida o‘qituvchining faqatgina bir nafar o‘quvchi bilan yoki o‘quvchining ta‘lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter, televidenie, radio va b. axborot texnologiyalar) bilan o‘zaro hamkorligi asosida o‘quv materiallarining o‘zlashtirilishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan ta‘lim
- Invigilator** – masofaviy ta‘lim asosida tashkil etiladigan o‘qitish natijalarini nazorat qiluvchi mutaxassis-pedagog
- Innovatsion faoliyat** – yangi ijtimoiy talablarning an‘anaviy me‘yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi

natijasida vujudga keladigan majmualari muammolarni echishga qaratilgan faoliyat

- Interfaol ta'lim** (ingl. "interact", rus. "interfaol"; "inter" – o'zaro, "act" – harakat qilmoq) – talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarini o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim
- Intuitsiya** (lot. "intuition" < "intueri" – "sinchiklab, diqqat bilan qaramoq") – mantiqiy bog'lanmagan yoki mantiqiy xulosaga kelish uchun etarli bo'lmagan-da qidiruv yo'nalishlari asosida masalani echishning tarkibini bo'l-gan evrestik (unumli ijodiy fikrlash) jarayoni
- Ishbilarmonlik o'yinlari** – ma'lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlar mazmunini yori-tish, ularni samarali, to'g'ri, oqilona uyushtirishga doir ko'nikma, malaka hamda sifatlarini o'zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan o'yinlar
- "Keys-stadi" texnologiyasi** (ingl. "case" – chemodan, metod, "study" – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – talaba-larda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya
- Kompyuter ta'limi** – ta'lim oluvchilarning o'qish, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga oladigan bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning axborotlarni to'plash va uzatishdan iborat faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya vositalari hamda dasturiy-metodik ta'minot asosida tashkil etiladigan ta'lim
- Kompyuter ta'limi texnologiyalari** – ta'lim oluvchilarning o'qish, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga oladigan bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning axborotlarni to'plash va uzatishdan iborat faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya vositalari hamda dasturiy-metodik ta'minot asosida tashkil etiladigan ta'limning shakli, metod va vositalari majmui (kompyuter, skaner, telefon, faks modem, videokamera, LCD proyektor, inter-aktiv elektron doska, videoko'z, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Internet tarmoqlari, shuningdek, mobil aloqa, ma'lumotlar omborini boshqarish hamda sun'iy intellekt tizimlari)
- Konsorsium** (lot. "consortium" – "shariklik", "birgalikda ishtirok etish") – masofaviy ta'limni tashkil etuvchi ikki universitetdan iborat birlashma
- Loyihalash** – boshlang'ich ma'lumotlar, aniq belgilangan vaqt, maxsus tanlangan shakl, metod va vositalarga tayanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali avvaldan faoliyat modelini tuzish, faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat
- Loyiha** (lot. "projectus" – "ilgari surilgan") – aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli
- Loyiha metodi** – o'quv jarayonini individuallashtirish, o'quvchining o'zini mustaqil namoyon qilishini rejalashtirish, o'z faoliyatini oqilona tashkil-lashtirish va nazorat qilish imkoniyatini beradigan ta'lim metod-lari majmui
- Loyiha ta'limi** – ta'limiy xarakterdagi aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ta'lim
- Masofaviy ta'lim** – muayyan nuqtadan axborot-kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televidenie va b.) yordamida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'limiy mahsulotlarni tarqatish va etkazib berishdai an'anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta'lim resurslaridan foydalanishga yo'naltirilgan ta'lim

- Masofaviy ta'lim texnologiyalari** ta'limning belgilangan mazmun asosida amalga oshirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan shakl, metod va vositalar majmuasidir
- Modellashtirish** - hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to'la yorituvchi modelni yaratish
- Model** – real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi
- Moderator** – masofaviy ta'lim negizida tashkil etilayotgan seminar, trening, davra suhbat va forumlarga boshchilik qiluvchi (boshqaruvchi) pedagog bo'lib, u muloqot jarayonining to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi, bil-dirilayotgan fikrlarni umumlashtiradi, zarur bo'lganda ularni to'g'ri-laydi, ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyat-larini rivojlantiradi, bilish faoliyatlarini faollashtiradi)
- “Modul”** (lot. “modulus”) tushunchasi: 1) tizim ichidagi o'zaro chambarchas bog'liq element-lardan iborat tugun; 2) muayyan texnologiyani tashkil qiluvchi tarki-biy bo'laklarni ifodalovchi atama; 3) o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi
- Modul ta'limi** – o'quv jarayonini tashkil etishning muayyan shakli bo'lib, unga ko'ra o'quv materialini mantiqiy tugallangan birliklari – modullarga asoslangan holda ma'lum bosqich va qadamlar asosida o'zlashtiriladi (B.P.Farberman)
- Muammoli vaziyat** – talabalarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani echish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'liq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi
- Muammoli vaziyat metodi** – talabalarni muammoli vaziyatga to'qnash kelishini ta'min-lash asosida muammoli vaziyatning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, ularning echimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllanti-rish va ularning bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yo'l
- Muammoli ta'lim** – talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshi-rish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim
- Muammoli ta'lim texnologiyalari** – talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqot-larni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim texnologiyalari (muammoli bayon; muammoli ma'ruza; evristik suhbat; muammoli namoyish; izla-nishga asoslangan amaliy mashg'ulot; ijodiy topshiriq; xayoliy muam-moli tajriba; muammo farazlarini shakllantirish; masalalarni muammoli echishning optimal variantlarini tanlash; muammoli vazifa; muammoli o'yin)
- Mustaqil ta'lim** – 1) OTM talabalarida pedagog rahbarligi va nazorati ostida o'quv hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarida egallangan BKMni mustahkamlash, boyitish, ular tomonidan yangi BKMni mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlash, ularni kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim
- Kreativlik** (ingl. “create ” – yaratish, “creative ” – “yaratuvchi”, “ijodkor”) – indi-vidning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati
- Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kas-biy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijala-rini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi

- Mahorat** (arab. “mohirlik”, “ustalik”, “epchillik”) – 1) biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san’at, mohirlik; 2) bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o‘ta mohirlik bilan bajarish; 3) muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui
- Metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash
- Mimika** (yunon. “mimikos” – “taqlidiy”) – yuz muskullari harakatlari orqali shaxs-ning o‘z fikri, his-tuyg‘ulari, kayfiyati hamda mavjud voqelikka munosabatini ifodalashi
- Muloqot jarayonida axborot almashish vositalari** – shaxslararo muloqot jarayonida axborot almashinuvini ta’minlovchi moddiy va nomoddiy narsa, omillar (og‘zaki va yozma nutq, paralingvistik va ekstralingvistik tizimlar, muloqotning tashkiliy ko‘lami va vaqti, ko‘z qarashlar yor-damidagi tashkil etiladigan aloqa, belgilarning optik-kinetik tizimi (mimika, pantomimika, jestlar – gavda, qo‘l va oyoq harakatlari))
- Muloqot** – 1) kishilarning o‘zaro aloqasi, bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishlari kishilar o‘rtasidagi aloqani tiklash va rivojlantirish jarayoni; 2) kishilarning bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishi asosida ular o‘rtasida ro‘y beradigan axborot almashinuvi
- Muloqot madaniyati** – 1) muloqot jarayonini axloqiy me’yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik; 2) pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlaridan biri
- Nafas olish** – 1) organizmga hayot bag‘ishlovchi fiziologik funksiya; 2) nutqning energiya bazasi
- Nafas olish texnikasi** – fiziologik funksiya yoki nutqning energiya bazasi sifatida nafas olishda qo‘llaniladigan vositalar majmui
- Noyob qobiliyatlar** – shaxsga xos individual psixologik xususiyatning shunday turi bo‘lib, u juda kam sonli shaxslardagina kuzatiladi va ko‘p uchraydigan psixologik hodisa sanalmaydi
- Nutq apparati** – nutqni hosil qilishda ishtirok etuvchi organlar.
- Nutqli (yoki tovushli) nafas olish (fonatsion, yunon. “phono” – “tovush”)** – nafasning nutq jarayonidagi olinishi
- Nutq madaniyati** – o‘z fikrini nutq yordamida mantiqli, to‘g‘ri, obrazli, aniq va ifodali etkazib berish malakalarining o‘zlashtirilganlik darajasi
- Nutq texnikasi** – nutqni tinglovchi yoki o‘quvchiga etkazishda qo‘llaniladigan vositalar majmui
- Nutq hosil qiluvchi organlar** – nutqni hosil qilish jarayonida ishtirok etuvchi organlar (o‘pka, ikkita bronx, traxeya, kekirdak, bo‘g‘iz, hiqildoq, halqum, tishlar, burun bo‘shlig‘i, lablar)
- Pantomimika** – pedagog tomonidan bayon etilayotgan muayyan fikrni alohida ajratib ko‘rsatishga, ma’lum qiyofa orqali gavdlantirishga imkon beradi gavda, qo‘l va oyoqlarning harakati
- Pedagogik bilim** – bolalarni o‘qitish va tarbiyalash, ta’lim hamda tarbiya jarayonini tashkil etish asosida shaxsni har tomonlama kamol toptirishga doir tizimlangan ma’lumotlar yig‘indisi
- Pedagogik bilimdonlik** – 1) pedagog tomonidan mutaxassislik bilimlarining puxta egallanganligi; pedagogning bilag‘onligi; 2) pedagogning kasbiy faoliyatni mavjud ijtimoiy talab, huquqiy me’yor va standartlarga muvofiq tashkil etishga bo‘lgan qobilligi, kasbiy tayyorgarlik darajasi

- Pedagogik boshqarish** – pedagogik jarayonlarni tashkiliy-metodik jihatdan uyushtirish (talabalar faoliyatni boshqarish; talabalar jamoasini boshqarish)
- Pedagogik dunyoqarash** – pedagog va ta’lim oluvchilar o’rtasidagi o’zaro munosabatlari jarayonining mazmunini, natijalarini belgilovchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimi
- Pedagogik ijod** – pedagogning kasbiy jarayonni samarali tashkil etishga yo’naltirilgan yaratuvchanlik faoliyati
- Pedagogik intuitsiya (lot. “intueri” – “sinchiklab, diqqat bilan qarash”)** – pedagog tomonidan pedagogik voqea-hodisaning mohiyatini, o’quvchi xatti-harakatlari mazmunini tasavvur, empatiya va orttirilgan tajriba asosida his-tuyg’u, sezgi yordamida, ziyraklik bilan mantiqiy dalillarsiz bevosita anglash
- Pedagogik kreativlik (lot. “creatio” – “yaratish”)** – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samara-dorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g’oyalarni yaratish, shuning-dek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo’lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati
- Pedagogik loyihalash madaniyati** – pedagog tomonidan o’zining ichki imkoniyatlari bilan talab, xohish-istaklarni o’zaro uyg’unlashtira olgan holda maqsad, vazifalarni to’g’ri belgilay olish, pedagogik jarayonni bosqichlar bo’yicha rejalashtirish, rejani amalga oshirishda zarur vositalarni tanlab bilish malakasi egalikni tavsiflovchi sifat
- Pedagogik mahorat** – 1) o’qituvchining pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub’ektiv jihatdan o’ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish va boshqarish qobiliyati, ko’nikma-malakasiga egaligi; 2) ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondoshuv, metodik bilimlarni samarali qo’llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur; 3) pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishini ta’minlovchi bilim, ko’nikma va malakalar majmui
- Pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlari** – o’qituvchilarda namoyon bo’ladigan kasbiy mahorat asosini tashkil etuvchi element (unsur)lar (pedagogik odob, pedagogik bilimdonlik, pedagogik qobiliyat, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik relaksatsiya, kommunikativ ta’sir ko’rsatish qobiliyati, pedagogik takt (nazokat), pedagogik texnika, nutq texnikasi, pedagogik ijodkorlik, pedagogik tajriba, pedagogik madaniyat)
- Pedagogik muammo** – hal qilinishi zarur, biroq, hali echish usuli noma’lum bo’lgan pedagogik xarakterdagi masala
- Pedagogik muloqot** – pedagogning o’quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan uyushtiriladigan suhbat
- Pedagogik muloqot madaniyati** – pedagogning o’quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob va muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiriladigan suhbat
- Pedagogik muloqotning avtoritar uslubi** – pedagogik muloqotda o’qituvchining mutloq ustunligini ifodalovchi uslub
- Pedagogik muloqotning demokratik uslubi** – pedagogik muloqotda o’qituvchi va o’quvchilarning o’zaro hamkorligini ifodalovchi uslub
- Pedagogik muloqotning liberal uslubi** – pedagogik muloqotda o’qituvchining e’ti-borsizligini ifodalovchi uslub
- Pedagogik muloqot uslublari** – o’qituvchilar tomonidan pedagogik jarayonda ta’lim ishtirokchilari bilan muloqotni tashkil etishda qo’llaniladigan usullar majmui (avtoritar uslub, demokratik uslub, liberal uslub)

- Pedagogning individual rivojlanish dasturi** – pedagogning individual ravishda o‘zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, BKM, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi
- Pedagogik novatorlik** – pedagogik faoliyatda ilg‘or tamoyil yoki g‘oyani asoslash, yangi yo‘l, usul yoki vositalarni tavsiya qilish, ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan ijodiy yondoshuv
- Pedagogik obro‘** – pedagogning o‘quvchilar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa, shuningdek, jamiyat tomonidan e‘tirof etilgan axloqiy maqomi
- Pedagogik odob** – o‘qituvchi oldiga uning o‘ziga, kasbiga, jamiyatga, bolalarga va o‘quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga munosabatda bo‘lishiga nisbatan qo‘yiladigan axloqiy talablar tizimi
- Pedagogik relaksatsiya** (lot. “relaxatio” – “zaiflashish”, “bo‘shashish”) – talabalarning hissiy faoliyati, ruhiy-jismoniy quvvati va ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash
- Pedagogik refleksiya** (lot. “reflexio” – “ortga qaytish”, “aks etish”) – pedagogning shaxs ongi mohiyati va vazifalarini, shu jumladan, qadriyatlarini, qiziqish-lari, rag‘batlantiruvchi omillar, fikrlash, idrok, qarorlar qabul qilish, hissiy ta’sirlanish, xatti-harakatlari va boshqalarning mohiyatini anglab etishi
- Pedagogik tafakkurning rivojlanish bosqichlari** – pedagog tomonidan kasbiy faoliyatni tashkil etish yoki pedagogik yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarda ixtisoslik BKMning o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq holda tafakkurning izchil, qadam-baqadam rivojlanib borish davrlari
- Pedagogik tajriba** – kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida pedagog tomonidan o‘zlashtirilgan orttirilgan BKM majmui
- Pedagogik takt** (lot. “tactus” – “dahl qilish”, “dahldorlik”, “his etish”, “tuyg‘u”) – pedagogning o‘quvchilar bilan turli faoliyat shakllari bo‘yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar hamda hulq-atvor qoidalariga rioya qilishi, ularga to‘g‘ri yondoshish malakalariga egaligi
- Pedagogik tafakkur** – pedagogik jarayon, vaziyat va hodisalar mohiyatining, shuningdek, ular o‘rtasidagi muhim bog‘lanish va aloqalarning pedagog ongida to‘laqonli aks etishi, yangi g‘oyalarni ilgari surish, yangiliklar yaratish, shuningdek, pedagogik jarayon, vaziyat va hodisalarning natijalarini bashoratlash; pedagog aqliy faoliyatining yuksak shakli
- Pedagogik texnikaning vositalari** – pedagog tomonidan o‘quvchilarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo‘ladigan ma’naviy-axloqiy sifatlariga nisbatan sub’ektiv munosabat, alohida his-tuyg‘ularning ma’noli ifodalanishini ta’minlovchi vositalar (nutq va og‘zaki bo‘lmagan muloqot)
- Pedagogik texnika metodlari** – pedagog tomonidan o‘quvchilarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo‘ladigan ma’naviy-axloqiy sifatlariga o‘zining sub’ektiv munosabat, alohida his-tuyg‘ularni ma’noli ifodalani-shini anglatuvchi metodlar
- Pedagogik texnika** – pedagog tomonidan o‘zlashtirilgan alohida talaba va talabalar jamoalariga pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlarini amalda samarali qo‘llay olish uchun zarur bo‘lgan BKM yig‘indisi (o‘zini o‘zi his-siy boshqarish, pantomimika, mimika, jest (gavda, qo‘l, oyoq harakat-lari), nutq texnikasi, alohida so‘z yoki ifodalarni ifodalash sur‘ati (ritmika))
- Pedagogik hamdardlik (empatiya)** – pedagogga xos sifat (talabalar, ota-onalar, ham-kasblar va rahbarlarning xatti-harakatlari, hissiyotlari, hayotiy intilishlari, tabiatlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma’qullash asosida jamoadagi munosabatlarni me’yorda tashkil etilishini ta’minlash; o‘zgalarning ichki holatini, o‘y-fikrlarini va his-tuyg‘ularini tushuna olish; boshqalarning boshiga tushgan kulfat, falokatlardan qayg‘urish; rollarni qabul qilish –

og'ir vaziyatda bo'lgan kishilarning o'rniga o'zini tasavvur, mushohada yordamida qo'yib ko'rgan holda ulardagi ijobiy his-tuyg'ularini qayta tiklashga ko'maklashish; o'zgalarning qayg'u-alamlaridan, kulfatlaridan qayg'urish, ko'ngilni ko'taruvchi, taskin beruvchi so'zlar bilan og'ir vaziyatda qolgan kimsa-larga ijobiy ta'sir ko'rsatish

- Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish** –faqat pedagoglarga xos bo'lgan qobiliyat-larni yanada boyitish va takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitni yaratish
- Pedagogik qobiliyat** –pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish va olib borili-shiga imkon beradigan, amaliy vazifalarning samarali bajarilishi-ni ta'minlashda ahamiyatli bo'lgan pedagogga xos xususiyatlar
- Perseptiv-pedagogik qobiliyatlar** (lot. “perceptio” – o'zlashtirish) – shaxsning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchining psixik holatlarining nozik jihatlarni tushuna olish qobiliyati
- Psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy kelib chiqqan holda to'g'ri qarorlar qabul qilishi va ularni amaliyotga samarali tatbiq eta olishini ifodalovchi sifat
- SHaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyat-larni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish
- Relaksopediya** (lot. “relaxation” – “quvvatsizlik”, “zaiflashish”, ruhan yoki jismonan holda toyishni bartaraf etish pedagogikasi) – shaxsda ruhiy va jismoniy toliqishlarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat
- Ritmika** – ayrim so'z va bo'g'inlarning aytilish muddati va to'xtalishi, nutq va ifoda-larning navbat bilan o'z o'rnida ishlatilishi
- Ritm** (yunon. “rhythmos” < “rjeo” – “oqaman”) – nutqda tovushlarning muayyan izchillik, ketma-ketlikda asosida takrorlanib kelishi, ya'ni nutq vaznini ifodalovchi muhim xususiyat
- Repetitorlik ta'limi** (lot. “repetitor” – “orqaga qaytishni talab qiluvchi”, “takror-lovchi”) - individual ta'limning eng ommalashgan zamonaviy turi
- Rivojlanish** – shaxsning fiziologik hamda intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon
- Rivojlantiruvchi ta'lim** – ta'lim oluvchilarning ichki imkoniyatlari rivojlantirish va ularni to'la ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan ta'lim
- Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari** – ta'lim oluvchilarning ichki imkoniyat-lari rivojlantirish va ularni to'la ro'yobga chiqarishga yordam bera-digan texnologiyalar (treninglar; ijodiy topshiriqlar; keyslar; test-lar, boshqotirmalar, mantiqiy masalalar, maxsus mashqlar, tez aytish-lar, topishmoqlar, krossvordlar, rebuslar, skanvordlar, chaynvordlar, loyihalar, bellashuvlar, didaktik o'yinlar, “Zakovat” o'yini, lego o'yinlari, mozaikalar, stol o'yinlari (“Birja”, “Bank”, “Monopoliya” va b.), konstruksiyalar va b.)
- Rolli o'yinlar** – ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga yo'naltirilgan o'yinlar
- Sinkveyn** (fr. “besh qator” ma'nosini anglatadi) ma'lumotlarni sintezlash (alohida ma'lumotlar asosida yaxlit g'oyalarni shakllantirish)ga yordam bera-digan qofiyasiz she'r bo'lib, u asosida o'rganilayotgan mavzu (tushuncha, hodisa, voqea)larga oid ma'lumotlar to'planadi; har bir o'quvchi (talaba) ushbu ma'lumotlar yig'indisi (qofiyasiz she'r)ni o'z so'zlari bilan turli variant yoki nuqtai nazarlar orqali ifodalash imkoniyatiga ega

- Sinkveyn tuzish** – murakkab g‘oya, sezgi va hissiyotlarni bir necha so‘z orqali yaqqol, yorqin ifodalash malakasi bo‘lib, bu jarayon mavzuni puxtaroq o‘zlashtirish, ma’lumotlarni yaxshiroq anglashga yordam beradi
- Syujetli o‘yinlar** – pedagogik voqelik, hodisalar bayonining muayyan izchilligi va unda ishtirok etayotgan shaxslar faoliyatining o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan o‘yinlar
- Tashkilotchilik qobiliyati** – pedagog tomonidan ta’limiy va tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy-nazariy, metodik va hissiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishini anglatuvchi sifat
- Tabaqalashtirilgan talim** – ta’lim oluvchilarning shaxsiy layoqatlari, qiziqishlari, qobiliyatlarini aniqlash asosida ularga turli o‘zlashtirish darajalari bo‘yicha, biroq, DTS va o‘quv dasturi talablaridan kam bo‘lmagan hajmdagi materiallarni berishga yo‘naltiriladigan ta’lim
- Tabaqalashtirilgan talim** – ta’lim oluvchilarning shaxsiy layoqatlari, qiziqishlari, qobiliyatlarini aniqlash asosida ularga turli o‘zlashtirish darajalari bo‘yicha, biroq, DTS va o‘quv dasturi talablaridan kam bo‘lmagan hajmdagi materiallarni berishni ta’minlovchi texnologiyalar (mual-liflik dasturlari; ijtimoiy loyihalar; maxsus metodikalar, test-lar, tashxislovchi, yo‘naltiruvchi, davolash va tayyorlov kurslari, treninglar, maslahatlar, maxsus va imitatsion trenajyorlar)
- Tadqiqot loyihalari** – ilmiy izlanish xarakteriga ega loyihalar bo‘lib, uning tarkibiy tuzilishi muammoning dolzarbligi, ishlanganlik darajasi, tadqiqot maqsadi, ilmiy farazi, vazifalari, muammoni tadqiq etishda qo‘llaniladigan metodlar, ko‘p bosqichli pedagogik tajriba va olingan natija va xulosalarga asoslangan holda ilgari suriladigan amaliy-metodik tavsiyalardan iborat bo‘ladi
- Tayanch konspekt** – nazariy o‘quv material (axboroti)ni grafikli tasvir (qisqa xulosa, tushuntiruvchi surat, shartli ramz, sxema, javal, grafik chizma va b.)da ifodalovchi konspekt
- Ta’lim jarayonini loyihalashtirish** o‘qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo‘yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil-lashtirishdan to‘mmaviy baholashgacha bo‘lgan mustaqil harakat qilishini ta’minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o‘quv faoliyatidir
- Texnologik model (pasport)** – ta’lim yoki ma’naviy-ma’rifiy tadbirning asosiy ko‘rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat
- Texnologik xarita** – ta’lim jarayonni bajaruvchi yoki ma’lum ob’ektga texnik xizmat ko‘rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma’lumotlar, ko‘rsatmalarni o‘z ichiga olgan hujjat
- Tembr** (fr. “timbre” – “qo‘ng‘iroq”, “belgi”, “tamg‘a”, “farqlovchi belgi”) – tovushning tovlanishi (tovush rangdorligi, yorqinligi, yumshoqligi va alohidligi)ni ifodalovchi xususiyat
- Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiya-larni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish
- Tovushning ixchamligi va harakatchanligi** – nutq hosil qiluvchi organlar faoliyati asosida hosil bo‘lgan tovushning bejirim, yig‘inchoq va tebranuvchan ekanligini anglatuvchi xususiyat
- Tovush kuchi** – nutq hosil qiluvchi organlar faoliyati asosida hosil bo‘lgan tovushning quvvati
- Tovush pardozi** – nutq hosil qiluvchi organlar faoliyati asosida hosil bo‘lgan tovushning sayqali, bezagi
- Tovush** – chiqarilgan havoni xiqildoqdan o‘tish paytida ovoz pardalarning tebranishi natijasida vujudga keladigan hodisa, sado, sas
- Tyutor** (lot. “tutorem”) – o‘quv kurslari uchun interfaol metodlarni tanlovchi, ma’ruza o‘qituvchisi bilan talaba o‘rtasida ta’limiy aloqani o‘rnatuvchi ustoz, murabbiy

- Uzoqlashtirilgan auditoriyalar** – masofaviy ta’limda bir oliy o‘quv yurtida tashkil etilayotgan o‘quv kurslari, ma’ruza va seminarlarning undan uzoq masofada joylashgan ta’lim muassasalarining o‘quv auditoriyalarga telekommunikatsiya vositalari orqali sinxron teleko‘rsatuv, videoanjuman va radioeshittirish ko‘rinishida uzatilishi
- Fasilitator** (lot. “facilis”, ingl. “facilitator” – engil, qulay) – masofaviy ta’lim xizmat-idan foydalanayotgan guruhlarning faoliyatini natijasini muammo-ning ilmiy echimini topishga yo‘naltiruvchi, guruhlarda yuzaga keladi-gan muloqotni rivojlantiruvchi, shuningdek, guruhlar faoliyatini xolis, samarali baholovchi pedagog
- Franchayzing** (“franchise” – “litsenziya”, “huquq”) – o‘zaro hamkor universitetlarning bir-birlariga o‘zlari tomonidan tashkil etiladigan masofaviy ta’lim kurslarini tashkil etish huquqining berishi
- SHaxsga yo‘naltirilgan ta’lim** – talabani fikrlash va harakat strategiyasini inobat-ga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim
- SHaxsni rivojlantirish** – individda vaqt nuqtai nazaridan jismoniy va ruhiy o‘zga-rishlarning sodir bo‘lish jarayoni bo‘lib, u orqali individ kamdan ko‘pga, oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga ko‘rsatgichlari orqali takomillashib, kamolga etib boradi
- Edvayzer** (fr. “avisen” – “o‘ylamoq”, “advisor” – “o‘ylovchi”) - bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarining ta’lim oluvchilar tomonidan individual, mustaqil bajarilishi vaqtida metodik yordam beradigan maslahatchi
- O‘yin** – kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko‘chirish, taqlid qilish) asosida o‘zlashtirish shakli
- O‘yin texnologiyalari (o‘yin ta’limi)** – ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri
- O‘qituvchi nutqi** – pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonida til vositalaridan foydalani-shi
- O‘quv loyihasi** – 1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va echish, natija (echim)ni mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usuli; 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni echishga qaratilgan o‘quv harakati vositasi; 3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta’lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik vosita
